

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“PSIXOLOGIYA KAFEDRASI”

**“Ijtimoiy va oila psixologiyasi” fanidan
o'quv uslubiy tuzilma**

*Maktabgacha ta'lim, ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun*

O'QUV MASHGULOTI ISHLANNASI

Давлат таълим стандартига асосан _____ -
«Maktabgacha ta'lim, ta'lim yo'nalishi talabalari uchun»
таълим йўналиши бўйича тахсил олувчи
бакалаврларнинг ўзлаштириши лозим бўлган
билимлар мазмунига зарурий талабалар мажмуаси
ишлаб чиқилган.

Ушбу дастур юзасидан талабаларга ижтимоий ва
оила психологиясининг долзарб муаммолари
юзасидан амалий ва назарий билимлар мажмуасини
беришга қаратилган.

Тузувчи: Б.Э.Пармонов

АДУ психология кафедраси катта ўқитувчиси

Такризчи: Т.Г.Сулейманова

АДУ психология кафедраси мудири, доцент

K i r i s h

Bugun mustaqil yurtimiz fuqarolari psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ulardagi hayotda, uning qadriyatlariga, kasb-kori, oilasi va yaqinlariga bo'lgan munosabatlarida tobora milliy istiqlol mafkurasining asosiy mazmun va mohiyatlari mujassamlashmoqda. SHu ma'noda psixologiya fanining muhim tarmog'i bo'lmish *ijtimoiy va oila psixologiyasi* oldida turgan vazifalar ko'lam va salmog'i kattadir.

Biz jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning ijtimoiy psixologik mohiyatini ijtimoiy va oila psixologiyasining bugungi xolati va istiqboli nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali bu fanning jamiyatdagi o'rni va imkoniyatlariga baho berishni niyat qildik.

O'quv uslubiy tuzilmada ko'tarilayotgan masalalar ijtimoiy hayot sirlarining muxtasar bayoni bo'lsada, ma'lum ma'noda ijtimoiy va oila psixologiyasining ilmiy amaliyot va ilmiy tadqiqot quroli sifatidagi imkoniyatlari to'g'risida tasavvur beradi.

Ijtimoiy va oila psixologiyasining vazifalaridan kelib chiqib, talabalarga dars jarayoni orqali hukmiga havola etilayotgan ushbu uslubiy tuzilmaning asosiy maqsadi insonning jamiyat va oila bilan bo'ladigan ko'plab murakkab munosabatlari tizimining ijtimoiy psixologik mexanizmlarini yoritib berishdir. Ushbu o'quv uslubiy tuzilma yoshlarga aynan psixologik bilimlar asoslarini bersada, umid qilamizki, ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga holis baho berish, o'zi va o'zgalar ruhiyati sir-asrorlarini befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elementar vositalaridan bohabar bo'lishga yordam beradi.

Uslubiy tuzilma ijtimoiy psixologiya asoslari bo'yicha muxtasar bilimlarni beradi, bunda albatta ijtimoiy va oila psixologiyasidagi tadbqiqiy, amaliy sohalarga, boshqaruv va rahbarlik masalalariga, muloqot va uni samarali ta'sir etish yo'llariga, muloqotning shakllari, bosqichlari, vositalariga, shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi turli toifalardagi oilalarga e'tiborni qaratadi. Har bir mavzuda avvalida ko'riladigan masalalar, mavzuning qisqacha mazmuni, mavzu yakunida esa qisqacha xulosa, nazorat savollari, mavzu yuzasidan testlar hamda mustaqil ishlar uchun mavzular berilgandir.

Assistent B.Parmonov

№	Mavzular nomi	Ajratilgan soatlar					
		Ja`mi	Ma`ruza	Amaliy	Laborat.	Seminar	Mustaqil ta`lim
1	Ijtimoiy va oila psixologiya fanining shakllanish tarixi Ijtimoiy psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi.	16	2	4		4	6
2	Ijtimoiy psixologiyaning metodlari. Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi	12	2	2		2	6
3	Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi	12	2	2		2	6
4	Ijtimoiy guruhlar psixologiyasi	16	2	4		4	6
5	Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi	12	2	2		2	6
6	Boshqaruv psixologiyasi	12	2	2		2	6
7	Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari	12	2	2		2	6
8	Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi	12	2	2		2	6
9	Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari Oilaviy munosabatlar psixologiyasi	12	2	2		2	6
10	Oilaviy nizolar va ularning turlari Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi	8	1	2		2	3
11	Oilaviy konsultatsiya O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi	8	1	2		2	3
	Jami:	136	20	28		28	60

1-mavzu: Ijtimoiy va oila psixologiya fanining shakllanish tarixi, ijtimoiy psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi.

Reja

1. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi tarixi.
2. Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi.
3. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari
4. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbai.
5. Ijtimoiy psixologiya fani predmeti va vazifalari

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishi

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa, falsafiy qarashlar ta'sirida bo'lib, sof ijtimoiy psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarini kuzatamiz. Lekin ular bu hodisalarni o'z davri ruhida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotini o'rganish uchun ijtimoiy psixologik muammolar yoritilgan asar yoki kashfiyotchining yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini ham o'rganish lozim. Ilmiy manbalar ijtimoiy psixologiyaning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o'zining sezilarli ulushini qo'shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim G.Olport ijtimoiy psixologik g'oyalarning yaratilishi va rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblardan hisoblangan Platon nomi bilan bog'liq deb yozgan edi.

Platon o'zining "Davlat" va "Qonunlar" deb atalgan dialoglarida shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to'xtalib, jamiyat individga nisbatan o'zgarmas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo'ysunadi, degan fikrni himoya qilgan. Unga qarama-qarshi fikrni Aristotel bayon etib, individni barcha ijtimoiy o'zgarishlarning sababchisi, chunki unda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya'ni, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo'lgan bo'lsa, Aristotelda bu narsa shaxs foydasiga yechilgan. Ulardan keyingi — yangi davr faylasuflari — Gobbs, Gelvetsiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Beruniy, Forobiylar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga urindilar, lekin hech qaysisi bu muammoni ijtimoiy psixologik muammo darajasiga ko'tara olmadi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, kapitalistik munosabatlarning keskinlashuvi, turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning tobora o'sib borishi, turli xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chishi—migratsiya munosabati bilan qator ijtimoiy fanlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Shu o'rinda ijtimoiy psixologiyaning ilmiy manbalaridan biri bo'lgan sotsiologiya fanining xizmatini ko'rsatmay bo'lmaydi. Sotsiologiyaning asoschilari hisoblangan Ogyust Kont, Gerbert Spenser va boshqalar, masalan, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni o'rganish uchun albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik xolatlarni o'rganmoq lozim, degan fikrni qat'iy turib isbot qildilar. Ular har bir ijtimoiy voqeada ruhiy hodisalar borligini isbot qilishga urindilar. Masalan, fransuz sotsiologi G.Tard har bir individda "ijtimoiy fakt" borligini, bu narsa uning miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatni o'z ichiga olib, bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi. Shunday qilib, sotsiologiyada psixologik yo'nalish paydo bo'ldi. Tarddan keyin L.Uord, F.Giddings va boshqalar ijtimoiylik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy fakt — bu ijtimoiy aql, tafakkur bo'lib, u "jamiyat psixologiyasi" yoki sotsiologiyaning bahs mavzuidir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy manbalar, shart-sharoitlar tufayli ijtimoiy-psixologik g'oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar sof psixologiyaga ham o'xshamagan, sotsiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fanning—ijtimoiy psixologiyaning paydo bo'lishi uchun zamin rolini o'tadi.

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo'ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazifasi turar edi. Ikkinchidan esa, Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot ob'ektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishdan kichik guruhlariga ko'chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim (psixoanaliz, bixeviorizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o'rganish tendensiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlariga va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

Geshtald psixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy psixologik yo'nalishlarning — interaksionizm va kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K.Xall va V.Skinnerlar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K.Miller, D.Dollard, Dj.Tibo, G.Kelli va boshqalar diada — ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar. Diada sharoitida tajribada o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan farqli o'laroq ijtimoiy psixologik bixevioristlar hayvonlar o'rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida

biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy psixologik tadqiqotlar E. Fromm va Dj. Salliven ishlari bilan bog'liq bixevioristlardan farqli o'laroq bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirokida o'tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V.Bayon, V.Bennis, G.Sheparde, V.Shutk) o'tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan kichik T—guruhlar psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

Kognitivizm K.Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish obekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognetiv holatlar bo'ldi. Kognitivizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o'xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, F.Xayderning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T.Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad — turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, K.Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Navbatdagi nazariya *interaksionizm* bo'lib, bu aslida sotsiologik nazariya bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo'lib, uning qarashlari ta'sirida T.Sarbinning rollar nazariyasi, G.Xaymen va R.Mertonlarning referent guruhlar nazariyasi, F.Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllandi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimida mavjud bo'ladiki, unda u to'g'ri harakat qilish uchun o'zgalarini tushunishga harakat qilishi, o'zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Lekin o'zgalar rolini to'g'ri qabul qilish uchun unda "umumlashtirilgan o'zga" obrazi bo'lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo'lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo'lish jarayonida shakllanadn. Ya'ni shaxs faolligi tan olinadi, bu esa fan tarixida o'ta progressiv hol edi.

Ijtimoiy psixologiyaning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi

Ijtimoiy psixologiyasining asoschisi deb haqli ravishda V.M.Bexterevni ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlarini tushuntirishga uringanlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rganish orqali shaxsning o'zini va bu harakatlarning sabablarini o'rganish mumkin. Bexterev

asosan sotsiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologiya bilan aralashtirib yubordi, shuning uchun shaxs va jamiyat taraqqiyotining universal qonunlarini aniqlashda chalkashlikka yo`liqdi.

20-30- yillarda bolalar va o`smirlar ijtimoiy psixologik taraqqiyotini o`rganishga qaratilgan ikki yo`nalish paydo bo`ldiki, ular ham qator kamchiliklardan holi bo`la olmadilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irsiy va biologik nasliy omillar yetakchi rol o`ynaydi, deb hisoblashsa, sotsiologik yoki sotsiogenetik nazariyotchilar bu borada ijtimoiy muhit rolini nihoyatda ortiq ekanligini himoya qilib chiqdilar.

30-yillardagi olimlar shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning, jamoaning rolini, ta`lim-tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. Lekin 40—60- yillar ijtimoiy-psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo`ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida ijtimoiy psixologik tadqiqotlar yo`q hisob edi. Bu fan Rusiyada va boshqa sobiq ittifoqdosh jumhuriyatlarda 70- yillardan keyin keskin rivojlana boshladi. Bunda moskvalik va leningradlik (hozirgi Sankt-Peterburg) olimlar maktabi katta rol o`ynadi. Agar Moskva shahrida asosan ijtimoiy psixologiya bo`yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko`plab o`tkazilib, unda hozirgi zamon ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo`lsa, Sankt-Peterburgda ko`proq tadbqiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh ijtimoiy psixologlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg`or fikrlar va dalil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko`rilmagan darajaga ko`tardilar.

O`zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o`rni va istiqbollari

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e`tibor beradigan bo`lsak shuni ta`kidlash lozimki, u oxirgi o`n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Ayniqsa bu borada psixolog olimlar M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G`.B.Shoumarov, E.G`oziev, N.A.Sog`inov, B.M.Umarov kabilarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maqolalarini keltirish mumkin. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O`zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o`ziga xos tarzda shakllanib kelganligini kuzatamiz.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, O`zbekistonda o`tkazilayotgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag`ishlangan. Bu borada bir qator psixologlardan V.Karimova, G`.Shoumarov boshchiligidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin. Masalan, G.B.Shoumarov boshchiligidagi olimlar tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik vazifalari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, oila negizida yuzaga keladigan hissiy munosabatlar, oila qurish motivlari, oilaning bolalar tarbiyasiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillari kabi bir qator jihatlari o`rganildi.

V.Karimova va uning boshchiligidagi ilmiy ishlarida yoshlardagi oila xususidagi tasavvurlar, ularning oila motivlari, oila qurish omillariga munosabatlari, oila turiga ko`ra noto`liq oila muhitidagi shaxs individual-psixologik xususiyatlari, o`z-o`zini baholashi, oila muhitida shaxsda namoyon

bo'ladigan feminin va maskulin sifatlar nuqtai nazaridan yondashishlari taxlil etib berilgandır.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila kurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir.

Lekin O'zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilmog'i lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z yechimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Ijtimoiy psixologiyaning metodologik muammolari va tadqiqot usullari

Ijtimoiy psixologiya to'g'risida gapiriladigan bo'lsa, shuni alohida ta'kidlash lozimki, avvalo jamiyatning bu fan oldiga qo'yayotgan talablari o'ziga xos bo'lib, bu talablar javob berish uchun uning tekshirish uslublari u darajada mukammal emasligidadir. Chunki shu davrgacha ijtimoiy psixologiyada kuzatilgan xodisa shu bo'ldiki, bu fandagi nazariy ishlar tadbqiqiy ishlardan ancha ko'pdir. Shuning uchun ham, G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiyaning metodologiyasi muammlariga to'xtalar ekan, uning bu boradagi intilishlari, vazifalari ko'pligini ta'kidlaydi. Metodologik muammolarga qiziqish, — deb yozadi u, — ijtimoiy psixologiyaning kuchsizligi emas, balki uning yetilish davriga kirganligining belgisidir.

“Metodologiya” tushunchasining ilmiy mohiyati nimada? Bu tushunchani turli nazariy qarashlardagi olimlar turlicha sharhlaydilar va tushunadilar. Masalan, amerikalik psixologlar metodologiya deganda, tadqiqot jarayonida ishlatiladigan barcha tadqiqot uslublari va texnik jarayonlarni tushunadilar. Lekin “metodologiya” tushunchasi aslida uslublar yig'indisidan ham kengroq tushunchadir. Ya'ni, “metodologiya” tushunchasi “konkret metodlar” yoki texnik usullar tushunchalaridan kengroqdir.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolariga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, empirik ma'lumotlar muammosi, ya'ni qay turdagi ma'lumotlarni ijtimoiy psixologik ma'lumotlar sifatida qabul qilish mumkin. Chunki bixevioristlar bunday ma'lumotlar sifatida ko'z bilan ko'rib qayd qilinadigan xulq-atvor shakllarini qabul qilishsa, kognitiv psixologiya vakillari faqat onga taalluqli bo'lgan belgilarni tushunadilar. Demak, har qanday tadqiqotchi ish boshlamay turib, avvalo nimani empirik birlik qilib olishini aniq tasavvur qilishi va uning nazariy jihatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqot birligi aniqlangan taqdirda, qanday hajmdagi birliklar

tadqiqotchini qanoatlantirishi masalasi ham muhimdir. Shuning uchun eksperimental va korrelyatsion tadqiqotlar bor.

Ikkinchi metodologik muammo — bu u yoki bu ijtimoiy psixologik nazariya asosida qonuniyatlar yaratish va ilmiy taxminlar qilish muammosi. Ilmiy tadqiqot boshlashdan oldin tadqiqotchi ma'lum taxminlar yuritadi, lekin shu taxminlarning aniq chiqishi o'sha muammo bo'yicha pishiq - puxta nazariyaning bor-yo'qligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ijtimoiy psixologiyada gipotezalar tuzish va ular asosida kerakli umumiy xulosa chiqarish ishini bilish kerakdir.

Uchinchi muammo — bu ijtimoiy psixologik ma'lumotlarning sifati masalasi, ya'ni qanday ma'lumotni sifatli, ishonarli deb atash mumkinligi masalasidir. O'rganish ob'ektining hajmi yoki soni xususida shuni aytish mumkinki, ko'pincha tekshiriluvchi qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lumot shunchalik ishonchli bo'ladi, degan noto'g'ri fikr mavjud. Agar gipotezalar to'g'ri ilgari surilgan bo'lsa, u kichikroq guruhda o'tkazgan eksperimentlarining ma'lumotiga ham ishonishi mumkin.

Lekin tadqiqot uslubini — metodlarini to'g'ri tanlashda pilotaj — sinov tadqiqoti o'tkazishning ahamiyati kattadir. Bunda o'sha gipotezalarning qanchalik asoslilikini ham, metodikaning aynan maqsadga muvofiqlicini ham, tekshiriluvchilar ob'ektining to'g'ri tanlanganligini ham, ma'lumotlarning turg'unligi, ishonchlilikini ham tekshirib olish mumkin. Bundan tashqari, shu bosqichda tadqiqotchi eksperiment yoki anketa o'tkazish uchun qulay vaziyat va vaqtni belgilash, o'z yordamchilarining ishga qanchalik yaroqliklarini ham sinab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Metodologik ishlarga qarashli tadbirlarning sifati va saviyasi tadqiqotchining qanchalik ilmiy savodxon ekanligini belgilovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi va u o'tkazgan ilmiy tadqiqot ishining bahosini belgilaydi.

Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va uning ijtimoiy tabiati. Ijtimoiy psixologiya fanining tarixi. Uning rasman tan olinishi. Ijtimoiy psixologiya fanining mavzu bahsi.

Ijtimoiy psixologiya fanining uch nazariy manbalari. Xalklar psixologiyasi nazariyasi va uning asosiy g'oyasi. Bu boradagi M.Latsarus, G.SHteytall, V.Vundt, A.Potebni va boshqalarning nazariy qarashlari mohiyati. Omma psixologiyasi nazariyasi va undagi G.Tard, S.Sigeli, G.Lebon yondashuvlari. Lebonning shaxsning omma holatidagi belgilari tasnifi. Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi va U.Makdugall, E.Ross, J.Bolduin qarashlari.

Ijtimoiy psixologiya fani predmeti. Predmetni tushuntirishda G.Gibsh, M.Forverg, Yu.SHerkovin, A.Petrovskiy, V.SHPalinskiy, G.Andreeva ta'riflari. Ijtimoiy psixologiya fanining vazifalari: kichik guruxlar va jamoalar psixologiyasi; shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi, ommaviy xodisalar, oila psixologiyasi masalalari, boshqaruv va muomala psixologiyasi.

Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbai

19-asrning oxiri va 20-asr boshlarida fanda uch nazariya paydo bo'ldiki, ular haqli ravishda ijtimoiy psixologiyaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu uch nazariyani birlashtirib turgan narsa shu bo'ldiki, ularning har biri mustaqil tarzda shaxs bilan

jamiyat munosabatini ilmiy asosda tushuntirishni izlanishlarning asosiy mavzusi deb hisobladilar. Bu uch manba - xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi va ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyalaridir.

Xalqlar psixologiyasi nazariyasi

Halqlar psixologiyasi nazariyasi ijtimoiy psixologik nazariya sifatida 19-asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy g'oya shu ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik esa xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo'laklari bo'lib, ular bu ruhga bo'ysunadilar. Ya'ni, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal qilinadi. Bu nazariyaning tarixiy-mafkuraviy asosi bo'lib Gegel falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan. «Xalqlar psixologiyasi» iborasi birinchi marta faylasuf M.Latsarus hamda tilshunos G.Shteyntallarning «Xalqlar psixologiyasi to'g'risida kirish so'zi» kitobida ifodalab berilgan: «Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch bu xalq yoki shu yaxlitlikning ruhi bo'lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'analarda o'z aksini topadi. Individning ongi shu yaxlitlikning mahsuli bo'lib, ularning yig'indisi o'z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o'rganish, xalq ruhiyati konunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi va yo'nalishini tushuntirib berishdir».

Ushbu kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: «Odam o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi...». Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari yo'q edi.

"Psixologiyaning otasi" hisoblangan Vilgelm Vundt esa xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma'lumotlar to'plashga o'z diqqatini qaratdi. U o'zining "Inson va hayvon ruhi haqida leksiylar"i (1863 y) va 1900 yilda bosmadan chiqqan o'n tomli "Xalqlar psixologiyasi" asarlarida asosan o'zi to'plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag'ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma'lumotlar to'plash usullari, to'plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to'pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar — tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsani tajriba usulida tadqiq etish mumkin. Tajriba usulida o'rganib bo'lmaydigan barcha oliy ruh holatlarini xalqlar psixologiyasi o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir — u madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

Shunga qaramay V.Vundtning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini

yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o'rnini ko'ra bilmagan. Uning izdoshlari — Rusiyalik A. Potebni, nemis olimi T. Geyger va boshqalar ham u yo'l qo'ygan mafkuraviy kamchilikni oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

Omma psixologiyasi nazariyasi

Omma psixologiyasi nazariyasi paydo bo'lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo'lishi va Yevropada ishchilar harakatining ommaviy tus olishi bo'ldi. Ya'ni, XIX asrning ikkinchi yarmida ishchilar harakati shunday keng tus oldiki, tartibsiz harakatlar uyushgan harakat darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham shu harakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarini o'ylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o'rganish natijasida 1890-yilda Gabriel Tardning «Taqlid qilish qonunlari» deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. G.Tard Fransiyada ro'y berayotgan ommaviy hodisalarni, shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvorlarini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya'ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo'lib, har bir individ ommaga qo'shilgan zahoti unga taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo'lib qoladi. Italiyalik huquqshunos S.Sigeli va fransuz olimi G. Lebon ham G.Tard ishlarini ma'qullab, uning nazariyasini faktik materiallar bilan, ya'ni 1895-yilda bosilib chiqqan S.Sigelinig «Ommaning jinoyatlari» va G.Lebonning «Omma psixologiyasi» kitoblari orqali boyitdilar. Bu mualliflarning asarlaridagi asosiy g'oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o'z xulq-atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yo'qoladi. Bunday holatlarda hissiyotlar ustun keladi, ayniqsa, affekt holatlar, shuning uchun ham affekt holatida ro'y bergan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo'lgan, deb qarash adolatli bo'ladi. Bu qarashlari tufayli S.Sigeli Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

Sotsiolog G.Lebon esa asosan diqqatini ommani elitaga — jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlariga qarshi qo'yishga qaratdi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro'y berganda «qiziqqonlik» xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir yerda to'planishi ommani hosil qiladi va bu, odamlar kim bo'lishidan qati nazar — olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiyoq kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi. G.Lebon shaxsning omma holatidagi belgilariga to'xtalib quyidagilarni ajratadi:

1. *Shaxsiy sifatlarning yo'qolishi.* Boshqa odamlar ta'sirida individ o'ziga xos sifatlarni yo'qotishi, buning o'rniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi.

2. *Hissiyotlarga o'ta beriluvchanlik.* Ommada aql, tafakkur, hissiyot, instinktlarga o'z o'rnini bo'shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o'ta oshib ketadi.

3. *Aqliy sifatlarning yo'qolishi.* Ommaning «aqli» uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo'ladi. Shuning uchun ham ommaning taz'yiqligiga uchramaslik

uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

4. *Shaxsiy mas'uliyatning yo'qolishi.* Ommaga qo'shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o'z harakatlarini nazorat qilish, o'z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga qo'shilib qilib qo'yishi mumkin.

Bunday xolatning, ya'ni shaxsning omma orasidagi psixologiyasi to'g'risidagi fikrlarni ayni shunday tarzda Ortegi Gasset va Ernesto Grassilar ham ko'rsatib bergandirlar.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o'rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo "dohiy" kerak, dohiylar — elita tashqaridan kelib omma o'tasida tartib o'rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma'nosi tushunarli, chunki omma deganda, ular ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi tarafdorlari nazariyasida ayrim shaxslar — dohiylar foydasiga hal qilindi. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o'zidan chiqib qoladigan liderlar, ommaning ba'zan tashqaridan hech kimni tan olmay qolishi masalalariga umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko'proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi

Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixologi Uilyam Makdugall bo'lib, u o'zining 1908 yilda yozgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq-atvorlarining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinktlardir, - deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni ta'minlovchi narsa tug'ma, psixofiziologik tayyorlik holati bo'lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Makdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo'lgan barcha qismlar — ya'ni efferent qabul qiluvchi, retseptiv bo'lim, efferent (harakat) va markaziy bo'limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Shunga o'xshash fikrlar E.Ross ("Ijtimoiy psixologiya") va Dj.Bolduin ("Ijtimoiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlar") qarashlarida ham rivojlantirilgan. Masalan, Bolduin ikki turli irsiyat xaqida — tabiiy va ijtimoiy irsiyat haqida yozib, ijtimoiy odamlardagi taqlid qilish qobiliyati bilan bog'liq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir-birlariga ta'sirlarini o'tkazishga moyildirlarki, bu narsa ular o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib turadi.

Shunday qilib, bu yo'nalish tarafdorlarining fikricha, barcha ongli harakatlarning boshi — ongsizlikdir, ya'ni instinktlar bo'lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo'ladi. Hissiyot bilan instinktlar bog'liqligini Makdugall juftliklarda ko'rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instinkti — qo'rquv, g'azab hissi; nasl qoldirish instinkti — rashk ayollardagi tobelik hissi; o'zlashtirish instinkti — xususiylikka intilish hissi va hokazo. Ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda tug'ma instinktlar rolining yuqori qo'yanligi uchun bu nazariya

ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o`rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushuntirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo`ydi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Demak, yuqorida to`xtab o`tilgan uchala nazariyaning ahamiyati shundan iborat ediki, ular yangi tug`ilishi lozim bo`lgan fan — ijtimoiy psixologiyani tadqiqot mavzuini ochib berdi. Qolaversa, bu uchchala yo`nalish ham nazariy qarashlarni isbot qilishda ob`ektiv tekshiruv usuli hisoblangan eksperimentdan foydalanish zaruriyatini ko`rsatdi. Bu narsa yana bir bor maxsus fanning kelajak rejalarini aniqlashga yordam berdi.

Ijtimoiy psixologiya fani predmeti

Hozirgi kunda uning **predmetini** quyidagicha ta`riflash mumkin: **ijtimoiy psixologiya** - odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo`ladigan tasavvurlar, fikrlar, e`tiqodlar, g`oyalar, his-tuyg`ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandir. Chunki ko`p vaqt davomida ijtimoiy psixologiya fanining predmeti borasida tortishuvlar kechgandir. Sababi - ijtimoiy psixologiya fani ikki turdagi qonuniyatlar — ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlari bilan ish olib boradi. Shuning uchun bo`lsa kerak ijtimoiy psixologiyani mavzu bahsi va u o`rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjudligini kuzatamiz.

Masalan, taniqli nemis olimlari G.Gibsh va M.Forverglar bu fanning predmetiga quyidagicha ta`rif beradilar: "Odamlar uyushmasi kooperatsiyalar — ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob`ekti esa ijtimoiy o`zaro ta`sirdir". Demak har qanday odamlar uyushmasida sodir bo`ladigan o`zaro ta`sir jarayonlari, ularni uyushishga majbur qiladigan shart-sharoitlar hamda motivlar ijtimoiy psixologiya o`rganishi kerak bo`lgan sohalaridir.

Rus sotsiologlari G.P.Predvechniy va Yu.A.Sherkovinlarning "Sotsial psixologiya" kitobida esa uning predmeti "... ob`ektiv borliqning va unda ro`y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o`ziga xos tarzda in`ikos etilishidir", — deb hisoblaniladi. Bu mualliflar ijtimoiy psixologiyani barcha o`rganish ob`ektlarini sharhlar ekanlar, ko`prok sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar.

Ijtimoiy psixologiyani mavzu bahsini ta`riflashga aynan psixologik yondashuv A.V.Petrovskiy va V.V.Shpalinskiylarning «Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi» kitoblarida bayon etilgan. Bu mualliflarning fikricha, «Ijtimoiy psixologiya — psixologiya fanining shunday tarmog`iki, u turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlarning muloqati, o`zaro ta`sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalarni o`rganadi."

Shuning uchun ham G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiyani mavzu bahsi xaqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o`rinda uch xil yondashish borligini e`tirof etadi. Birinchisi, sotsiologik yondashish bo`lib, uning tarafdorlarining fikricha, ijtimoiy psixologiya asosan ommaviy psixologik jarayonlarni—xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlarning inson ongiga singishi, ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo`lishini o`rganishi kerak. Ikkinchi—psixologik

yondashuv tarafdorlari asosan psixologlar bo'lib, ular asosiy diqqatni shaxsning ijtimoiy psixologik xislatlariga, uning turli guruhlarda tutgan o'rnini, mavqei, ijtimoiy ustanovkalar va hokazolarga qaratmoq lozim, deb hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda, hozirda ham sotsiologik ham psixologik qarashlarni birgalikda mujassamlashtirayotgan olimlar ham borki, ular ham ommaviy jarayonlarni, ham shaxsninig shu jarayonlardagi xulq-atvorlari motivlarini o'rganishni yoqlab tadqiqotlar o'tkazmoqdalar.

Amerika ijtimoiy psixologiyasida ham ijtimoiy psixologiyaning mavzu bahsi borasida uzoq tortishuvlar mavjud bo'lgan. Chunki, shu paytgacha shaxs va jamiyat muammolari sohasida ikki xil yondashuv bo'lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiati, psixikasini o'rganib keldi. Ijtimoiy psixologiya paydo bo'ldiki, u insonning jamiyatga munosabatining psixologik tomonini o'rganmoqda.

Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalarga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish - ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Bundan kelib chiqadigan umumiy ta'riflarga binoan, ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır.

Ijtimoiy psixologiya fanining vazifalari

Ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi - barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini xayotga tadbiiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishining mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandır.

Taniqli fransuz olimi Serj Moskovisi: "Ijtimoiy psixologiyaning vazifalarini bevosita jamiyat belgilaydi", deb yozgan edi. Demak, fan sifatida ijtimoiy psixologiyaning oldida turgan vazifalari, muammolari bevosita jamiyatdan kelib chiqadi.

Xo'sh, bugungi kunda ijtimoiy psixologiya fan sifatida o'z *bahs* mavzusini o'z predmetini qaysi ob'ektlarga qaratmoqda va bundan kelib chiqib bu fan oldida qanday vazifalar mavjud?

Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasi

Birinchidan, uning asosiy yo'nalishi *kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini* o'rganishdan iboratdir. Har bir shaxs hamisha malum ijtimoiy guruxlap doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'chakuydagi norasmiy guruhdagi do'stlari davrasi, o'quv jamoasi va hokazolardir. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o'ziga xos guruhiiy ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiiy taz'yiqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o'sha guruhlarni boshqarish, o'zaro munosabatlar sharoitini yaratish - bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir. Guruhlardagi kishilar o'rtasida o'zaro muloqot, o'zaro

bir-biriga ta'sir usullari, odamlarni samarali muloqotga o'rgatish ham guruhlar ijtimoiy psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Shaxsni ijtimoiy-psixologik o'rganish

Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va manaviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohadir. Shaxsni ijtimoiy psixologik o'rganish tadqiqotlarining ob'ekti sifatida qaralganda, avvalo uning xulq-atvori, ijtimoiy motivlari, uning yo'nalishlari, xulq-atvor normalari, shaxsning jamiyatda turli ijtimoiy rollari, mavqei, ijtimoiy qo'shilish omillari-ijtimoiylashuvi; shaxsning o'z-o'ziga bahosi, munosabati, hurmati hamda ijtimoiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlarning shaxs ongiga ta'siri, shaxs tiplari o'rganiladi.

Ommaviy ijtimoiy-psixologik hodisalar

Uchinchidan, jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ijtimoiy psixologiya uchun tadbqiqiy ahamiyatga ega. Ijtimoiy psixologiyada ommaviy hodisalar deganda turli kishilar guruhida shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonlari; milliy etnopsixologiya hamda sinflar psixologiyasi muammolari; milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, udumlar, aqidalarning shaxs shakllanishidagi roli; olomon psixologiyasiga oid psixologik qonuniyatlar; turli guruhlarda odamlarning bir-birini idrok qilishlari va tushunishlari, o'zaro ta'sir masalalari tushuniladi.

Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning tasirini inkor etish - masalaga bir yoqlama yondashish bilan barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan ananalar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan tasir kuchiga ega.

Oila—ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida

To'rtinchidan, oila—ijtimoiy psixologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida. Bu yerda oilaga xos psixologik jarayonlar, oila a'zolarining bir-birlariga munosabatlari, nikohdagi o'zaro moslik masalalari, oilaviy mojarolarning psixologik omillari, oilada bola tarbiyasining ijtimoiy psixologik metodlari o'rganiladi.


Ajratilgan vazifalardan yana biri shuki, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiya o'zi bilan bevosita aloqador bo'lgan boshqa psixologiya tarmoqlari bilan hamkorlikda keskin o'zgarishlar davrida har bir inson ongida nima sodir bo'ladi, u bu o'zgarishlarni qanday idrok qilmoqda, uning hayotiy mavqeini qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda faollashtirish mumkin, degan savollarga ilmiy asoslangan javob topib berishdir.

Boshqaruv psixologiyasi, sanoat va ishlab chiqarish psixologiyasi ham shunday guruhli jarayonlarning qonun va qoidalarini tadqiq etish tufayli ajralib chiqqan tadbqiqiy sohalardir.

Ijtimoiy psixologiya o'rganadigan eng asosiy va yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni o'z ichiga olgan masalalardan biri - *bu muomaladir*. Psixolog olimlarning fikricha, bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning predmeti ham va uning doirasida o'tkaziladigan barcha tadqiqotlarning umumiy ob'ekti ham muomaladir. Uning inson hayotida tutgan o'rnini aniqlash turli ijtimoiy faoliyatlar

sharoitida samara beradigan muomala turlari va uslublarini yoritish, uning sof psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, fanning eng muhim tadbiqiy yo`nalishlaridandir. Shuning uchun ham har bir konkret sharoitda shaxslararo muloqot samaradorligini oshirish omillarini o`rganish hozirgi ijtimoiy psixologiyadagi muhim muammolardandir.

Ijtimoiy psixologiyaning nazariy manbalari:



Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Ijtimoiy psixologiya mustaqil fan sifatida o`z tarixi, vujudga kelishidagi uch nazariy manba: xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi va ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyalariga tayanadi. Uning paydo bo`lishida sotsiologik va psixologik yondashuv mavjud bo`lib, ijtimoiy shart-sharoit shu fanni yuzaga kelishiga asos bo`lgandir. Bu fan psixologiyaning alohida fan tarmog`i bo`lib, unda sotsiologiya, shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tasavvurlar, muomala, boshqaruv, oila, katta va kichik guruhlar psixologiyasi to`g`risida umumiy bilimlar o`rganiladi, shu bilan birga inson va jamiyat munosabatlaridagi o`ziga xos ilmiy yondashuvlarni tushunib olish imkoniyati yaratiladi.

Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Ijtimoiy psixologiya fanining tarixi.
2. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbai.

3. Ijtimoiy psixologiya fani predmeti.
4. Ijtimoiy psixologiya fanining vazifalari.
5. Ijtimoiy psixologiya fanidagi o'rganiladigan muammolar.
6. ***Ijtimoiy psixologiya fanini o'rganishning hozirgi davr uchun ahamiyati.***

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. - 496 s.
2. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. T.: 2000, 185 b.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.: 1999, 94 b.
4. Drujinina V. "Psixologiya ". Uchebnik. "Piter", 2004.

2-mavzu: Ijtimoiy psixologiyaning metodlari. Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi

Reja

1. Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlar.
2. Kuzatish metodi va unga qo'yilgan shartlar.
3. Ijtimoiy psixologiyada xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.

Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlar

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning **metodlari** deb yuritiladi.

1-jadval.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
Kuzatish metodi	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) Ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodlari	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq (suhbat) Standartlashtirilgan so'roq
Testlar metodi	Test – so'rov Test - topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test test
Eksperiment	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti

Modellashtirish	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish
Xujjatlarni o`rganish metodi	Ijtimoiy o`rganish Psixologik o`rganish Motivatsion o`rganish Klassifikatsion o`rganish
Kontent-analiz metodi	Matnni analiz qilish Abzatslarni analiz qilish Iboralar, tushunchalarni analiz qilish

Ijtimoiy psixologiya fanida qo'llaniladigan metodlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra umumiy psixologiyadagi metodlarga aynan o'xshash bo'lishi bilan birga, shaxs va jamiyat munosabatlarini ifodalab berishda, ijtimoiy hodisalarni atroflicha o'rganishda o'ziga xos metodlarni qo'llash zarur ekanligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, biz ushbu jadvalda ijtimoiy psixologiyada ko'llaniladigan metodlarni keltiramiz. 1 - jadvalda ijtimoiy psixologiyadagi asosiy psixologik metodlar va ularning asosiy variantlari keltirilgan.

Kuzatish metodi va unga qo'yilgan shartlar

Kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyada o'ziga xos ijtimoiy sharoitlarda, o'ziga xos vaziyatlarda va ma'lum guruhlarda ishlatiladi. Bunda tadqiqotchi eng avvalo nimani kuzataman, qanday yo'l bilan kuzataman, kuzatuv birligi qilib nimani olaman, kuzatuvni qancha vaqt mobaynida davom ettiraman degan qator savollarga javob topgandan keyingina ilmiy tadqiqotini boshlaydi. Demak, kuzatish metodi yordamida aniq ishlab chiqilgan reja asosida kuzatuvchini qiziqtirgan u yoki bu ijtimoiy xulq-atvor shakllari qayd etiladi. Bu uslub qo'llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi, kuzatish maqsadining aniq bo'lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi; kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish; ma'lum reja — sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish; olingan natijalarning asosiligi va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko'rish. Kuzatish kuzatuvchi tomonidan kuzatish ob'ekti bo'lmish odamlar guruhi bilan birga yashab, ularga qo'shilib ish tutib, tabiiy sharoitlarda ma'lumot to'plansa, bunday kuzatish turini "birgalikdagi kuzatuv" deb ataladi. Bunday kuzatishning klassik misoliga amerikalik ijtimoiy psixolog U. Uaytning o'smirlar psixologiyasi, ular guruhidagi ijtimoiy psixologik hodisalarni o'rganishga qaratilgan mashhur tadqiqotini kiritish mumkin. Boshqa xollarda esa kuzatuvchi o'z ob'ektini chetdan kuzatadi, shuning uchun ham bunday kuzatuv turi "**chetdan kuzatuv**" yoki "**ob'ektiv kuzatish**" deb ataladi. Bu usul xuddi umumiy psixologiyada bo'lgani kabi tashqi xulq-atvorni qayd qilish natijasida ma'lumot to'plashga asoslanadi. Bunday yo'l bilan ilmiy faktlarni isbot qilish qiyin, lekin baribir, u ham ijtimoiy psixologiyada yordamchi usul sifatida ishlatiladi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy psixologik treninglar sharoitida har bir shaxsning xulq-atvorini kuzatish muhim ma'lumotlar to'plashga yordam beradi, chunki bunda

kuzatish metodiga xos bo'lgan eng qimmatli narsa — sharoitlarning tabiiyliligi saqlab qolinadi.

Demak, ijtimoiy hodisalarni o'rganishda kuzatish metodining tashqi (ob'ektiv kuzatish), ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish), erkin kuzatuv, standartlashtirilgan, guruh ichida kuzatish, guruh tashqarisida kuzatish kabi turlaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy psixologiyada xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati

Hujjatlarni o'rganish metodi sotsiologiya fanidan kirib kelgan. Bu metodning qator afzalliklari bor. Ulardan muhimlari shundan iboratki, u faoliyatning mahsulini tekshirishga imkon beradi hamda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, matematik qayta ishlash imkoniyatining borligi bilan ajralib turadi.

hodalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish

Materiallarni ma'naviy jihatdan ham sifat, ham miqdoriy analiz qilinish usuli ijtimoiy psixologiyada **kontent-analiz** deb ataladi. Kontent-analizning ilmiy mohiyati shuki, uning yordamida biror matnda ma'lum fikr, g'oya yoki tushunchalarning necha marta qaytarilishi qayd etiladi, ya'ni ma'lum mazmun miqdor ko'rinishiga keltiriladi. Bu metodning asoschilari amerikalik sotsiologlar X.Lassuell va B.Berelsonlar bo'lib, ular bu usulni birinchi marta ikkinchi jahon urushi yillarida bir siyosiy gaztaning mazmuni, uning g'oyaviy yo'nalishini aniqlash maqsadida qo'llagan edilar. Ular «Haqiqiy amerikalik» nomli gaztaning kundalik chiqishlarini kontent-analiz qilib, ularni fashistik yo'nalishidagi gazeta ekanligini isbot qilishgan va uning chiqishini ta'qiqlashga erishgan edilar.

Kontent-analizni qo'llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo bu tekshiruv birliklari — kategoriyalarni aniqlashdir. Chunki bunday birliklar tadqiqotning maqsadi va tadqiqotchining e'tiqodi va dunyoqarashiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Masalan, kontent-analizning asoschilari X.Lassuell va B.Berelsonlar bunday birlik — ramziy birlik yoki simvollar bo'lishi mumkin, deb hisoblashgan bo'lsalar, boshqa amerikalik tadqiqotchi L. Lovental bunday birlik yaxlit mavzu bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Aslida, bunday birliklar kontent-analizda ilmiy taxmin va tadqiqotchining metodologik asoslari bilan belgilanishi kerak. Shuning uchun ham ko'pgina tadqiqotchilarni umumlashtirib, analiz uchun birliklar quyidagilar bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz:

a) alohida iboralar yoki so'zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik tashabbus, hamkorlik va hokazo);

b) yaxlit abzatslar, matnlar, maqolalar va shunga o'xshashlarda ko'tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar mavzusi va hokazo);

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari;

g) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O'zbekiston Konstitutsiyasi muhokamasi, yangi yozilgan asarga o'quvchilarning munosabati va shunga o'xshash).

Yaxshi o'tkazilgan kontent-analiz aslida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda juda katta ahamiyatga ega. Kontent-analiz tadqiqotchidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir tomondan, u yoki bu matnni tushunish mahorati bo'lishi kerak,

ikkinchi tomondan, tadqiqot so`ngida qo`lga kiritilgan miqdoriy birliklarni yana qayta sifat formasiga keltirish lozim, ya'ni tushuntirib berish kerak.

**So`roq metodlari.** So`roq metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo`llaniladi, ayniqsa, anketa so`rovi va intervyu metodlari. **Yozma so`roq yoki anketaning** afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o`zida ko`pgina odamlar fikrini o`rganish mumkin bo`ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o`z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so`rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo`lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to`planadi.

So`roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo`lib, birinchisida oldindan nimalar so`ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so`roq o`tkazilishi nazarda tutiladi.

Bu metodlarni qo`llashni qator metodologik qiyinchiliklari mavjud, chunki, bu yerda doim shaxslararo o`zaro munosabatlar, o`zaro ta'sir shakllari mavjud bo`lib, tadqiqotchining sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo`lmaydi. Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok va sub'ektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay, juda ko`p ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni to`plashda so`roq metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmokda.

Shunday qilib, so`roq metodlari tadqiqotchi bilan tekshiriluvchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma'lumotlar to`plash usulidir. Odamlar tilidan yozma yoki og`zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo`lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o`zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo`nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo`lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga taz'iy o`tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o`ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so`zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Intervyu o`tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko`rishi kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatlarning bo`lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli o`yinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o`tadilar.

Anketa usuli

Anketa metodi hammaga tanish bo`lgan usullardan biri. Lekin ko`pincha anketani o`tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlab, sharxlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, anketaga kiritilgan savollarga ko`ra anketa **ochiq va yopiq** turlarga bo`linadi. **Ochiq** anketa respondentdan o`z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, **yopiq** shakldagi anketa savollarining esa javoblari berilgan bo`lib, tekshiriluvchi o`ziga ma`qul bo`lgan, qarashlari, fikrlari bilan mos bo`lgan javobni beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim

ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmaslikdir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari, yana qo'shimcha fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. **Kirish qismi yoki "respondenga murojaat"** deb ataladi. Bu qismda odatda tadqiqot o'tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatilishi (anonimlilik), anketani to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Yo'riqnoma — murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. **Asosiy qism.** Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan boshlab qiyin savollar berilsa, bu narsa respondentni cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun boshida yengil, xolis savollar berib, tekshiriluvchini qiziqtirib olib, keyin qiyinroq, psixologik savollarga o'tish, oxirida yana "neytralroq" savollar berish maqsadga muvofiq.

3. **Yakuniy qism yoki "pasportchka"** respondentning shaxsiy sifatidagi ob'ektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra, qo'l bilan tarqatiladigan, pochta orqali yuboriladigan, gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan formalarga bo'linadi.

To'plangan ma'lumotlarga, odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuterlar yordamida analiz qilinadi.

Ijtimoiy-psixologik testlar

Testlar psixologiyadan kirib kelgan usuldir, bu qisqa sinov usuli bo'lib, ular yordamida u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik usul — testda tekshiriladi. Testlarni qo'llashning qulaylik tomoni — bir test yordamida bir ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo'lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi ob'ektda sinalgan bo'lsa, shunga o'xshash ob'ektlardagina qo'llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma'lumotlar nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi. Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot sistemasidagi o'rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo'qligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo'llanilmoqda. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, testni tuzish, uni ob'ektlarda sinovdan o'tkazish, xattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o'z "kaliti" bo'ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya'ni kelishuvga ko'ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo'ladi. "Kalitsiz" esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi ijodiylikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xoxlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni soxtalashtirishi mumkinligidir.

Proektiv testlar. Bu usullar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, unda tekshiriluvchiga aniq tizim yoki ko'rinishga ega bo'lmagan, noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharxlash topshirig'i beriladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugatilmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishga ega bo'lmagan buyumlar, yog'ochlar berilishi mumkin, ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy dunyosi, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baho berishi mumkin.

Proektiv usullarga mashhur "Rorshaxning siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921 y.). Bu dog'lar ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil buyoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog" ning nimani eslatayotganligini aytish so'raladi. Uning fikridan va so'zlaridan, assotsiatsiyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib) shaxs xususiyatlari haqida xulosa qilinadi.

Yana bir proektiv usul—bu S. Rozensveygning rasmiy assotsiatsiyalar usulidir. Bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavalantiriladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishni, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

Ijtimoiy-psixologik eksperiment

Ijtimoiy psixologik eksperiment—bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga qaratilgan

muloqotdir. Bunday muloqotning bo'lishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiy psixologiyada bo'lgani kabi, ijtimoiy psixologiyada ham tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlari farqlanadi. Tabiiy eksperimentga misol qilib, rus pedagogi A.Makarenkoning jamoaning shakllanishi va uni uyushtirish borasida olib borgan tadqiqotlarini olish mumkin. Amerikalik psixolog M.Sherif esa guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rgangan. Uning asosiy maqsadi vaqtinchalik tuzilgan jamoa — yozgi ta'til lagerlarida kooperatsiya hamda turli ziddiyatlarning paydo bo'lishidagi psixologik sabablarni o'rganishdan iborat edi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy psixologik tadqiqotni rus olimi Bexterev o'tkazgan edi. U maxsus asboblarni yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruh sharoitida solishtirib o'rgandi va guruhning borligi har bir guruh a'zosi psixik jarayonlariga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.

Bundan tashqari, maxsus asbob-uskunalar yordamida guruh a'zolaridagi ishonuvchanlik—konformizm hodisalarini ham eksperimental tarzda o'rganish mumkin. Guruhdagi bunday hodisalarni o'rganish uchun maxsus moslamalardan foydalaniladi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya hozirgi kunda juda ko'p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asosiylari, bir qismi, xolos. Har bir xolatda o'z tadqiqot ob'ektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzuiga qarab kerakli uslubni tanlash mumkin. Shuning uchun ham metodlar to'plami bilan to'lig'icha tanishish uchun maxsus adabiyotlarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Ijtimoiy psixologiyada shunday metodlar mavjudki, ular orqali shaxs va jamiyat munosabataridan yuzaga keladigan turli jarayonlarni o'rganish, kuzatish, tadqiq etish imkoniyati yuzaga keladi. Shunday metodlar sirasiga: kuzatish, so'rov, anketa, kontent-analiz, xujjatlarni o'rganish, ijtimoiy-psixologik eksperiment, ijtimoiy-psixologik testlar kiradi. Mazkur mavzuda shu metodlar, ularning afzalliklari, qo'llash shartlari bayon etib berilgan.

Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodlar va ularning qo'llanish shartlari haqida.

2. Ijtimoiy psixologiya uchun xujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
3. Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish.
4. So'rov, anketa va testlar usullari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. - 496 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. T.: 2000, 185 b.

3-mavzu: Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi

Reja

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
3. Muloqot shakllari va bosqichlari.
4. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari.
5. Muomalaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari

Muloqot va shaxslararo munosabatlar - ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- ye) shaxslarning bir-birlarini tushinishi jarayoni».

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o`rni

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo`lish imkoniyatidan mahrum bo`lgan odam o`zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo`lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funkqiylarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o`zaro *bir - birini tushunishlarini* ta'minlashdir. Bu o`zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O`zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko`rishadi, so`rashadi, xol - ahvol so`raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog`da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o`ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o`g`rilanib ketilishi, so`ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo`lishi faktlari shuni ko`rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko`plab psixologik eksperimentlarda o`z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo`li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o`zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko`plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg`izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o`rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo`lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg`izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o`zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o`zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o`rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg`izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o`ziga ishonchsizlik, qayg`u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg`izlikka mahkum bo`lganlar ma'lum vaqt o`tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko`rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo`lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo`lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g`or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o`tgach, u turgan yerda bir o`rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g`or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o`rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg`ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo`lgan ehtiyojining to`la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko`rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o`zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko`pincha odamni ishlash qobiliyatini

ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

Muloqotning shakllari va bosqichlari

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

Dastlabki bosqich — **odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir**. T.Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi»— deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak **boshqalar bilan muloqot**— muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli—**avlodlar o'rtasidagi muloqotning** ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar **rasmiy muloqot** odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poezdga uzoq safarga chiqqan

yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham **norasmiy muloqot** doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot mavzui va yo'nalishiga ko'ra, uning:

- *ijtimoiy yo'naltirilgan* (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);
- *guruhdagi predmetga yo'naltirilgan* (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot — mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);
- *shaxsiy muloqot* (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari); pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma - yuz» bo'lishi yoki u yoki bu *texnik vositalar* (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi *amaliy* yoki *do'stona* bo'lishi; *sub'ekt - sub'ekt* tipli (dialogik, sheriklik) yoki *sub'ekt - ob'ektli* (monologik) bo'lishi mumkin.

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir.

Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini analiz qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, komponentlar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o`rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o`zini shaxs deb hisoblash bilan bog`liq ehtiyojini qondiradi

«Muloqot shunchalik ko`p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o`zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o`zaro ta`sir jarayoni;
- b) individlar o`rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta`sir ko`rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- ye) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Muloqotning
vazifalari

1. Bir-birini tushunish,
2. Ijtimoiy tajribaga asos solish,
3. Faoliyatga hozirlash, ruhlantirish.

Muloqotning
bosqichlari

1. O`z-o`zi bilan muloqot
2. Boshqalar bilan muloqot,

Muloqotning
ko`rinishlari

3. rasmiy 2. norasmiy; 3. SHAXSIY;
4. ijtimoiy yo`naltirilgan (chiqadigan muloqot);
5. guruhdagi predmetga yo`naltirilgan

Muloqotning turi va
shakllari

Bevosita «yuzma - yuz» bo`lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o`xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do`stona bo`lishi; sub`ekt - sub`ekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub`ekt - ob`ektlilik (monologik) mumkin.

Muloqot jarayonining murakkab psixologik tabiatini bilish, turli sharoitlarda samarali munosabatlar o'rnatish malakasini oshirish uchun uning tarkibiga kiruvchi har bir element yoki bo'laklar bilan alohida tanishib chiqamiz.

G.M.Andreeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:

1. *Muloqotning kommunikativ* tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni).

2. *Muloqotning interaktiv* tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).

3. *Muloqotning perseptiv* tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Bu strukturaning har bir tomonini batafsil ko'rib chiqamiz.

Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari, funksiyalarini ajratadilar. Masalan, taniqli rus olimi B.F.Lomov uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi:

a) ma'lumotlar almashinuvi funksiyasi;

b) xulq-atvorni boshqaruv funksiyasi;

v) hissiyotlar almashinuvi.

Bu funksiyalar aslida G.M.Andreeva ajratgan muloqot qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida B.F.Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

Muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib **til** xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi **dialogik** va **monologik** turlarga bo'linadi.

Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, hissiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi. Til vositasida olib boriladigan muloqot *verbal*, ya'ni so'zli deyiladi.

Muloqotning verbal, nonverbal, paralingvistik ta'sir vositalari

Odamlar muloqot jarayonida soʻzlardan tashqari, yaʼni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, toʻxtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yigʻi, koʻz qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar oʻzaro muloqotning nutqsiz vositalari boʻlib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni toʻldiradi, baʼzan esa nutqli muloqotning oʻrnini bosadi, bunday vositalarni *noverbal* vositalar deyiladi.

Buyuk rus yozuvchisi L. Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil koʻz qarashlari turi borligini kuzatgan. G. M. Andreevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin koʻrinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda koʻzlar toʻqnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli taʼsir koʻrsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida oʻrganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor boʻlishini taʼminlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida taʼkidlab oʻtmoq lozim. Masalan, oʻzbek xalqining muloqot jarayoni boy, oʻzaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning koʻproq ishlatilishi bilan bogʻliq. Bolalarning oʻz yigʻisi bilan onasiga oʻz his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bogʻliq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan boʻlsa, ularda ham baʼzi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi boʻlish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa boʻyicha fikrni tasdiqlamoqchi boʻlishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi boʻlsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Maʼlumki, oʻzbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar koʻproq hissiyotlarga boy boʻlganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar oʻrtasida esa doimo fazoviy masofa boʻladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin oʻtqazib oʻqitgandan koʻra, ularni yuzma-yuz oʻtkazib davra qurib oʻqitgan maʼqul emish, chunki bunday sharoitda oʻquvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq boʻlar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy boʻlib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi boʻlar ekan.

Paralingvistik taʼsir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, toʻxtashlar, duduqlanish, yoʻtal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, doʻstimiz bizga biror narsani vaʼda berayotgan boʻlsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

Demak, taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa eʼtibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chogʻlaridanoq nutq madaniyatiga oʻrgatish, nutqlarini oʻstirish choralari koʻrish zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega boʻlishi kerakki, u avvalo

uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin.

Muloqotning interaktiv tomoni

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarinn ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlarini, ularning ustanovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalaridir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday hatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi. Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin gohida shaxsdagi rollarning ko'p bo'lishi rollarning ziddiyatiga olib kelishi mumkin. Masalan, maktab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota yoki ona, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari kutishlar tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir

pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinxona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida esa endi barcha uyinchoqqa tegish mumkin-u, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yishgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi. Shaxslararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy va emotsional ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal yoki hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi — shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' — ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

Muloqotning perseptiv tomoni

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarni bir-birlarini to'g'ri tushunishlari na aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarni kuzatgan. Bunday mexanizmlarga:

- identifikatsiya;
- refleksiya;
- stereotipizatsiya kiradi.

Identifikatsiya shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar. Ya'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) *identifikatsiyadir*. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan, xolatidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni *refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir*. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotiplar har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. A.A. Bodalev va uning shogirdlari bunday stereotiplar

ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar **kauzal atributsiya** (lotinchasiga "kauza" — sabab, "atrebutio" — bermoq, qo'shib bermoq ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o'qituvchi bilan hamsuhbat bo'lib qolgan odamda suhbat boshidayoq "hozir odob-ahloqdan dars berishni boshlamasmikan" degan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko'rgan odam to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'rtasida bog'liqliklar o'rnatishga harakat qilarkan, shunday bog'liqliklarni aniqlash maqsadida A.A. Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattik odamlarning qaysarroq, qat'iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo'yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o'ta o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutlaq to'g'ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, talabalarining ikki guruhiga bir xil portret ko'rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu — davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so'ragan. Ko'rsatmalar har xil bo'lganligi sababli berilgan ta'riflar ham har xil bo'lgan. Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g'amxo'r, aqlli bo'lsa kerak, deyishgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar uni — beshafqat, makkor, qat'iyatli deb ta'riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretidagi ko'zlarni dono, muloyim deyishgan bo'lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'ekti, ham sub'ekti bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning ob'ekti sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi" ning barcha sifatlari va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning **yuzi** muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan ob'ektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etishlari ularning perseptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita bog'liq murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda **empatiya** — birovlarining his kechinmalarini tushuna olish

qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, "ko'pni ko'rgan" shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin. Muloqotda psixologik ta'sir masalalari

Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir - birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr - g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. *Psixologik ta'sir* - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti - harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. ***Verbal ta'sir*** - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. ***Noverbal ta'sirning*** ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, xolatlari (yaqin, o'zoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi.

3. ***Paralingvistik ta'sir*** - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko'rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri : «Ust - boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. *Ta'sirning tashabbuskori* - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u

tashabbusni o'z qo'liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi haqida keltirmoqchimiz. Chunki bugungi kunda bu muammo ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir - birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr - o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma - so'z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab - quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'q-e?», «Nahotki?», «Qaraya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi.

Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir. Bu borada professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

■ *aktiv xolat*. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bermalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

■ *suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish*. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

■ *o'ychan jimlik*. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z - o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening* (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Muloqotda nizolar holatlar va shaxs toifalari

O'z vaqtida Banopart Napoleon shunday yozgan ekan: "Qilich bilan har narsa qilish mumkin, faqat uning ustiga o'tirib bo'lmaydi". Bu fikrida u ko'pincha insonlar o'rtasida bo'lib turadigan nizolarni, ziddiyatlarni nazarda tutgan ekan. Chunki totalitar yoki diktatorlik boshqaruvi sharoitida ziddiyatlarning bo'lishi tabiiy bo'lib, uning yagona yechimi - uzil-kesil uni hal qilish choralarini izlash bo'lgan. Lekin demokratik munosabatlar sharoitidagi rahbar hamda uning qo'l ostidagilar o'rtasida yoki xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar yoki ziddiyatlarning tabiati va mohiyati biroz boshqacha bo'ladi.

Avvalo shuni e'tirof etish lozimki, insoniy munosabatlarning har qanday tizimida ham fikrlarning rang-barang bo'lishi va ular o'rtasida farq bo'lishi

muqarrar xoldir. Lekin ana shunday fikrlardagi farqni salbiy holat deb hisoblab bo'lmaydi.

Nima sababdan mehnat jamoalarida turli xil nizolar kelib chiqadi. Buning bir necha sabablari bor:

- alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
- ayrim alohida jamoa a'zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, gruppaviy normalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, mahsulotdagi brak, ishning samarasizligi va b.q.);
- jamoa a'zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
- ishni tashkil etish va mehnatga munosabatdagi farqlar;
- ishchi-xodimlar o'rtasidagi vazifalarning to'g'ri taqsimlanmaganligi va h-
zo.

Demak, yuqoridagi holatlarko'p hollarda quyidagi turdagi *nizoli vaziyatlarni* keltirib chiqaradi:

- 1) ta'sirning yo'nalishigako'ra: vertikal va gorizontal;
- 2) nizoni hal qilish usuliga ko'ra: antogonistik va kelishuvga olib keladigan nizolar - kompromiss;
- 3) namoyon bo'lish darajasigako'ra: ochiq, yashirish, potensial, asosli;
- 4) ishtirokchilar soniga ko'ra: shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo;
- 5) kelib chiqish tabiatiga ko'ra: milliy, etnik, millatlararo, ishlab chiqarish, hissiy-emotsional.

Agar yuqoridagilarni tahlil qiladigan bo'lsak, "gorizontal nizolar" hayotda eng ko'p uchraydi. Bunday nomurosozliklar aksariyat hollarda xodimlar o'rtasida ayrim a'zolarining ishni yaxshilash, yangi ish metodlarini joriy etish, axloq normalarini himoya qilish, adolat uchun kurash, ilg'or jamoa a'zolarining shu yerdagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasidagi fikrlarini ayrimlar tomonidan e'tirozlar bilan qabul qilishi natijasida ro'y beradi.

"Vertikal nizolar" esa ko'pincha rahbar bilan xodim o'rtasida sodir bo'lib, u bir qarashda liderlikka da'vogarlik, yuqoridan taz'yi, pastdan turib boshqa xodimlar yoki kuchlar atrofida birlashish, saralanishlar oqibatida kelib chiqadi. Bunda nizoning tashabbuskori va bosh aybdori kimligiga bog'liq tarzda uni xal qilish usuli tanlanadi. Masalan, agar boshliq xodimning ishga mas'uliyatsizligidan noroziligi tufayli paydo bo'lgan nizo bilan uning professionalizm borasida xadeb "O'zini ko'rsatayotganligidan" noroziligi tufayli kelib chiqadigan nizoning ham farqi bor.

Har qanday nizoning asl tub mohiyati shundaki, uning paydo bo'lishi ayrim o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarish ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarsa, uni konstruktiv, salbiy oqibatlar yoki xodimlar qo'nimsizligini keltirib chiqarsa, destruktiv xarakterli deb ataymiz.

Nizolar yuzga kelishida ikki xil shart-sharoit mavjud. Ob'ektiv shart-sharoitlarga:

- Mehnat qilish uchun sharoitning yomonligi;
- Xodimlar orasida majburiyat va vazifalarning noto'g'ri taqsimlanganligi;
- Boshqaruv tizimidagi nomutanosibliklar;

- Qo'yilgan vazifalarga mos professionallikni xodimlarda kuzatilmasligi;
- Ishchi o'rinlarining yetishmasligi tufayli, ishlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik;
- Mehnatni tashkil etish va mehnatga haq to'lashda adolatsizlik xolatlarini kuzatilishi.

Nizolar yuzaga kelishida sub'ektiv shart-sharoitlarga:

- Ishbilarmonlik munosabatlarida negativ yo'llarni ko'rinishi;
- Shaxslararo munosabatlarda shaxsga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishi.
- Muomalani tashkil etishda no'noqlik va savodsizlikning kuzatilishi.

Har bir nizo alohida hodisa sifatida tahlil qilinadi, lekin ularning barchasiga xos bo'lgan ayrim qonuniyatlar borki, ularga avvalo uning bosqichlari yoki fazalari kiradi:

- I. **Nizo oldi bosqich** - konfrontatsiya
- II. **Nizoning o'zi** - kompromiss yoki janjal
- III. **Nizodan chiqish** - muloqot yoki dissonans.

Demak, birinchi bosqichda konkret masala yuzasidan fikrlar yoki qarashlarda tafovut yoki qarama-qarshilik uchun shart-sharoit paydo bo'ladi. Tomonlar o'rtasiga sovuqchilik tushadi, ular o'zaro kelisholmay qoladilar, agar bunda tashqaridan qaraganda, ko'zga tashlanadigan nizo bo'lmasa-da, o'sha shaxslarning o'zi bir-birlariga nisbatan munosabatlarida buni his qila boshlaydilar. Agar rahbar aynan shu bosqichda hodisaga aralashib, o'z vaqtida oqilona qarorlar qabul qilolmasa, nizo ikkinchi bosqichga o'tadi.

Ikkinchi bosqichda har ikkala tomon o'z qarashlarini qarshi tomonnikidan afzal bilib, ochiqchasiga bir-birlarini ayblay boshlaydilar. Shu paytda boshliq ularni kelishtirishga urinadi, agar bu "urinish" alohida - alohida tarzda tomonlarni kabinetga chaqirib ro'y bersa, vaziyat yanada taranglashib, ziddiyat chuqurlashishi, tomonlar o'z xolicha boshliqni ham o'zining tarafdori qilib, u ham nizoning ishtirokchisiga aylanib qolishi muqarrar bo'lib qoladi. Shuning uchun ham psixologiya har qanday nizoni tomonlarni birga chaqirgan holda hal qilish va kompromiss qarorlar chiqarishga tayyor turishni tavsiya etadi. Buning uchun rahbarda nizoning taxminiy obrazi va uni hal qilishga bir nechta alternativ yechimlar bo'lishi kerak. Boshliq biror tomonga ko'proq yon bosa boshlasa ham, nizoning ishtirokchisiga aylanadi. Shuning uchun u xolis tarzda nizoning kelib chiqish sabablari, kimlarning manfaatiga zid ishlar qilinayotganligi, nizo ishtirokchilarining shaxsiy va professional xususiyatlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, nizoning "portreti" ni o'zi uchun tasavvur qila olishi kerak. Shundan keyingina, tomonlarni chaqirib, masalaga yanada oydinliklar kiritib, tomonlarni kelishuvga chaqiradi. "Men nima bo'lganini, muammo nimada ekanligini bilish uchun Sizlarni chaqirdim" deb gap boshlashi va har bir tomonning fikri muhimligini ta'kidlab, ayni paytda vaziyatni qattiq nazorat qilishi, uning kechishini boshqarishi lozim.

Nizoli xolatlarda shaxsning qanday xulq-atvor xususiyatlarini namoyon etishiga qarab turli toifalarini kuzatiladi. F.M.Borodkin va N.M.Koryaklar nizoli vaziyatlarda olti xil shaxs tiplari-toifalarini ko'rsatib berganlar. Bular:

1. Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxs.
2. Rigid toifadagi nizoli shaxs.
3. Boshqarib bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxs.
4. Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs.
5. Nizosiz toifadagi nizoli shaxs.
6. Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs.

Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- Diqqat markazda bo'lishni istaydi;
- Boshqalar ko'z oldida yaxshi ko'rinishni xoxlaydi;
- Uning boshqalarga bo'lgan munosabati, odamlarning unga munosabatidan kelib chiqadi;
- Osongina yuzaki nizolarga berila oladi;
- Turli vaziyatlarga osongina moslashadi;
- Emotsional jihatdan faol bo'lib, aqlan ish ko'rmaydi;
- Vaziyatga qarab ishini tashkil etadi va xar doim ham amal qilmaydi;
- Sistemali, og'ir ishlardan o'zini olib qochadi;
- Nizolardan chekinmaydi, janjalli vaziyatlarda o'zini yomon his etmaydi;
- Ko'pincha nizolarga sababchi bo'ladi, lekin o'zini unday hisoblamaydi.

Rigid toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- Shubhaga beriluvchan;
- O'zini baholashi o'ta yuqori;
- Doimo shaxsan tan olinishini talab etadi;
- Vaziyat o'zgarishi va sharoitlarni inobatga olmaydi;
- To'g'ri va tushunmaydigan, ya'ni moslashmaydigan;
- Qiyinchilik bilan atrofida g'illarning fikriga kiradi, boshqalarning fikriga u qadar qo'shilmaydi;
- Boshqalar tomonidan unga e'tibor ko'rsatilishini majburiyatdek ko'radi;
- Boshqalar tomonidan kelishmaslik yoki qo'shilmaslikni xafagarchilik bilan qabul qiladi;
- O'z harakatlariga nisbatan tanqidiy qaramaydi;
- Nihoyatda arazchi, haqiqiy yoki arimas nohaqliklarga ham ta'sirchanlikni namoyon etadi.

Boshqarib bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- O'zini yetarli darajada nazorat qilolmaydi;
- Xulqini aniq aytib bo'lmaydi;
- O'zini agressiv va nihoyatda zardalik bilan ko'rsatadi;
- Aksariyat xollarda umumqabul etilgan ijtimoiy normalarga rioya etmaydi;
- Yuqori darajada o'zini baholash xususiyatiga ega;
- O'z shaxsini ta'kidlanishini kutadi;
- Omadsizliklar va xatolarda boshqalarni ayblashga moyil;
- O'z faoliyatini rejali tashkil eta olmaydi yoki rejalarini hayotga ketma-ketlik bilan joriy eta olmaydi;
- O'z maqsadi va sharoitlarini moslashtira olish qobiliyati yetarli

rivojlanmagan;

- O'tgan tajribadan kelajak uchun saboq chiqarmaydi.

Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- Ishga nihoyatda jiddiy yondashadi;
- O'ziga nihoyatda yuqori talab qo'yadi;
- Atrofidagilarga yuqori talablar qo'yadiki, bu ularga nisbatan go'yoki ta'qibdek tuyuladi;
- Yuqori darajada xavotirlanish xislatiga ega;
- Hamma narsaga nihoyatda e'tiborli;
- Atrofidagilarning tanqidiy fikriga katta ahamiyat beradi;
- Gohida do'stlari, tanishlari bilan munosabatlarni uzadiki, bu go'yoki uni xafa qilganlari oqibatidek tuyuladi;
- Gohida o'zi-o'zidan aziyat chekadi, xatolaridan qayg'uradi, xatto gohida bu xatolarga nisbatan bosh og'riqlari, uyqusizlik sifatida javob qaytaradi;
- Tashqi jihatdan xissiyotlarini oshkora etmaslikni ma'qul biladi;
- Guruhdagi real o'zaro munosabatlarni yaxshi his etmaydi.

Nizosiz toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- Fikrlari va qarashlarida beqaror;
- Yengil ishonish xislatiga ega;
- Ichki qarama-qarshi fikrlarga ega;
- Harakatlarida bir qadar uyg'unlik yo'q;
- Vaziyatlarda bir lahzalik yutuqlarga tayanadi;
- Kelajakni, istiqbolni yetarli darajada ko'ra olmaydi;
- Liderlarning va atrofidagilarning fikriga tobe;
- Murosaga kelishga intiladi;
- Yetarli darajada irodaga ega emas;
- O'z xatti-harakatlari oqibatlarini va boshqalarning xarakatlari sabablarini chuqur o'ylamaydi.

Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs xislatlari:

- Nizoni o'z maqsadlariga yetishish uchun omil sifatida qara ydi;
- Nizolarni hal etishda faol tomon sifatida o'zini namoyon etadi;
- O'zaro munosabatlarda ta'sir ko'rsatishga moyil;
- Nizolarda maqsadli harakat qiladi, tomonlarning xolatini baholay oladi, turli xislatlarni xisoblaydi;
- Janjalli vaziyatlarda muomalani samarali ta'sir usullarini qo'llay oladi.

Bu nizoli shaxs toifalari o'zaro munosabatlarda namoyon bo'lar ekan, qaysi toifa bilan qanday ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishga, muzokaralar olib borishga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun xamkorlikka kirishishda albatta kuzatuvchan bo'lish, har bir harakat maqsadini anglash malakalarini tarkib toptirish muhimdir.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Mazkur mavzu orqali muloqotning ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida vazifalari, shaxs taraqqiyotida tutgan o'rni, uning turlari, shakllari, bosqichlari, psixologik tuzilishiga oid ma'lumotlar, bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
3. Muloqot shakllari va bosqichlari.
4. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. "Psixologiya" Uch. T-2. "Prospekt". Moskva - 2004.
3. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 s.
4. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003. 320 s.
5. www.psycho.all.ru
6. www.psychology.net.ru

4-Mavzu: Ijtimoiy guruhlar psixologiyasi

Reja:

- 1.Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.
- 2.Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari.
- 3.Etnik guruhlar psixologiyasi.
- 4.Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar
- 5.Kichik guruhlar psixologiyasi

Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi

Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruhlar sharoitida yoki turli guruhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q. Kishi jamiyatda yashar ekan, u doimo turli insonlar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro'y beradi. Shuning uchun ham guruhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarining shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.

Psixologik ma'noda **guruh** — *bu umumiy belgilar umumiy Faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir.* Umuman odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta, qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p (o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin,

yoshlar, ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo). Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor — bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarni boshqarish va ana shu guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarning turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. V.M.Karimovanning "Ijtimoiy psixologiya asoslari" o'quv qo'llanmasida guruhlarning asosiy turlari keltirilgan. Guruhlar avvalo **shartli va real** guruhlarga bo'linadi.

Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarda to'plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlarga bo'linadi. Konkret faoliyat va odamlarning tabiiy ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarning o'zi kishilarning soniga qarab katta, kichik guruhlarga bo'linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlarga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o'z navbatida, endi shakllanayotgan - **diffuz** hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniqsa, muhim hisoblangan turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan holda, bevosita katta guruhlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini o'rganishga o'tamiz.

Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq etish shartlari

Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarning o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek ko'pchilikni qamrab olishda qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasi kamligidir. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak deylik, avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli usulni topish masalasi juda jiddiy muammo bo'lganligi uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy, yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy-psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har

qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi. Ijtimoiy-psixologik ma'noda, hayot tarzini o'rganish deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliги tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi. Masalan, 90- yillar yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarqalgan urf-odatlar, moda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar, qiziqishlar va hokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini to'liq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va boshqa individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarning qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur. Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga alokador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millatga, elat, sinfga mansubligidan singdirilgan psixologik tizimlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kera

Etnik guruhlar psixologiyasi

Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlar ichida etnik guruhlar psixologiyasi, ya'ni etnopsixologiya bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazildi. Ayniqsa, hozirgi davrda har bir jumhuriyatlar alohida, mustaqil davlat mavqeini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham **muhim** masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruhlar ichida milliy guruhlarga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik. Bunday e'tiborning yana bir boisi — O'zbekistonda bu sohada ayrim tadqiqotlarning o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidandir.

Etnopsixologiya — bu psixologiyaning shunday tarmog'iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlarni ham o'rganadi. Ma'lumki, bu boradagi birinchi ilmiy tadqiqotlar V. Vundt tomonidan olib borilgan edi. Uning tadqiqotlaridagi "xalq" tushunchasi aslida etnik uyushma ma'nosida tushuntirilgan edi. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o'rganish uchun ularning tilini, odatlarini va ana shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar va boshqa ong tizimlarini o'rganish kerak. A.R. Luriya esa O'zbekiston xududidagi yashaydigan xalqlarning psixologiyasini o'rgandi. Uning asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o'rganishda tarixiy prinsipga tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda kishilar munosabatlari tizimida tutgan o'rniga bevosita bog'likligini isbot etish edi va bu tadqiqotda birinchi marta milliy psixologiyani o'rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik prinsiplar sinab ko'rildi.

Oxirgi yillarda chet el va sobiq Ittifoq olimlarining tadqiqotlarini umumlashtirib, etnopsixologik ishlarga yagona ilmiy yondashuvni topish harakatlari sezilmokda. Bu sohada mashhur rus etnografi va psixologi Yu. Bromley olib borgan ishlar, uning laboratoriyasida to'plangan ma'lumotlar misol bo'lishi mumkin. Yu.V. Bromley etnik guruhlar psixologiyasida ikki tomonni ajratib beradi:

1. **Psixik asos** — etnik harakter, temperament, milliy an'analar va odatlardan iborat barqaror qism;

2. **Hissiyot sohasi** etnik yoki milliy his-kechinmalarini o'z ichiga olgan dinamik qism. Lekin tadqiqotchilar nima uchundir, milliy psixologiya masalalari bilan shug'ullanishganda, milliy qirralar yoki sifatlarni aniqlash bilan shug'ullanadilar-da, u yoki bu millatlargagina xos bo'lgan qirralarni topishga urinadilar, lekin fan-texnika rivojlangan, millatlar uyg'unligi, millatlarning doimiy o'zaro hamkorligi va muloqoti sharoitida, aralash nikohlar keng tarqalgan sharoitda faqat u yoki bu millatga xos bo'lgan qirralar haqida gapirish juda qiyin. Masalan, o'zbeklar o'rtasida o'tkazilgan kichik tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, go'yoki mehmondo'stlik kamtarlik, samimiylik kabi ijobiy sifatlar o'zbek xalqigagina xos emish. To'g'ri, bu sifatlar albatta, o'zbeklarda bor. Lekin, aynan shu sifatlar boshqa millatlar vakillarida yo'q deyishga haqqimiz yo'q. Xuddi har bir shaxs ongida turlicha stereotiplar, ya'ni o'rnatib qolgan obrazlar bo'lganidek har bir oila, yaqin oshna-og'aynilar va o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqot jarayonida u yoki bu millat vakilida ham o'z millatiga xos bo'lgan sifatlar haqida stereotiplar paydo bo'lib, ular ongida o'rnatib boradi. Bunday stereotiplar o'z millatiga va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lib, boshqalar haqidagi tasavvurlar ancha sodda, yuzaki, mazmunan tor bo'ladi. Shunday tasavvurlar asosida boshqa millatlarga nisbatan yoqtirish (simpatiya) yoki yoqtirmaslik (antipatiya) va befarqlik munosabatlari shakllanadi. O'z millati haqidagi tasavvur va stereotiplar esa milliy "etnotsentrizm" hissini shakllantiradiki, shu his tufayli shu milliy guruh vakillarida boshqa millatlarga nisbatan irratsional munosabatlar paydo bo'lishi, bu esa milliy antagonizm va milliy adovatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu borada, ijtimoiy psixologlar va mafkurachilar oldida turgan muammolardan biri millat vakillarida milliy g'urning qay darajada bo'lishini aniqlash muammosi turadi. Chunki ko'pincha milliy g'urur tufayli ayrim shaxslarda boshqa millatlarni mensimaslik, ulardagi g'urur yoki milliy hislarni tan olmaslik hollari kuzatilmoqda. Umuman, bizning fikrimizcha, milliy adovatlar asosida yotgan etnotsentrizm va milliy g'urning salbiy ko'rinishlari boshqa millatlarning tarixini, ularning an'analarini, tili va hokazolarini bilmaslikdan kelib chiqadi. Milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning maqsadlaridan biri ham boshqa millatlar psixologiyasini bilib, uni boshqa millatlarga yetkazish tufayli, har bir millat vakiliga hurmat-izzat hissini kuchaytirishdir. Chunki o'zini hurmat qilmagan odam boshqani hurmat qilmaydi, buning uchun esa o'z psixologiyasini ham, o'zgalar psixologiyasini ham bilishi kerak. Shundagina shaxslararo ziddiyatlarga barham berilishi mumkin. Bu narsa millatlar psixologiyasiga ham xosdir. Ya'ni fan jamiyatga shunday etnografik va etnopsixologik ma'lumotlar majmuini yaratib berishi lozimki, undagi ma'lumotlar

asosida katta guruh hisoblangan millatlar psixologiyasini ham boshqarish mumkin bo'lsin.

Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar

Etnopsixologik tadqiqotlarda xilma-xil uslub va metodlar qo'llaniladi. Chunki bunday tadqiqotlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi turlicha testlardan tortib, proektiv metodlar, eksperimentlarning turlicha ko'rinishlari, so'roq metodlari — anketa, intervyu, sotsiometriya, shakl metodlari va boshqalar ishlatiladi. Bu metodlar hozirgi kunlarda ham "madaniy muhit va shaxs", guruhlararo munosabatlar hamda boshqa tadqiqotlarda qo'llanilmokda. Bunday ishlarni faqatgina ijtimoiy psixologlar emas, balki umuman psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'tkazmokdalar. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, etnopsixologik metodlarni hammaga ham birday qo'llash to'g'ri kelmasligi tufayli ularning tanqisligi sezilarlidir. Chunki etnopsixologiya muammosi bilan shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan har bir tadqiqotchi yo mavjud metodikalardan birini qayta o'zgartirishga, yoki bo'lmasa, o'zicha yangi metodni kashf qilishga majbur bo'lmokda. Nihoyat, etnopsixologik metodlarni qo'llashning noqulayligi shundaki, masalan, Amerikada juda yaxshi natija berib, ishonchli ma'lumotlar to'plangan metodika Osiyo mamlakatlari yoki bizning jumxuriyatimiz sharoitida umuman hech narsani o'lchamasligi mumkin. Shuning uchun ham hozirda butun jahon olimlari har qanday madaniy muhitdan ham yuqori turadigan, universal test yoki metodika yaratish fikrining asossizligi haqida umumiy fikr bildirmoqdalar.

Etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan har qanday tadqiqotchi asosiy prinsiplar sifatida madaniy muhit sharoitlarining xilma-xilliga va ularning o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olmog'i zarur. Bu narsa etnopsixologik tadqiqot dasturini tuzishda albatta, hisobga olinishi kerak. Misol uchun, O'zbekiston sharoitida tadqiqot o'tkazilmoqchi bo'linsa, quyidagi narsalarga e'tiborni qaratish lozim: bu sharoitida yashovchi barcha millatlarga xos bo'lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullari; faqat o'zbek millatiga xos bo'lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash; aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarinn o'lchaydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tanlash va ularni konkret sharoitlarga moslash; tadqiqotchilar guruhini tekshirilayotgan milliy guruh tilini, urf-odatini biladigan xodimlar bilan ta'minlash. Chunki, tadqiqot ob'ekti hisoblangan guruhda o'sha guruh tilida tadqiqot o'tkazish kerak, bu orqali esa tekshiriluvchilarga qo'yilgan har bir talab, savol va topshiriqlar ular uchun tushunarli bo'lishi ta'minlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, u yoki bu milliy guruh psixologiyasini, undagi etnik stereotiplarni tekshirishga qaratilgan maxsus metodlar yo'q, shuning uchun ham tadqiqotlar mavjud metodlar orasidan keragini tanlab, ularni joy sharoitlariga moslashtirish zaruratini tug'diradi va buning uchun zarurat bo'lsa bu metodlarni u tildan bu tilga tarjima qilish ham kerakdir. Tarjima xususida shuni aytish kerakki, maxsus psixologik testlar yoki metodlarni (anketalar, so'roqlar, shkalalar savollarini) tarjima qilish tarjimondan yuksak bilimdonlik va professional sifatlarni talab qiladi. Aks holda, metodika o'z qimmatini yo'qotishi yoki kerakli

sifatni aniqlamasligi yoki o'lchamasligi mumkin. Hattoki, noverbal (og'zaki berilgan) testlarni turli sharoitlarda qo'llab, olingan ma'lumotlarni sharhlash bosqichida uning mazmuni yoki maqsadi o'zgarganligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun ham har qanday metodik uslubni qo'llashdan oldin uni kichikroq guruh doirasida sinab ko'rish va natijalarni ekspertlarga berib yoki boshqa yordamchi metodlar yordamida qayta sinovdan o'tkazish yo'li bilan tekshirib olish maqsadga muvofiqdir.

Konkret etnopsixologik tadqiqotlarga qo'yiladigan yana bir talab — tadqiqotni tabiiy sharoitlarda, tekshiriluvchilar uchun tanish bo'lgan joylarda qisqa ko'rsatmalar berish yo'li bilan o'tkazishdir. Chunki etnopsixologik tadqiqotlarda ko'pincha turli yosh, kasb va ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etadilar. Shuning uchun ham ularning barchasi uchun tushunarli, aniq topshiriqlar tizimini tuza olish ham psixologdan qator professional malakalarni talab qiladi. Metodik uslublar milliy psixologiyani o'rganishda millatning ko'p qirralarini, psixologik holatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa tadqiqotchining uslubiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir.

Kichik guruhlar psixologiyasi

Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'ektlardandir. Bu muammoni tadqiq etishda olimlar o'z oldiga shunday masalani qo'yganlar, ya'ni, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda indvidlarning o'zaro hamkorligi emas, balki ularning bir vaqtda bir yerda birga bo'lganligi faktining ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi. lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N. Triplett, nemis olimi A. Mayer, rus olimi V.M. Bexterev, yana bir nemis olimi V. Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy fassilitatsiya nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa indvidlarning bevosita ta'siri bo'lib bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatildi, ya'ni boshqalar ta'sirida individ reaksiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari; bu narsa fanda ingibitsiya deb ataladi.

Kichik guruxlarga xos qonuniyatlar

Birinchidan, kichik guruhlarining hajmi, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh "diada" ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila - yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda 7-2 kishi ko'zlanadi. Bunday guruh turli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

Ikkinchidan, guruhning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni, shaxsning

ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilliga ortib boradi.

Uchinchidan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar, ya'ni nomutanosibliklar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, agar guruh a'zolarining soni toq bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror nimaga saylashda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi.

Beshinchidan, shaxsning guruh taz'yiqligiga berilishi va bo'ysunishi ham guruh a'zolarining soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, ko'chada sodir bo'lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, masuliyat hissi pasayib boradi.

Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarini boshqarish ishini ancha yengillashtiradi.

Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi.

R.S.Nemov kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan.

1-rasm.

KICHIK GURUHLARNING TURLARI

Shartli (nominal)	real (hakikiy)
-------------------	----------------

Tabiiy	laboratoriya tipli
--------	--------------------

Formal (rasmiy)	Noformal (norasmiy)
kuchsiz rivojlangan	Kuchli rivojlangan
korporatsiya	Jamoalar
Referent	Noreferent

Tarixan kichik guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga bo'lish qabul qilingan. Bunday bo'linishni amerikalik olim E. Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, rasmiy guruh; ar bir a'zolarining rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o'rnining aniqligi bilan harakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlar asosan "vertikal" tarzda ro'y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida "hokimiyat" bo'lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni — ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o'quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.

Rasmiy guruhlardan farqli o'laroq norasmiy guruhlar ham mavjud bo'ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarining aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo'lmaydi. Ko'pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo'lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatleri tufayli ajralib chiqkan a'zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy psixologiyada **referent guruh** tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G. Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi. U o'z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo'lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo'lar ekanki, u o'z hatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida o'sha guruh a'zolariga ergashish, ularning fikrlarini tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo'lar ekan. Shunday shaxslar guruhi *referent guruh* nomini oldi. O'quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o'qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do'sti yoki qarindoshlaridan kimdir o'ynashi mumkin. Shunisi harakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo'lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruhi) tarkibida yoki unga qarshi bo'lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo'lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, uning xulq-atvor uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so'ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o'ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulq-atvorini bashorat qilish mumkin.

Agar odamlar ko'chada tasodifiy hodisani tomoshabini bo'lib turishgan bo'lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, **agregatsiya (olomon)** deb atashadi. Haqiqiy guruh uchun o'sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir - birlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lishi kerak. Amerikalik psixolog Ch. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko'ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lib o'rganishni taklif etgan edi. *Birlamchi guruhda* shaxslararo o'zaro ta'sir «yuzma - yuz, bevosita» ro'y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o'tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlarda har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba

uyushmasiga birlashgan odamlar, «Vatan» taraqqiyoti partiyasi a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, o'sha partiyani oladigan bo'lsak, ular Qashqadaryoda bo'ladimi, Farg'onadami, baribir umumiy g'oya atrofida birlashishadi, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir - birlarini qo'llab - quvvatlab turadilar.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar: a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya; b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat funksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit; v) ekspressiv - odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash; g) qo'llab - quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar

Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta'siri kabilar tushuniladi.

Guruhning shakllanishi, uning paydo bo'lishi haqida gapiriladigan bo'lsa, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo'ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning rivojlanishi va ularning maktablarda ta'lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o'xshash oliy ma'lumotli shaxslar kerak bo'lganligi uchun paydo bo'ladi va hokazo. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni. Uning sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo'lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o'zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo'lishini taqozo qiladi. Lekin guruhga a'zo bo'lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhij jarayonlarning guvohi bo'ladi.

Birinchidan, guruh o'z a'zolariga ma'lum tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi (o'zbek tilida "moslashish" ma'nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilishi yoki qabul qilmasligi bilan bog'liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish uning ta'siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday hatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo'shilish turli shakllarda bo'lishi mumkin: *tashqi konformlilik* — individ guruh fikriga nomigagina ko'shiladi, aslida ruhan u guruhga qarshi turadi; *ichki konformlilik* — individ guruh fikriga to'lig'icha qo'shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o'rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo'lmaydi. Bu o'rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo'lsa "*negativizm*" tushunchasidir, bu individning har qanday sharoiitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr,

odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydn.

Guruhlardan yana bir jarayon-bu guruhning uyushqoqligi muammosidir. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil — bu o'sha guruhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiylik uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi.

Guruhning **avtonomligi darajasi** ham ma'lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo'lsa ham, ularning har birining o'z burch va vazifalari bor va shu nuqtai nazardan har odam o'z imkoniyatlarini o'zicha ishga solib, o'zaro munosabatlarga sabab bo'ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillarga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtai nazaridan farq qiluvchi, uyg'unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi.

Konformizmi va nonkonformizm xodisalarining mohiyati

Konformizm - bu real yoki tasavvurlardagi guruhning shaxs e'tiqodi va xulq-atvoriga ta'sirini tushuntiruvchi xodisadir. U ikki xil namoyon bo'lishi mumkin:

- **yon berish** - qalban qo'shilmasa-da, tashqi xaraktada ko'pchilik firiga ergashish;
- **ma'qullash** - e'tiqod va qarashlarning ijtimoiy tayziqqa to'la mos kelishi.

Konformizmning tabiatini tushuntiruvchi eksperimentlar (masalan, Muzafer Sherif, Solomon Ash, Milgram va b.q.) ma'lum ma'noda bizga hayotda yoqmaydigan narsalarning kelib chiqishini, masalan, johillikning, o'g'rilik yoki boshqa illatlarning tabiatini tushunishga imkon beradi, ya'ni, *johillik yoki yomonlik*, albatta yomon odamlarning borligi uchun kelib chiqmaydi, balki odamlarning turli vaziyatlarda noxaqlikka ko'nikishlari yoki xudbinlik yoki yovuzlikni ko'rib o'tib ketaverish, ularga nisbatan *isyonni namoyon qilmaslik* oqibatidir.

Konformizm xodisasini eksperimental yo'l bilan o'rgangan tadqiqotchilarning fikricha, bu - ma'lum shart-sharoitlarning oqibatidir. Masalan, konformizm guruhning katta yoki kichikligiga, uning **hajmiga** bog'liq. Odamlar o'zlari uchun biroz bo'lsa-da, obro'li yoki yoqimtoy bo'lgan odamlar soni uch yoki undan ortiq bo'lgan sharoitda ularning gaplariga juda tez ishonib, ergashib ketaveradilar. Bundan tashqari, yuqori darajali konformizm xolati biror masala yuzasidan javoblar ko'pchilik ichida berilganda, yoki oldindan biror javobga sha'ma qilinmagan sharoitda tez sodir bo'ladi.

Nima uchun odamlar konformizmni namoyon etadilar, bu aslida inson tabiatiga zid emasmi? degan savol tabiiy. Yoki bo'lmasa, ko'pchilikning ta'siriga o'ylamay-netmay berilaverish yaxshimi? Bu shaxsning o'zligiga, mustaqilligiga putur yetkazmaydimi, degan savol o'rinli bo'lib, uning javobini ikki manbadan - jamiyatning insonlar uchun ishlab qo'ygan normalari tizimidan, shunga mos tarzda odamning o'zgalar tomonidan tan olinishiga intilishidan va odamlarning o'zaro

kommunikativ ma'lumotlar almashinishlari jarayonida so'zlar va iboralar orqali bir-birlariga yetkazadigan ta'sirlari orqali tushuntirishga xarakat qiladi.

Kim ko'proq konformli, degan savolga ko'pchilik mualliflar ayollarning erkaklarga, yoshlarning kattalarga nisbatan ancha ishonuvchan va ta'sirlarga beriluvchan ekanliklarini e'tirof etadilar. Bundan tashqari, olimlar bu xodisaning milliy-xududiy o'ziga xosliklarini va bu kabi xulq-atvor ayrim tang, sust vaziyatlarda odam irodasining pastlashi sifatida namoyon bo'lishini aytishgan. Nima bo'lganda ham, bizningcha, shaxsning tashqi tayziqlarga berilishi, tanqidsiz u yoki bu xarakat tiplariga ergashib ketaverishi individual xususiyatlarga ega bo'lib, u odamning dunyoqarashiga, mentalitetiga va ma'lumoti darajasiga bog'liqdir.

Nonkonformizm-chi? Kimlar o'zgalar fikriga ergashmaydi? Shunday insonlar toifasi borki, ular ko'pchilikka, qolaversa, ikkilanuvchilarga ergasholmaydi. Ular hakida ba'zan liderlar termini, ba'zida esa, «qo'shilmaslar» iborasi ishlatiladi. Bu yaxshimi yoki yomonmi? O'zbeklarda «Podadan ajraganni bo'ri yeydi» degan maqol bo'lishiga qaramay, aynan ana shunday yagonalar, kamchilikni tashkil etuvchi «qo'shilmaslar» tarixiy shaxslar yoki jamiyatda tub islohotlarni boshlovchilar bo'lib chiqadi. Agar bunday qobiliyat tug'ma - xarizmatik bo'lib, buni odamlar qalban xis qilsalar, ular norasmiy liderlarga aylanadi, agar bunday intilish ataylab, boshqalarga ko'rsatib qo'yish uchun namoyish etilsa, ular rasmiy liderlarga - rahbarlarga aylanib qoladilar. Nima bo'lganda ham liderlik va rahbarlik muammolari ham ijtimoiy psixologiyaning ustivor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Shaxsning turli vaziyatlarda o'z xulqni namoyon etishida guruhning o'rni va ta'siri mavjud bo'lib, guruxlarning o'zi ikki turli: katta va kichik toifalarga bo'linadi. Mazkur mavzuda katta guruxlarning psixologiyasi, chunonchi ularning etnik turi atroflicha bayon etib berilgan. Etnik guruxlarni maxsus o'rganish sohasi bo'lgan etnopsixologiyaga doir bilim, malaka va tushunchalarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Nazorat savollari va mustaqil ish mavzulari:

1. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.
2. *Etnik guruhlar psixologiyasi.*
3. *Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar.*

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yhati:

1. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. - 496 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. www.expert.psychology.ru
6. www.psychology.all.ru

5-Mavzu: Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi

REJA:

- 1.Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi.
- 2.Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.
- 3.Shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar.
- 4,.Shaxs ijtimoiylashuvi.
- 5.Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.

Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi

Muloqot jarayonining ham, guruhij jarayonlarning hamda egasi—sub'ekti hamda ob'ekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni o'z mavzui va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bo'lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblasa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning ob'ekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni, ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya, ya'ni ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari

Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'p incha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar yoqadi. Lekin nima uchun xuddi shu asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaydi. O'sha guruhdan yangi bir kitob qo'lga kirganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo'ladi. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni, ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki mexanizmidir, shu ob'ektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayyorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi G'arbda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi xayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlarga bog'liqligini o'rganib, shaxs xulq-atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. Ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan — "attityud" so'zi bilan ifodalaydilar. 1942-yildayok M. Smit attityudning uch komponentli strukturasi ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uch qism bo'lib, bular kognitiv qism, affektiv qism hamda konativ qismlaridir.

Kognitiv qism — bu shaxsdagi attityud ob'ektiga nisbatan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashkari g'oyalar, tasavvurlar, prinsiplar va hokazolar kiradi.

Attityudning **affektiv qismi** — bu o'sha ob'ektni hissiy-emotsional baholash bo'lib, yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi. **Konativ qism** yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismga esa shu ob'ektga nisbatan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi.

Lekin ba'zi olimlarda ustanovkaning aynan ob'ektga yoki vaziyatga nisbatan bo'lishi mumkinliga haqida ma'lumotlar ham bor edi. Xususan, Laperning 1934-

yilda o'tkazgan mashhur eksperimenti bunga misol bo'lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni quyidagicha edi. Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSh buylab sayohatga chiqadi. Ular hammasi bo'lib 252 ta mexmonxonada bo'lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashqari) iliq, samimiy munosabatning guvohi bo'lishadi. Ma'lumki, o'sha paytlarda irqiy belgi bo'yicha odamlarga tanlab munosabatda bo'lishar, xitoyliklar ham sariq tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan hamroh bo'lgan talabalarga munosabat bilan olinga bo'lgan munosabat o'rtasida deyarli farq sezilmadi. Sayohat tugagach, Laper o'sha barcha mehmonxona egalariga minnatdorchilik xati yozib, yana o'sha talabalar bilan borsa, yana o'shanday iliq kutib olishlari mumkinligini so'radi. Javob faqat 128 ta mexmonxona egalaridan keldi, ularning ham bittasida ijobiy javob, 58 % da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarda noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ijtimoiy ustanovka bilan mehmonxona egalarining real xulq-atvorlari o'rtasida farq bo'lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha — ijobiy namoyon bo'lganligi aniqlandi.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka ob'ektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovland fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun rag'batlantirish yoki jazolash tizimini o'zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni **qaytarishdir**. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, ob'ektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'p chilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yondatish uni ma'lum guruhlarining a'zosi, konkret sharoitida o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

Shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning ahloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Ijtimoiy normalar

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakozi. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan karakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy sanksiya

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va raqobatlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirlarga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Ijtimoiy rol

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi.

Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar

bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning harakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, ahloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'p ligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirtidan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Shaxs ijtimoiylashuvi

Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializaqiya yoki **ijtimoiylashuv** - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub'ektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan

ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart - sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (boqcha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyqunlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub'ektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar harakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'p incha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, soqlom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Shaxs sotsializatsiyasi to'g'risida gap ketarkan, aytish kerakki, sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u — individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj hamda shaxs bo'lishiga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsional muloqotga ehtiyojning borligi).

Shaxs sotsializatsiyasi yoki shakllanishining o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar jabxasi, soxasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni "Men" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish- xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining ushbu bosqichlari mavjud. Masalan, birinchi bosqich—mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi

ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi. Ikkinchi bosqich — mehnat faoliyati davri — bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich — mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Bu jarayon ro'y beradigan sharoitlar — muassasalar xususida gapiriladigan bo'lsa, turli davrlarda oila, bolalar muassasalari, maktab, boshqa dargohlari, mehnat jamoalarining roli nazarda tutiladi.

Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi

Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni, aktiv birgalikdagi faoliyat, o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo'ladigan hamda muloqotda ko'rinadigan sifatlar guruhiga bo'linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perseptiv himoya sifatleri, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatleri ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati" (A.Bodalev), "kuzatuvchanlik", "ziyraklik" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar"dir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamrok xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gapleri, hatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi.

Ekstrovert va introvert toifali shaxslar

Bu tiplar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, ekstrovert — o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojdir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qati nazar, u doimo o'z fikr-istaklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning

uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin ("Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?", — deb uylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta kirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga keladi, o'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, "mish-mishlar"ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo'lmaganday apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin.

Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'ylash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustanovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2—3 kishidan ortiq bo'lmagan guruhni afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan-ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham "shaxsiy" mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko'radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o'z "Men"ining boshqalarga o'xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo'lsa ham shug'ullanishga tayyor, umr yo'ldoshiga sodiq, vafodor. Do'stlarga ham xuddi shunday.

Mobil va rigid toifali shaxslar

Bu shaxs tiplari muloqotga kirishish me'zoniga ko'ra farqlanadi. Masalan, **mobil tip** har qanday ish bilan mashg'ul bo'lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko'chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi. Suhbat mavzusinn ham tez-tez o'zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatib, xayrlashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qat'iyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladn. Chunki u o'ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsaniz, to biror bo'lagiga nuqta quymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-tez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni yaxshi ko'radi, gapini bo'lishlarni sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jaxli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jaxl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo'lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin,

chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko`radi. Demak bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Dominant va tobe toifali shaxslar

Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo`lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta`sir ko`rsatishi, uning bo`ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o`zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo`yniga olmaydi. Dominant tip — qatiyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo`lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo`lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo`yishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant bo`lishsa, unda ular o`rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallashib qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko`nish, unga o`z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Tobe tipli shaxs esa suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallashadi, lekin yomon ko`rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina u asta-sekin o`zining dadilligini ko`rsatishi, ochiq gaplashishi, ba`zan e`tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni rag`batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko`zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo`llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo`lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo`yniga olishni istamaydi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini ko`ramiz. Hayotda ko`pincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni tiplarga bo`lamiz. Bundan tashqari, bir marta ko`rishda odam haqida xulosa chiqarib bo`lmaydi. Uni turli sharoitlarda bir necha marta kuzatish lozim.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Ushbu mavzuda shaxsning ijtimoiy munosabatlarda mavqei, roli, ustanovkalari, talablar tizimi, ijtimoiylashuvi xususiyatlari, muloqot davomida namoyon bo`ladigan turli toifalari to`g`risida ma`lumot va tushunchalar berilgan.

Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Shaxsni o`rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o`ziga xosligi.
2. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.
3. Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro`yhati:

1. Nemov R.S. «Psixologiya». Kn.1. - M., 2003
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T.: 1999, 94 b.

6-Mavzu: Boshqaruv psixologiyasi

Reja:

1. Psixologiyada boshqarish muammosi.
2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
3. Liderlikka oid nazariyalar.
4. Liderlik uslublari haqida tushuncha.
5. Rahbarlik sifatlari.
6. Liderlik va superliderlik.

Psixologiyada boshqarish muammosi

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — **boshqarish psixologiyasi** paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, **u** boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishni ham ob'ekti, ham sub'ektni o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning sub'ekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarini samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik xolat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarni qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh

bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar turdiradi, chunki o'sha guruhlarini tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan "lider" va "boshliq" tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarda rahbarlik va liderlik

Guruhlardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, guruh a'zolarining konkret mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "lider" va "boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar hakida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunani farqlab shunday yozadi:

1) lider asosan guruxdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar — shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi;

2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo'lgan hodisa bo'lsa, rahbarlikning haq-xuquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin;

3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan hodisadir;

4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yunalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi;

5) rahbarning liderdan farqi yana shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va ragbatlantirish tizimiga ega bo'lib, shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin;

6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo'nalishda ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketishi kiyin;

7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo'lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, u doimo guruh a'zolari orasida bo'ladi, u shu guruh a'zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider guruh a'zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hokazolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Agar sinf doirasida olib qaraladigan bo'lsa, turli xil lider borligini aniqlash mumkin.

Masalan, guruh a'zolari ichida eng bilag'oni, aql o'rgatuvchisi, topqiri, intellektual lideri, bolalar ichida eng hazilkashi, dilkashi, xushchaqchag'i, ko'ngil so'rovchisi, o'zgalarni tushuna oladigan — emotsional lider, guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qatiyatli, irodali-irodaviy liderlar bo'lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko'ra paydo bo'ladilar hamda bolalar ongida o'z sifatlariga ko'ra obro' qozonadilar. Lider sifatleri ichida yaxshi va yomonlari ham bo'lishi mumkin, lekin guruh liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va shuning uchun ham barcha ishlariga ergashib, ko'rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar yoshida xulqi maktab normalariga to'g'ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular ma'lum guruh ichida so'zsiz obro'ga ega ekanligi ham shu bilan tushuntiriladi. Masalan, lider "ketdik" deb ko'rsatma bersa, unga ergashganlarning darsni ham tashlab keta olishi shu bilan tushuntiriladi.

Shuning uchun ham sinf rahbari o'z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlash bilan cheklanmaydi, balki norismiy liderlarni ham aniqlay bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlashi zarur. To'g'ri, ba'zi hollarda rasmiy va norasmiy lider bir shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak o'qituvchining boshqarish maxorati yoki san'ati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlash usulidir.

Shunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatiki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik ya'ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' juda samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tushuna olish, ishonch va shunga o'xshashlar obro' orttirish mezonlaridandir.

Liderlikka oid nazariyalar

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari xaqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. Hozirgi kunga qadar liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud:

- Xarizmatik nazariya;
- vaziyatga bog'liqlik nazariyasi;
- sintetik nazariya.

Xarizmatik nazariya

Birinchisi "**liderlik sifatleri nazariyasi**"dir yoki **xarizmatik nazariya**. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bula olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, ular uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, 1940 yilda amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda jumladan tashabbuskorlik muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul kila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi.

Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi

Ikkinchi nazariya **liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir**. Bu yerdagi asosiy g'oya — lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Sintetik nazariya

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya liderlikning **sintetik** nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhni munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ruyobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Psixolog A.N. Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Liderlik uslublari haqida tushuncha

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri — **turli boshqaruv uslublari**dir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublarga harakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

- **Avtoritar;**
- **Demokratik;**
- **Liberal ish uslublari**dir.

Avtoritar uslub

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq-ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiklash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof sub'ektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog'liq. Jamoa a'zolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-po'pisa, kamsitish yoki ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa a'zolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvurlar borki, shunga

ko'ra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Ya'ni bunday jamoalarda hokimiyat— markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu yerda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishiga nisbatan shunday fidoiylilik borki, ular o'zlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, ya'ni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab bo'lsa kerak bunday rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, uning o'sha yerdagi yetakchilik roli, boshliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'sha sifatlarga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham ta'sir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u o'zini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yig'ilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma'naviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik uslub

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'prok boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari — norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal uslub (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, ahlok normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati "guruh tashqarisida".

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emotsional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on va hokazo. Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum buldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan hatgi-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalalar ekan, o'shalarning

eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Rahbarlik sifatleri

Yuqorida aytib o'tilganidek rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V. Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda intellekt — aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatlari. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Chunki mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi sub'ektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi, lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlardan yana biri tom ma'noda "ziyoli" bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati — bu o'rinli, aniq, qiska, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning his-kechinmalariga sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. Chunki rejalashtirish asosida o'z-o'zini boshqara olish va boshqalarni tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boshqara olishni ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. Rejalashtirish — bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish kobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning o'z diqqatini

qanchalik omilona tarzda boshqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtdan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkoni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar realistik tafakkurga ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday sharoitlarda ham o'sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiqini tanlay oladigan, ishni to'g'ri tashkil eta bilgan, ya'ni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikasini to'g'ri yo'lga yo'naltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi rahbar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oshirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. Shunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergashtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgani — odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini, har bir a'zo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki "o'zgalarni psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", — deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiya bu borada ham yaxshi vositasi — ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Rahbarning professional muhim sifatlari masalasi oxirgi yillarda mutaxassislar va amaliyotchilarniko'proq qiziqirmoqda. Bir guruh olimlar amerikalik hamda yaponiyalik rahbarlar faoliyatini o'rganib, ularga xos bo'lgan eng muhim sifatlarning bloklarini ajratganlar. 1500 ta amerikalik menedjer va 41 ta yirik Yaponiya firmalari rahbarlarining sifatlari quyidagicha tabaqalandi:

A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartlari:

- dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
- uzoqni ko'ra bilish va egiluvchanlik;
- tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;
- muntazam o'z ustida ishlash va uzluksiz o'qish.

B. Shaxsiy sifatlar:

- maqsad va yonalishlarni aniq belgilash;
- o'zgalarni fikrini tinglash qobiliyati;
- xolislik, samimiyat va bag'rikenglik;
- adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo'yish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
- shaxsiy yoqimtoylik;
- jamoa tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

V. Salomatlik.

Lekin barcha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, amerikalik rahbarlar ko'proq xodimlarning shaxsiy-individual tashabbuslar ko'rsatishlariga imkon beruvchi muhitning bo'lishi tarafdorlari bo'lsalar,

yaponiyaliklar - xodimlarning hamkorlikdagi faoliyatlari samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratishga e'tibor beradilar.

Shuning uchun ham rahbarlik sifatleri xaqida gap ketganda, shaxsning bir qator bilimdonliklari nazarda tutiladi.

1. Professional bilimdonlik - o'zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo'lga quyish uchun o'sha faoliyat borasida to'la ma'lumotlar, bilim va malakalarga ega bo'lishlikdir.

2. Uslubiy bilimdonlik - bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko'nikmalari, turli loyixalar xususidagi ma'lumotlar, topshiriqlarni tez, to'g'ri va tushunarli tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyati.

3. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik - odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o'zidagi liderlik sifatlarini to'la namoyon eta bilish qobiliyati. Bu tushuncha ko'pincha "kommunikativ bilimdonlik" tushunchasi bilan sinonim sifatida ham ishlatiladi.

50-chi yillardan boshlab o'tkazilgan tadqiqotlarda xar qanday faoliyatda ham muvaffaqiyatni ta'minlovchi sifatlarining yuzlab xillarini aniqlandi. Lekin ularni umumlashtirilganda, 5% sifatlargina barcha tadqiqotlarda muhim, deb e'tirof etildi. Ularning orasida eng ko'p marta takrorlanganlari: a) intellekt (odamning murakkab va mavhum muammolarni yecha olish qobiliyati, u o'ta yuqori bo'lmasligi, aksincha, o'rtachadan yuqori bo'lishi kerakligi e'tirof etildi); b) tashabbuskorlik (yangicha ishlash va harakatlarga ehtiyojni anglash qobiliyati va shunga mos motivlar) kiradi.

Rahbarlikka loyqlik mezonlari asosida liderlikning vazifalari:

- lider - ma'mur;
 - lider - rejalashtiruvchi;
 - lider - siyosatchi;
 - lider - baholovchi ekspert;
 - lider - jamoning vakolatli vakili;
 - lider - rag'batlantirish va jazolash tashabbuskori;
 - lider - hukm chiqaruvchi va yarashtiruvchi;
 - lider - namuna "Ota";
 - lider - jamoaning ramzi - referent;
 - lider - individual mas'ullikni cheklovchi;
 - lider - dunyoqarashlar shakllantiruvchi;
 - lider - "Balogardon".
-

Liderlik va superliderlik

Amerikalik tadqiqotchi **Linda Djuell** o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik xodisalardan muhimi bo'lmish **liderlik** masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini

oshib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbari lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Bu kitobda ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyatli bo'lgan tushunchadan biri bu – **«superlider»** tushunchasidir. Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o'zi uchun lider bo'la** olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi (pr.):

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish , hayoliy repititsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonitira olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobiliyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V – o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o'zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi.

Mavzu yuzasidan qisqacha xulosa:

Mazkur mavzuda ijtimoiy psixologiyada boshqaruv va rahbarlik muammosining qo'yilishi, rahbarlikka oid nazariyalar (xarizmatik, vaziyatga bog'liqlik, sintetik), rahbar va lider orasidagi o'xshashlik va tafovutlar, ularning vakolat darajalari, rahbarlik uslublari (avtoritar, demokratik, liberal) to'g'risida atroflicha bilim va tushunchalar berilgan

Nazorat savollari va mustaqil ishlar mavzulari:

1. Psixologiyada boshqarish muammosi.
2. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.
3. Liderlik usullari haqida tushuncha.
4. Rahbarlik sifatlari.

8-Mavzu: Insoniyat tarixida oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi

Reja:

1. Oila psixologiya haqida tushuncha.
2. Oila va nikoh sohasidagi tadqiqot ishlari.
3. Yoshlarni oilaga tayyorlash.
4. Oila va nikohni tashkil etish.

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yohud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila eru xotindan tashqari urning ota-onasi, ya'ni qaynota va qaynona, farzandlar, uka singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon.

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yohud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila eru xotindan tashqari urning ota-onasi, ya'ni qaynota va qaynona, farzandlar, uka singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon.

"Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'lmoqlari lozim, "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil").

IBN SINO OILAVIY AJRALISHLAR XAQIDA

"Kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatib o'tgan.

1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo'lsa.
2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirsan.
3. Xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.
4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo'lsa turli ajralishlarga sabab bo'ladi degan fikrlari aytib o'tishimiz kerak.

Oila psixologiyasi fanining predmeti Oila va nikoh- ijtimoiy psixologiyaning predmet. Oila va nikoh sohasidagi ishlarning ijtimoiy xarakteri. Bu borada qiziqishlarning vujudga kelishi. Olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarni oilaviy

xayotga tayyorlash masalasi. Insonlar jamoasi tarixida oila va nikox evolyutsiyasi. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi shaxs rivojlanishiga oilaning tasiri xaqida. Oila va nikox tushunchalarini boshqarish. Tarixiy taraqqiyotda oila nikox munosabatlarini boshqarishning shakllari. Guruxiy nikox. Komandariya. Poligomiya. Monologiya. Endogomiya. Nikox oila munosabatlarining shakllari: kontrakt asosida, zaruriyatga qarab, qabul qilingan ijtimoiy qonun qo'larni bajarish sifatida va sevgiga ko'ra.

Siz yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Bu o'rinda haqli ravishda: «Bu fan bizga nima beradi? Nega endi aynan hozirga kelib bizni oilaviy hayotga tayyorlash zarur bo'lib qoldi? Axir ota-bobolarimiz bunday kurslarni o'qimay ham tinch-totuv, ahil-inoq, baxtli hayot kechirishgan-ku? Aksincha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida qanchalik ko'p gapirilib, yozilib, maxsus tadbirlar tashkil qilinayotgan bir paytda ham nizoli oilalar, ajralishlar miqdori ortsa ortayaptiki, kamaymayaptiku?» — kabi savollar ro'yxatini cheksiz davom ettiraverish mumkin. Ularning har birini yuzaga kelishiga to'liq asos bor.

Xo'sh, qanday zarurat hozirgi vaqtda yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash va ularga «Oila psixologiyasi» fanini o'qitilishi zarurligini taqozo qiladi?

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshka o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil kilish uchun, bundan 90—100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya'ni o'tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15—16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tqazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2—3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15—16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12—13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlik jixatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15—16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo‘lmish jinsiy yetuklikka, balog‘atga yetar ekanlar, ular aksariyat xollarda shu yoshga kelib o‘sha davrlar uchun xos va lozim bo‘lgan, unchalik murakkab bo‘lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo‘lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13—14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o‘sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma‘lumot talab qilmagan, 3—4 yil ustoz ko‘rgan shogird 16—17 yoshida o‘zi mustakil ish yurita oladigan ustaga, o‘z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo‘lsa, o‘z hunari orqali mehnat qilib o‘zini va oila a‘zolarini iqtisodiy jihatdan ta‘minlay olishi mumkin bo‘lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18—20 yoshli yigit mahalla-kuyda, jamoatchilik orasida ma‘lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul kilingan, turli tadbir va marosimlarda yetuk, uning hakli ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin bo‘lgan, ya‘ni uning ijtimoiy jihatdan balog‘atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat oldida o‘ziga xos mas‘uliyat yuklagan, mas‘uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko‘rib chiqaylik. Ular 12—13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu hakda keyinroq to‘xtalib o‘tamiz), biroq ular biror bir kasb-hunar egasi bo‘lib, mustaqil ishlab, o‘zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta‘minlay oladigan bo‘lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so‘ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyda o‘qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o‘kishi zarur bo‘ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta‘limdan so‘ng yoshlarimizning ma‘lum bir qismi o‘qishni oliy o‘quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma‘lum qismi uchun 20—21, boshqalari uchun 23—25 yoshga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarining kundalik hayoti o‘zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib boradi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsni madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarni bir-birlariga qo‘yadigan talablari oshishiga va shaxslararo munosabatni noziklashuviga olib keladi. Fikrimizning dalili sifatida bir faktni keltirishimiz mumkin. Ajralish foizi oliy ma‘lumotlilar ichida umumiy o‘rta ma‘lumotlilarga nisbatan yuqoriroqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo‘lmagan jamiyatning oila a‘zolari o‘z oilaviy yumushlarining aksariyatini qo‘lda bajaradilar. Bunda oilaning barcha a‘zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko‘proq jalb kilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma‘lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan kanday muloqotda bo‘lish malakalarini, oilada har bir shaxsning ierarxik mavqeiga ko‘ra o‘z huquq va vazifalarini aniqlab olishiga imkon beradi.

Moddiy ta'minot, yuqori madaniy saviya esa oilada shaxsning shaxsga qo'ygan talabini yanada kuchaytiradi. Oila a'zolarining o'zaro muloqotda bo'lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa ko'pgina yoshlar uchun ota-ona oilasi shaxsiy oilasiga namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi.

Shulardan ko'rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16—18 yoshida oila qurishsalar, ular shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo'lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12—13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7—8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19—20 yoshda, yigitlar esa 21—22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar. Bunday holatlar shubhasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy funksiyalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasini eng dolzarb masalalardan biri bo'lishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15—20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, bizning respublikamizda esa mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalariga, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmokda. Umuman, insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga karaganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Mana , «Oila psixologiyasi» kursini yoshlarga o'kitishning dolzarbligini ifodalovchi asosiy omil..

«Oila psixologiyasi» kursining yaratilishi va uning o'quv predmetlari qatorida maktab, kollej, litseylarda o'tiladigan darslar jadvaliga kiritilishi ham Respublikamiz Hukumati tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mantiqiy va mazmuniy davomidir.

9-Mavzu: Zamonaviy oilaning o'ziga xosligi, turlari va vazifalari Oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Reja:

- 1.Hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari.
2. Hozirgi zamon oilasining iqtisodiy reprodaktiv vazifalari.
3. Oilaning asosiy vazifalari

Har bir oila ijtimoiy tizim ,struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy

tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funksiyalarini hisobga olish lozim.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv).

Bu xaqda Sharq allomalari Abu Nosir Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, A.Temur, A.Navoiy, A.Donish va boshqalar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Albatta, bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasi asosiy funksiyalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki, ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam kabi funksiyalar hozirgi zamon oilasining muhim funksiyalari sifatida ko'rsatib o'tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funksiyalarini farqlaydi; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi — hordiq chiqarishini tashkil etish; N.G.Yurkevich — ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev — aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda. Bu o'rinda, oila funksiyalarini shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsiyunal va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalarga farqlash muhim.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo'lgan funksiyalarda ham hissiylik ko'proq tus olib bormoqda. Hissiy, emotsional kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo'g'iniligini, ishlab chiqaruvchilik funksiyasini ko'proq, saqlab qolmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy funksiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv), feliotsitologik kabilar.\

Oilaning iqtisodiy funksiyasi Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng, olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er-xotindan katta tajriba, malakaga talab qiladi. Shuningdek, oilada o'sayotgan bola ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda, bolaga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim.

Oila o'zining shu funksiyasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Masalan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasidayoq, uning jamiyatga keltirgan foydasi katta miqdorni tashkil etadi. Buni davlat tomonidan

davlat muassasalarida (bolalar uylarida) bir bolani 16-18 yil tarbiyalab, ishchi kuchi sifatida yetishtirish uchun (uni boqish, kiyintirish, o'qitish, moddiy ta'minlash va sh.k.) davlat tomonidan har bir bolaga sarflanadigan mablag' va aynan shunday ishchi kuchini oilada tarbiyalash uchun beriladigan nafaqa pullari miqdorini solishtiradigan bo'lsak, o'rtadagi farq birinchilar foydasiga bir necha yuz ming so'mni tashkil qiladi.

Tasavvur hosil qilishimiz uchun aytish mumkinki, har bir bolani voyaga yetkazish uchun oila davlatga kamida 1ta «Neksiya» avtomashinasi qiymati miqdorida iqtisodiy foyda keltiradi. Bu boradagi, ya'ni har tomonlama kamol topgan ma'naviy-axlokiy yetuk, jismoniy-psixologik sog'lom shaxsni yetishtirishning ma'naviy-axlokiy jihatlarini hech qanday iqtisodiy mezon bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bu oilaning iqtisodiy funksiyasini atigi birgina shaxsni shakllantirishdagi foydasini ko'rsatadi, xolos. Oilada xo'jalik ishlarini yuritish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, fermer xo'jaligi, shaxsiy ishlab chiqarish kabilar uning jamiyat oldidagi iqtisodiy funksiyasi ahamiyatini tobora orttiraveradi.

Oilaning reproduktiv funksiyasi Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir. Oila faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, ularni insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirish, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti odamda farzand ko'rishga, ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda, o'zini baxtiyor his kila olmaydi. Shuningdek, er-xotinda farzand tug'ilishi bilan bog'liq holda butunlay yangi hissiyotlar:

ayolda — onalik, erkakda — otalik hissi paydo bo'ladi. Farzand er-xotin munosabatlarini yanada mustahkamlovchi asosiy omil hamdir.

Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda, aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtdan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan. Har bir oilada ikkitadan farzandning bo'lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta'minlay olmaydi. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o'zining reproduktiv funksiyasini bajarishi uchun har bir oilaga o'rtacha 2-6 ta farzand to'g'ri kelishi kerak.

Albatta, faqat oilagina jamiyat oldidagi funksiyalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu o'rinda hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va hukukiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday siyosatning asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning

moddiy ahvolini yaxshilash, yosh oilalarga, onalarga yaratilayotgan imtiyozlar va shu kabilardan iborat.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasi Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir funksiyasi tarbiyalash funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy funksiyasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuvchilik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval, oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotta kirib boradi.

Oilaning kommunikativ funksiyasi Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy orientatsiyalar, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi — oiladagi o'zaro, ichki mulokot xarakteri, oiladagi katta a'zolarining muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi axloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlar kundalik hayotining urbanizatsiyalashuvining (radio, televidenie, video, kompyuter va boshqalar) ortib borishi, oilalarning tobora nuklearlashib borayotganligi bilan oilaning kommunikativ funksiyasining ahamiyati, oila a'zolarining bir-birlari bilan «odamlarcha» suhbatlashib olishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu o'rinda o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro muloqot to'laroq amalga oshishiga asos bo'ladi, ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi (ayniksa, qishloq oilalarida), holatlari ham mavjud, hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarining ayrimlarida stress (asabiy tanglik), suitsid (o'z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarning kelib chiqishi ham kuzatilmoqda. Bunday noxushliklarning oldini olish uchun eng avvalo, oila a'zolari o'rtasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunarli, ishonchli

muloqotning amalga oshishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, lozim bo'lsa, bu borada yoshlarga tegishli bilimlarni berish, aholi uchun psixologik maslahatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, treninglar tashkil etish, «Ishonch telefonlari», «Qalb markazlari» kabilarni tashkil etib, ular faoliyatini takomillashtirish lozim.

Oilaning rekreativ funksiyasi Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lib kelgan xususiyatlar, undagi shaxslararo munosabat talablari quyidagicha bo'lgan: Oila a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalaniishini ta'minlash, mehnatga yaroqsiz yoki keksa qarindoshlarga moddiy va jismoniy yordam ko'rsatish va shu kabilar.

Bu holat o'z navbatida oilaning asosiy funksiyalaridan yana birini, uning rekreativ funksiyasini tashkil qiladi. Oilaning rekreativ — o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funksiyasidir. Bu funksiya keyingi yillarda yanada muhim ahamiyat kasb etmokda. Oila a'zolari salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish, oila a'zolarining bevosita mehnat, o'kish va boshqa ijtimoiy faoliyatlaridan xoli holda, ya'ni bo'sh vaqtlarni birgalikda o'tkazishlarini qanday tashkil qilishlari, unda bularning o'zaro munosabatlari xarakteri qanday ekanligi bugungi kun oilasi mustahkamligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan hisoblanadi. Bo'sh vaqt jamiyatning nihoyatda muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biridir. Bu qadriyatdan odamlar turlicha foydalanadilar. Bo'sh vaqtini muntazam ravishda qanday o'tkazishiga qarab har bir odamning yetuklik darajasiga, ma'naviy dunyosiga baho berish mumkin. Bu borada erishilgan yutuqlarimizdan biri shuki — dam olish va sog'lomlashtirish ishlariga davlat miqyosida ahamiyat berila boshlandi. Lekin ko'pchilik turli sabablar bilan (ularning o'zlari ko'prok moddiy sababni ko'rsatishadi) madaniy dam olishga e'tibor bermay qo'yganligini ham aytib o'tish lozim. Hozirgi vaqtda oilaviy dam olish, oilaviy turizm va qator oilaviy tadbirlar doirasi kengayib bormoqda.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi vaqtda oilaning rekreativ funksiyasini davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'z zimmasiga olmoqda. Odamlarning xavfsizligini ta'minlash, qariyalarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish (bizning milliy xususiyatlarimizga yot bo'lsa-da qariyalar uylarining ochilishi), odamlar dam olishlari va o'z sog'liqlarini tiklab olish imkoniyatlarini beradigan dam olish uylari va sanatoriylarning ochilishi kabilar shular jumlasidandir. Lekin, shu bilan birga oila o'z a'zolarining ahloqiy-psixologik himoyalanganligini ta'minlaydi va uning bu roli tobora ortib bormokda. Chunki, odam faqat o'z oilasidagina va faqat o'z yaqinlari qurshovidagina o'zini tom ma'noda xotirjam, erkin his qila olishi mumkin, xolos. Bu borada oilaning o'rnini hech bir ijtimoiy muassasa bosa olmaydi.

Oilaning felitsitologik funksiyasi Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felitsitologik funksiyasidir (italyancha «felitsite» — baxt). Shaxsiy baxtga erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda. Baxt nima o'zi? Hozirgi zamon oilasi o'z a'zolarining baxtini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi?

Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o'ziga ato etilgan baxtning to'rt dan uch qismini oiladan, choraktaga yetar-etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er-xotinning bir-birini to'liq tushunishi — ularning o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlar (iqtidor)ni ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi. Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda. Lekin, ba'zan nopok yo'llar bilan pul topish orqali baxtli bo'lishga intilish yoki o'zgaralar hisobiga shaxsiy baxtga intilish kabi salbiy holatlar ham uchrab turadi. Ba'zan esa oila a'zolarining (ayniqsa, er-xotinning) shaxsiy baxtga o'z-o'zicha intilishi oilalarda noxush holatlar (xiyonat kabi)ni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun har bir shaxs o'zida ko'prok vijdonlilik, poklik, halollik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga e'tibor berishi lozim.

Oilaning regulativ funksiyasi Oilaning regulativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi. O'tgan zamonlarda oilaning boshqarish funksiyasi ma'lum darajada rasmiy tarzda belgilab ham qo'yilgan. Unga ko'ra, oilada kim oila boshlig'i bo'lishi, uning obro'si va ustunligi qayd etilgan va oilaning shu a'zosi (asosan ota) butun umri davomida o'z farzandlari va oila a'zolari hatti-harakati, xulqi uchun javobgar bo'lgan. Ota-onasiga bo'ysunmaganlarni jazolash hollari ham nazarda tutilgan.

Hozirgi zamon egalitar oilalarida esa oilaning boshqaruv funksiyasi, asosan axloqiy me'yorlar, oila a'zolarining shaxsiy obro'si va birinchi navbatda otalarning bolalarga nisbatan bo'lgan munosabatlaridagi obro'si kabilar yordamida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, ba'zi oilalarda oilani boshqarish, unga boshchilik qilish oila a'zolarining qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, ba'zi oilalarda (er-xotinning alohida-alohida) liderlikka intilishi natijasida oilaviy nizolarning ortib borishi, bolalarning har tomonlama e'tibordan chetda qolishi, natijada jinoyatchilik ko'chasiga kirib ketishi kabilar kuzatiladi. Ba'zi oilalarda ayol liderligining mavjudligi o'g'il bola shaxsida ayollarga xos xususiyatlarning ko'payib borishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga oilaning boshqaruv funksiyasi oila a'zolarining xulqi, mas'uliyati, majburiyati kabilarini ham boshqarishni, nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Odam oila qurganidan so'ng, albatta uning ijtimoiy mavqei o'zgaradi. Endi u «uylanmagan yigit», «turmushga chiqmagan qiz» emas, balki «oilali» odamdir. Shunga ko'ra, u o'zining hatti-harakatlari, xulqini ham oilali odamga xos tarzda qaytadan ko'rib chiqadi. Oila qurish tufayli uning mas'uliyati ortadi. Erning va xotinning xulqi ham endi o'ziga xos boshqariladi.

Oilaning relaksatsiya funksiyasi Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funksiyalaridan yana biri relaksatsiya funksiyasidir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Ma'lumki, fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida,

ishlab chiqarish munosabatlarining jadallashuvi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda, ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar bermokda. Bugungi va ertangi kun sanoati, ishlab chiqarishi ishchi xodimdan bor imkoniyatini safarbar qilib, butun vujudi bilan ishlashni va o'zining kasb-hunar mahoratini muntazam oshirib borishni taqozo qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlari jadalligining bunday tarzda davom etishi shu jarayonlar ishtirokchisi, boshqaruvchisi insonni tezda toliqtirib, mehnat qobiliyatining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ish kuni davomida ko'tarinkilik, kuchli zo'riqish bilan ishlagan xodim, ishchi ishdan so'ng o'z uyida, oila a'zolari qurshovida boshqa tashvishlarni unutib, unga ko'rsatiladigan mehr-oqibatdan bahramand bo'lib, ular bilan bo'ladigan o'zaro muloqot, ular tomonidan bo'ladigan emotsional qo'llab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy quvvat olib, ertangi kun mehnat faoliyatiga o'zini qayta tiklab olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa, uning oilasida tinchlik, totuvlik, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, ijobiy psixologik iqlim hukm surmog'i lozim. Aks holda, odam bu oilada emotsional jihatdan, ruhiy jihatdan o'zini qayta tiklab ololmaydi. Bu esa, oqibatda odamning mehnat faoliyatida turli xatolarga, ishda sifatsizlik, jarohatlarga yo'l qo'yishiga, turli kasalliklarga duchor bo'lishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila uchun oila baxtini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, oila — jamiyatning bir bo'lagi, uning asosiy yacheykasidir. Shuning uchun oilaning o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi. Shunday ekan, jamiyatni sog'lomlashtirish uchun eng avvalo, oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy muammolarini ham hal qilishga hissa qo'shishini ta'minlash lozim.

Bilimni tekshirish uchun savollar

1. Hozirgi zamon oilasining qanday turlari mavjud?
2. Hozirgi zamon oilasining qanday asosiy funksiyalari farqlanadi?
3. Oilaning har bir funksiyasi jamiyat va shaxs uchun qanday ahamiyatga ega?

10-Mavzu: Oilaviy nizolar va ularning turlari Ota-ona – bola munosabatlari psixologiyasi

Reja:

1. Oilaviy nizolar.
2. Ajralish va uning oqibatlari
3. Ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Xo'sh, eng ezgu niyatlar bilan, bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o'zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro'y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman, er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush janjallsiz ham yashasa bo'ladimi? Bu kabi savollarni yana ko'p davom ettirish mumkin.

Xalqimizda bir gap bor: Oshsiz uy bo'lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo'lmaydi. Faqat, nizoning nizodan farqi bor. Bu haqda quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Haqiqatan ham ilk bolalikdanoq ko'plab ertaklar eshitib, keyinchalik o'zlari ham ularni turli kitoblardan o'qib o'sgan yoshlar o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul. Chunki ertaklarda ham, kinofilmlarda ham qahramonlar bir-birlariga yetishgunlariga qadar ne-ne mashaqqatlarni, zahmatlarni boshlaridan kechirib, bu yo'lda duch kelgan qora kuchlarni yengib, oxir-oqibatda visolga erishadilar, elu yurtga «qirq kecha-yu, qirq kunduzlab to'y berib, murod maqsadlariga erishadilar». Deyarli barcha ertaklar, filmlar, ayniqsa bizning yoshlarimiz, qizlarimiz sevib tomosha qiladigan hind filmlari, aksariyat hollarda shu tariqa yakunlanadi. Bunga sizlar ham ko'p martalab guvoh bo'lgansizlar.

Bundan tashqari aksariyat muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o'z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlarga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurishganlaridan so'ng o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlarimiz o'z onalaridek «ota», «ona», «er», «xotin» bo'lishni orzu qiladilar. Chunki ular o'z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni ko'rmaganlar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham, ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analari mavjud. Bularning hammasi yoshlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Shunday ertakmonand tasavvurlar, orzular og'ushida oila qurgan yoshlar, o'zlarining oilaviy hayotlarida dastlabki muammolarga duch kelishlari bilanoq, ularning oilaviy hayotlari o'zlari kutganlaridek bo'lmayotganligi, turmush o'rtog'ini tanlashda «xato qilganligi», ular oldingi (to'ydan oldingi) holatiga nisbatan ma'lum darajada (albatta) «salbiy» tomonga o'zgarib qolganligi kabilarni «tushuna» boshlaydilar. Shuningdek, yosh oilada er-xotinlarning o'zaro munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari, ayniqsa, yosh o'zbek oilasida uning etnik, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Afsuski, bunday jarayonlar deyarli har bir oila uchun muqarrar bo'lgan va aksariyat yoshlar oila qurish arafasida o'z nikohlaridan kutmagan jarayonlardir.

Xo'sh, bu jarayonlar, ya'ni er-xotin nizolari kerakmi? Ular er-xotinning o'zaro munosabatlariga qay darajada ta'sir etadi? O'tmish donishmandaridan biri haqli ravishda er-xotin nizolarini garmdoriga qiyoslagan ekan. Garmdori achchiq, lekin u me'yorda bo'lsa ishtahani ochadi, me'yoridan ortib ketsa, og'iz, lab, tilni kuydirishi, noxush hissiyotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Nizoli vaziyatlar har

qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar nizolardan mutlaqo holi (himoyalangan, kafolatlangan) bo'la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo'lmaydi. Bu nizolar ma'lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o'taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi. Biror-bir maxsus mezon yo'qki, shunga asosan nizolarning qaytalanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma'lumotlari (ko'rsatkichlari)ni aniq belgilab berish (olish) mumkin bo'lsa. Bunda hamma narsa sub'ektning o'ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning qo'yilishiga, nizoning qanday idrok qilinishi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, bir-birlariga aynan o'xshash, mos ikki odamning bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individdan) tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlanmasdir. Bir oila uchun me'yorida bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi, yoki biron bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin va hokazo.

Shunday ekan jamiki oilalarga xos bo'lgan nizolar va ularning sabablarini yagona bir o'lcham yoki xarakteristika bilan ko'rsatib berish masalasi ham mantiqqa to'g'ri kelmaydigan ishdir. Lekin turli toifadagi oilalarni o'rganish, ular a'zolarining o'zaro munosabatlarini taqqoslash va shu kabilar asosida ayrim nisbiy xulosalarga, mulohazaalarga kelish mumkinki, shu nisbiylikdan har bir odam o'zi uchun nisbatan «tegishli» xulosalar chiqarib olishi lozim bo'ladi. Shuning uchun, biz quyida oilaviy munosabatlar, oiladagi nizolar haqida fikr yuritish ekanmiz, ularning barcha oilalarga mutlaq tegishli bo'lishligini (ekanligini) da'vo qilolmaymiz. Quyidagilar ham bizning nisbiy mulohazalarimizdir.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko'ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o'rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Albatta, bu ro'yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin biz hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalanib, oilaviy hayotda ro'y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lgan nizolarning eng asosiysi bo'lmish er-xotin o'rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Umuman oilada er-xotin o'rtasidagi nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishi taxminan 1-rasmda keltirilgan sxemadagidek bo'lishi mumkin.

Birinchi rasmdan ko'rinib turibdiki, har qanday oilada er-xotinning o'zaro munosabatlarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar. Lekin shu

nizolarning xarakteri, ularning oqibatlariga ko'ra turli oilalar va ulardagi oilaviy munosabatlar bir-birlaridan farqlanadi. Shunday ekan biz dastavval muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz oilalarda ro'y beradigan nizolarni ko'rib chiqaylik. Rasmda ko'rinib turganidek muvaffaqiyatli oilalardagi nizolar biriktiruvchi va muvaffaqiyatsiz oilalardagi nizolar esa ajratuvchi xarakterga ega. Shuning uchun ham psixologik adabiyotlarda nizolar shartli ravishda «konstruktiv» («biriktiruvchi») va «destruktiv» («ajratuvchi») nizolarga farqlanadi. Ular o'zlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar, bu muammolarning hal etilishi, kechishi, ishtirokchilari, oqibatlari va boshqalarning xarakteriga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi.

Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham urning, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiy manfaatlariga oid muammolar o'z yechimni topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib, intizom, ozodalik, oila byudjetini yuritish, saranjomlik, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo'la oladi. Ular asosan er-xotin o'rtasidagina yuzaga keladi, ularning ishtirokchilari ham faqat er-xotinlarning o'zlarigina hisoblanadilar.

Bunday nizolarning muvaffaqiyatli hal etilishida er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib, tushunib, bir-birlarining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o'rganib borish, bir-birlariga moslashish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday nizolar «er-xotinning urushi — doka ro'molning qurishi» kabi nizolar toifasiga kiradi. «Doka ro'molning qurishi» er-xotin o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi.

Ajratuvchi nizolarda ularning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammo va uning yechimi er-xotinlardan birining manfaatiga qaratilgan bo'ladi. Bunday nizolarda bir tomon manfaatining hal etilishi ko'pincha, ikkinchi tomon manfaatining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Masalan, erni yoki xotinni shaxsan o'zi uchun biron nima xarid qilishi, urning yoki xotinning ishi tufayli, o'zbek oilasi uchun xarakterli bo'lgan nizolardan bo'lmish er yoki xotinning qarindosh urug'lari bilan bo'ladigan munosabatlar tufayli yuzaga keladigan nizolar shular jumlasiga kiradi. Bunday nizolarning hal qilinishi, ya'ni bir tomon manfaatlarining qondirilishi ko'pchilik holatlarda ikkinchi tomon manfaatlarining boy berilishi hisobiga amalga oshadi. Bunday vaziyatlarda manfaati boy berilgan tomonda norozilik, e'tiroz saqlanib qoladi va bu keyinchalik yana kuchayib navbatdagi nizoning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ajratuvchi nizolarda, nizo hal etilgani bilan, nizoli vaziyat saqlanib qolaveradi.

Shuningdek, ajratuvchi nizolar ularni yuzaga keltirgan sabablar bevosita er-xotinlarning o'zaro munosabatlari doirasidan tashqaridagi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Ularning sababchilari va ishtirokchilari ham ba'zan er-xotindan tashqari uchinchi odam bo'lishi mumkin, ularning hal etilishi ham er-xotinlarning o'zlarigagina emas, balki shu uchinchi (boshqa) odamga bog'liq bo'ladi. Bularning oqibatida nizolarning yanada kuchayishi, sonining ortishi kuzatiladi.

Ajratuvchi nizolar, aksariyat hollarda «chegaralanmagan» nizolar bo'lib, o'z xarakteri, ishtirokchilari, hal etilishi va oqibatlariga ko'ra er-xotin munosabatlari doirasidan chetga chiqadi. Bunday er-xotin nizolariga oilaning boshqa a'zolari: qaynona, qaynsingil, ovsinlar va boshqalar ham aralashadi.

Ijtimoiy psixologiyada gap, so'z, nizo haqidagi ma'lumot bir og'izdan chiqib, kishilarning keng tomoniga qarab harakatlana boshlaydi. Uning ko'lami ma'lumot manbaidan uzoqlashib, undan xabardor bo'lgan va unga jalb etilgan ishtirokchilar soni ortib borgan sari kengayib boraveradi.

Er yoki xotin bir-birlari bilan urishib qolganlaridan so'ng bu haqda uchinchi bir odamga gapiradigan bo'lsa, imkon qadar shu nizoda o'zini aybsiz, haq qilib ko'rsatishga, shu uchinchi odamni uning manfaatlarini himoya qilishiga og'dirib olish maqsadida bir yoqlama gapiradi. Bunda sub'ekt foydalanadigan gap-so'zlar, ohang, imo-ishora, mimika, urg'u va boshqalar deyarli barcha verbal va noverbal vositalar ro'y berib o'tgan hodisa (nizo-janjal)ning asl holatiga qaraganda bo'rttiribroq idrok etilishini ta'minlaydi. Nizo haqida qanchalik ko'p odamga gapirib beraverilgan sayin u ayanchli tus olgan holda avj olib boraveradi va oqibatda fojeali natijalarga ham olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yoshlarimiz oilaviy hayotda ro'y beradigan biriktiruvchi nizolarga tayyor bo'lishlari, ularni biriktiruvchilik, er-xotinni bir-birlariga moslashuvlariga, ularning o'zaro munosabatlarining rivojlanishini ta'minlovchi, ularning har ikkalovining ham, ya'ni «biz»ning manfaatiga qaratilgan nizolarning biriktiruvchanlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ularni salbiy oqibatlarga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o'rganishlari lozim. Albatta ajratuvchi, «men» xarakteridagi, «chegaralanmagan» nizolarni oldini olish, uning oqibatlaridan voqif bo'lishlari ham maqsadga muvofiq.

1-chizmada ko'rinib turganidek, er-xotinning o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan konstruktiv nizolar aksariyat hollarda er-xotin o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarning hal etilishi, ularning o'rtasida hamkorlikning yuzaga kelishi va oxir-oqibat er-xotin munosabatlarinig mustahkamlanishiga olib boradi.

Destruktiv nizolarda yuqorida aytib o'tganimizdek, bir nizoning hal etilishi (ya'ni er-xotinlardan birining manfaatining qondirilishi) navbatdagi nizoning yuzaga kelishiga asos yaratar ekan, o'z navbatida bunday «men» xarakteridagi, «chegaralanmagan» nizolar tufayli er-xotin munosabatlarida nizolar «eskolatsiyasi» shakllanib qoladi va oilaviy hayot er-xotin uchun «uzluksiz jang maydoni»ga aylanib qoladi. Bunday nizoli muhit nafaqat shu oiladagi er-xotinning ruhiy olamiga, ularning asabi, sog'ligi, ijtimoiy holatigagina emas, balki shu oilalarda dunyoga kelib shunday muhitda tarbiyalanayotgan farzandlarning ruhiy olamiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday oilalarda hukm surgan nizoli vaziyat, doimiy janjallar mehr-oqibatsizlik, o'z asoratini faqat shu oilalarning o'zidagina qoldirmay, balki shu oila farzandlari tomonidan tuzilajak keyingi avlod oilalariga ham olib o'tishi mumkin.

Er-xotin munosabatlarida nizolarning rivojlanish yo'li tasviri berilgan 1-chizmadan ko'rinib turibdiki, yangi yuzaga kelgan oilalarda er-xotin munosabatlarining u yoki bu tarzda rivojlanishi oqibatida shartli ravishda to'rt xil oilalar shakllanib boradi. Bular: o'zaro munosabatlari mustahkamlangan oilalar; munosabatlari vaqtincha mustahkamlangan oilalar; yangi nizolar yuzaga kelib va takrorlanib turadigan (nizoli) oilalar; va nihoyat munosabatlar uzil-kesil buzilib ajralishib ketgan oilalar.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar. Bunday kelishmovchiliklar uchun zamin bo'lib quyidagilar xizmat qiladi.

1. Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqni hisobga olinmasligi;
2. Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, hissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, umr yo'ldoshi tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi;
3. Ota-onalar ichkilikka ruju qo'yishi yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib, buzuqchilik qilishi;
4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-elpi hayot kechirishga o'rganib qolishi;
5. Ayrim yoshlarning farzandlik burchini unutib qo'yishi va hokazo.
6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

Ota-onalar va bolalar munosabatiga oid yuqoridagi kabi kamchiliklar natijasida oiladan halovat yo'qoladi, o'rtaga sovuqchilik tushadi. Farzandlik burchini bajarmaslik u yoqda tursin, hatto ichib kelib, ota-onasiga qo'l ko'taradigan farzandlar, ota-onasini sharmanda qilayotgan suyuqoyoq faxshparastlar borligiga nima deysiz?

Ba'zi ota-onalar bolalarda 3, 6, 13, 14 yoshlarda muqarrar ravishda bo'lib o'tadigan krizislarni bilmaydilar. Bu yosh bosqichlarida bola ruhiyatida yangi psixologik qo'shilmalar yuzaga keladi. Bu esa ularning kattalar, jumladan, ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Buni sezmagan ba'zi ota-onalar «bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo'lib qoldi», deb o'ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar. Bunga qarshi o'zlaricha chora-tadbirlar belgilashlari natijasida ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar. Bolaning ota-onadan bezish hollari kuzatiladi.

Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar. Oilaga yangi tushgan kelinlarning ko'pchiligi yuzaga keladigan ba'zi qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib, kelinlik vazifalarini ko'ngildagiday eplab ketadilar, qaynonalarini ro'zg'or tashvishlaridan halos qiladilar, tezda ularning mehriga sazovor bo'ladilar. Qaynonalar ham bunday kelinni «qizim» deb bag'rilariga oladilar, bilmaganini o'rgatadilar, qiynalganida yordam beradilar, hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. Ularga uy-ro'zg'or ishlarida va bolalar tarbiyasida yaqin ko'makdoshga aylanadilar. Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli to'qnashuvlar ham sodir bo'lib turadi. Gap qaynona-kelin o'rtasida borar ekan, shuni aytib o'tishimiz lozimki, bu masala azal-azaldan odamlarning, insoniyatning atoqli namoyondalarining diqqat e'tiborida bo'lib kelgan muammolardan biridir. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan

sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o'zining «Navodir ul vaqoe» (Nodir voqealar) nomli kitobida qaynona-kelin nizolari haqida yozar ekan shunday deydi: «Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo'lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ular doimo urishaveradilar. Ular nima uchun urishadilar? Chunki ular nima uchun urishishayotganliklarini o'zlari ham bilmaydilar. Shuning uchun urishadilar». Demak, bu o'rinda qaynona-kelin nizolari, sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligi ko'rinib turibdi. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy qiyofa sifatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila qurib, tasavvuridagi emas, balki hayotdagi qaynona bilan yashay boshlaydilar. Oqibatda ular o'z tasavvuridagi qaynonaga xos bo'lgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Boriniku topishlari aniq, hatto yo'g'ini ham topishga harakat qiladilar. Chunki tasavvurlari ularni aldaganini tan olishni istamaydilar.

Hayotda kamchiliksiz odam bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Ideal qaynona, ideal kelin ham bo'lishi mumkin emas.

Kelinlar o'zlari tushgan yangi oila a'zolariga ilk taassurot asosida baho berishga oshiqmasliklari lozim. Aks holda, pashshadan fil yasash ham hech gap emas. Kelinlar og'ir-bosiq, sabr-toqatli bo'lishlari, iloji boricha o'zlari tushgan xonadon a'zolarining yaxshi tomonlarini ko'rishga intilishlari, eri shu xonadon a'zosi ekanligini unutmasligi lozim. Ana shunda bu oila tinch-totuv bo'ladi. Zotan, kelin bu xonadonga besh kunlik mehmon emas, balki bir umrlik a'zo bo'lib kelganligini unutmasligi kerak.

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va keskinlashadi.

Ikki avlodning dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari o'rtasida tafovut bo'lishi tabiiy holdir. Ammo aksariyat hollarda qaynona-kelinlar ko'p jihatdan bir-birining aksi bo'ladilar. Ayrim hollarda esa qaynona-kelin andishani yig'ishtirib qo'yib, har birlari o'z gaplarini o'tkazishga harakat qiladilar. Bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kattalar yoshlarni kiyinishi, soch turmaklashi, yoqtirgan kuy va ashulalarini tinglashi va shu kabi boshqa masalalalarda ularni o'z holiga qo'yishlar lozim. Yoshlar ham o'z navbatida iloji boricha ota-onalarini tushunishga intilishlari, ularni g'ashiga tegadigan noo'rin qiliq va odatlardan qaynonaga xush kelmaydigan salbiy «hoyu-havaslardan» o'zlarini tiyishlari kerak.

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarni bajarishga tayyor bo'lmaydilar.

Shunday kelinlar bo'ladiki, ular na ovqat pishirishni, na kir yuvishni, na kattalar bilan muomala qilishni biladilar.

Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga ega bo'lgan qaynonasi darajasida turishi juda qiyin. U darajada bilmasa ham mayli-ya, lekin bilishni istamasa qiyin. Shuning uchun nikohgacha onalar qizlariga osh-ovqat pishirishni, meva-sabzavotlardan qishga sharbat, tuzlama, murabbolar tayyorlashni, uy-joyni saranjom-sarishta tutishni, did bilan

mehmon kutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini iqtisod qilishni, uy anjomlari, jihozlaridan asrab-avaylab foydalanishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga alohida e'tibor berishlari zarur. Chunki el orasida «qiz birovning xasmi, boshqa oilaga tushishi bor», degan hikmat bor. Shunga qarab qizlarni puxta tayyorlash kerak. Qaynonalar ham kelinlardan hadeb kamchilik va qusur axtarmasdan, uni o'z farzandiday ko'rib, bilmaganini sabr-toqat bilan o'rgatib borishi lozim. Kamchiliklarini yuziga solavermasdan, yaxshi tomonlarini gapirib turishlari kerak. Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi. Qaynonalar kelinlarida hosil qilingan ko'nikma va malakalarning o'z o'g'li uchun va kelajakda o'z nabiralari uchun xizmat qilishini esda tutishlari kerak.

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisha olmay qoladilar. Ayrim oilalarda bolalar yo bobo-buvilar yoki ota-onalar tomonidan me'yoridan ortiqcha erkalatib yuboriladi. Natijada ota-onalar bilan bobo-buvilar o'rtasida «bolaga kim tarbiya berishi kerak» degan masalada kelishmovchilik kelib chiqadi. Aslida ular ham, bular ham bolalarni kelajakda yaxshi kishilar bo'lib yetishishini istaydilar, tanlagan yo'llari esa turlicha, biroq, ular bir bitimga kelib olishmasa bola tarbiyasining holiga voy deyavering. Buning uchun ular boladan holi joyda bir murosaga, yakdil qarorga kelib olishlari lozim. Ana shunda bobo-buvilar ham, ota-onalar ham ahillik bilan bola tarbiyasi borasida o'zaro mos chora-tadbirlarni belgilab olishlari lozim. Bunda bola qanday muhit va shart-sharoitda, davrda o'sayotganini, mijozi turini hisobga olish zarur.

5. Ba'zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo'lida bir-birilaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Oilada ikki va undan ortiq kelin bo'lsa, qaynona ularning hammasiga bir xilda qaray olmasligi tabiiy holdir. Kelinlardan birontasi qaynonaning didiga yaqinroq, ba'zisi uzoqroq bo'ladi. Ayollar o'ta ruhiy sezgirliklari tufayli buni tezda sezaдилar. Natijada «o'gay» kelin bilan qaynona o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bunday holning oldini olish va ovsinlar orasiga sovuqchilik tushirmaslik uchun qaynona o'z kelinlariga mumkin qadar bir xilda munosabatda bo'lishi (ammo bu yerda har bir kelinning muomalasi, munosabatini, qaynonaga bo'lgan mehrini hisobga olish inkor etilmaydi) rashk qilishlariga imkon yaratib qo'yishdan ehtiyot bo'lishlari kerak. Bu o'rinda shaxsan kelinlardan ham aql-idrok, mulohazalilik va sabr-toqat talab qilinadi.

6. Ba'zi hollarda qaynona kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmaydi.

Qaynonalar orasida umr bo'yi uy bekasi bo'lganlari ham bor. Ular ishlash bilan uy-ro'zg'or ishlarini baravar olib borishni o'z boshidan o'tkazmagan. Ana shunday qaynonalar yoshligida o'zlarini risoladagiday kelin bo'lganman deb biladilar, qaynota-qaynonalarini qanday izzat qilganliklarini «ularning soyalariga ko'rpacha solganlarini» (rostmi-yolg'onmi, baribir) tez-tez eslashni yaxshi ko'radilar va kelinlarining ham «o'zlariday» bo'lishini istaydilar. Ba'zan esa uni o'g'li orqali ochiqdan-ochiq talab qiladilar. Bunga kelinlarining imkoni bormi, yo'qmi, o'ylab ham ko'rmaydilar. Bunday qaynonalar «ehtiyojini» qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan kelinlar ularning g'azabiga uchraydilar. Kelini haqida bo'lar-bo'lmas gaplarni o'g'illarining qulog'iga quyadilar. «O'g'linga aytib seni qo'ydirib

yubormasam, yurgan ekanman» — deya do‘q-po‘pisa qiladilar. Ba‘zi hollarda maqsadlariga erishadilar ham. Bunday qaynonalar o‘g‘illari, nabiralari baxtidan ko‘ra o‘z huzur-halovatlarini ko‘proq o‘ylaydilar. Buning oldini olish uchun o‘g‘ildan g‘oyat tadbirkorlik talab qilinadi.

7: Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo‘ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Har bir oilaning o‘ziga xos muhiti, qonun-qoidolari, an‘analari, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga beradigan baho mezonlari, hatto faqat shu xonadon a‘zolari tushunadigan, shartli ravishda qabul qilingan so‘z, iboralari bo‘ladi. Yangi tushgan kelin o‘zi bilan o‘z tug‘ilib o‘sgan uyining muhitini, odat-ko‘nikmalarini ham olib keladi. Shuning uchun ham ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi.

Ota-onalar iqtisodiy, moddiy, ijtimoiy saviyasi orasidagi tafovut ham aksariyat kelin-kuyov orasidagi munosabatlarning keskinlashuviga ta’sir qilishi mumkin.

Bunda iqtisodiy omil shu bilan ifodalanadiki, kelin yangi tushgan xonadonda qizlik xonadonidagi iqtisodiy mo‘l-ko‘lchilikni ko‘rmasdan, o‘z turmushidan sovushi mumkin.

Shuning uchun ham donolar «Qiz bersang o‘zingdan bir pog‘ona balandga ber, sening xonadoningda ko‘rmaganini yangi xonadonida ko‘rib, yangi xonadonga ko‘nikishi oson kechadi. Qiz olsang o‘zingdan bir pog‘ona pastdan ol. Shunda kelin o‘z uyida ko‘rmagan mo‘l-ko‘lchilikni sening xonadoningda ko‘rib, bu muhitga tez ko‘nikadi» deganlar.

Madaniy-ijtimoiy omil. Kuyov ma’lumotli, madaniyatli oiladan bo‘lib, kelin aksincha, dehqon, ishchi yoki savdogar oiladan bo‘lsa yoki er-xotindan biri shahardan, ikkinchisi qishloqdan bo‘lsa bu ijtimoiy-madaniy tafovutlar ham er-xotin o‘rtasidagi ixtiloflarni keltirib chiqarishi mumkin. Kelin-kuyovlar ijtimoiy kelib chiqishida ham, iqtisodiy ta’minlanganlikda ham bir-biriga mushtarak bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

Bordi-yu, kelin boshqa millatga mansub bo‘lsa, uning yangi oilaga moslashishi yanada qiyin bo‘ladi. Masalan, o‘zbek xalqida kekirish to‘yganlik — shukronalik belgisi hisoblanib kelingan. Rus xalqida esa bu odat o‘ta odobsizlik hisoblanadi. Shu sababli yangi oilaga moslashish ham osonlikcha kechavermaydi. Buning ustiga kelin uchun bu oila yangi, ayni paytda «begona»dek tuyuladi.

Kelinning yangi oilaga moslashishi uning mijozi turiga ham bog‘liq. Masalan, ko‘proq, xolerik mijoza mansub bo‘lganlar tez moslashadilar. Biroq yengilroq, tezroq va andishasiz kelinlarni yangi oilaga moslashishi qiyinroq kechadi.

Yangi sharoitga oson moslashadigan hamda uni osongina o‘zlashtirishga tayyor bo‘lganlar sangvinik mijozdir.

Flegmatik mijoz esa vazmin, og‘ir karvon bo‘lgani uchun yangi oila sharoitiga sekinlik bilan moslashadi. Bir moslashib olganidan keyin esa uni o‘zgartirishni sira-sira istamaydi, uncha-muncha gap-so‘zga parvo qilmaydi. Melanxolik mijozlar ham shunga yaqin. Ammo sal narsadan ularning ruhi tushib ketadi, bo‘lar-bo‘lmasga xafa bo‘laveradi. Ruhiy jihatdan esa nihoyatda sezgir bo‘lishadi.

Har bir mijoz turining yuqorida berilgan qisqacha shartli xarakteristikasini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olgan qaynona-kelinlarning til topib ketishlari oson ko'chadi.

Ba'zi qaynonalar o'g'lini kelinidan qizg'anadi va oqibatda kelin bilan kelisholmasdan qoladi. Bunday nizolar, odatda kamfarzand yoki yolg'iz o'g'il otasiz oilada o'sgan taqdirda ko'proq uchraydi.

Qaynona-kuyov orasidagi kelishmovchiliklar. Kelishmovchiliklar qaynona bilan kuyov orasida ham bo'ladi. Ichkuyov ba'zi hollarda kelin xonadoniga moddiy jihatdan qaram bo'ladi (hech bo'lmaganda uy-joy masalasida). Qaynona hamisha ham ziyrak va andishali bo'lavermaydi. Kuyovning psixologik hushyorligi oshadi, erki esa birmuncha qisiladi. Bunisi yetmaganday, ba'zan qaynonalar kuyovga noo'rin gaplarni aytib yuboradi, kesatadi (qizim senga aytaman, kelinim sen eshit, qabilida). Betayin qaynonaning yoshlarning oilaviy hayotiga bunday qo'pol ravishda aralashishi turli nizolarni yuzaga keltiradi. Bundan kelin ham og'ir ahvolga tushadi. Bir yoqda eri, ikkinchi tomonda tuqqan validasi o'rtada qozilik qilishga harakat qiladi. Bunday qobiliyat esa hammadam ham bo'lavermaydi. Kelin oqibatda yo onasi yoki eri tomoniga o'tadi. Har ikkala holda ham oila barbod bo'lishi mumkin.

Shunday hollarning oldini olish uchun qaynona yoshlar hayotiga kamroq aralashmog'i kerak. Ba'zi qaynonalar qizini (ayniqsa, rus oilalarida) kuyovidan yoki aksincha o'g'lini kelinidan rashk qiladi. Oqibatda esa yana nizolar paydo bo'ladi. Bunda birinchi holda rashk qiz onaning yolg'iz farzandi ekanligidan kelib chiqadi. Ilgari qizi faqat onasi bilangina maslahatlashgan, dardlashgan bo'lsa, ular orasiga kuyov kiradi. Qizning butun diqqat-e'tibori kuyovga — eriga qaratiladi. Bunda qaynona kuyovni raqib deb biladi. Uning har bir xatti-harakatini kuzatadi. Qizining oldida uning obro'sini tushirmoqchi bo'ladi, kamsitadi. Bunday hollarda ba'zi qaynonalar nima sababdan kuyovining qasdiga tushib qolganini o'zlari ham bila olmaydilar, bunga turli bahonalar topadilar. Aslida esa buning bitta-yu bitta sababi bor — rashk, faqat qizini qizg'anishdir. Bunday holatni kelin erining uyida yashagan juftlarda ham kuzatish mumkin. Bunda yuqorida bayon qilinganidek, qaynona o'g'lini kelinidan qizg'anadi.

Buning oldini olish uchun turmushga chiqqanlaridan so'ng, ayniqsa onasi bilan birga turadigan bo'lsa, undan o'z diqqat-e'tiborini, farzandlik mehr-muhabbatini darig' tutmasligi, yolg'izlatib qo'ymasligi lozim. Qaynonalar ham avvalo, o'z yoshliklarini eslashlari, qolaversa, qizining kuyoviga, o'g'lining xotiniga mehr-muhabbati, e'tibori ular oilasi baxt-saodatining, iqbolining garovi ekanligini unutmasliklari kerak. Ayrim qaynonalar ongsiz ravishda kuyovini o'z eri bilan taqqoslaydilar. U badavlatlikda, jamiyatda egallagan mavqei va boshqa bir jihatlari bilan farq qilishi mumkin. Natijada qaynona nazarida kuyovning obro'yi pasayadi, qarab turibsizki, yana kelishmovchiliklar chiqishiga sabab bo'ladi.

Ajralish va uning oqibatlari

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Nima uchun oilalar buziladi? Ajralish o'zi

nima? Ajralish bu yaxshimi yoki yomonmi? Oilalarning ajralishiga yo'l qo'yish kerakmi?

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlari kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda haqli ravishda agar ajralishlar shu qadar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradigan bo'lsa, uni rasmiy ravishda ta'qiqlab qo'ysa bo'lmaydimi? — degan savol yuzaga kelishi mumkin. Albatta mumkin, masalan, dunyoning ayrim davlatlarida, jumladan, Italiya, Niderlandiyada yaqin-yaqin zamonlargacha ajralish huquqiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayon edi. Biroq bu usul ham oila mustahkamligini ta'minlashda kutilgan natijalarni bermaydi. Balki ajralishni ta'qiqlash, ajralish erkinligini bermaslik, o'z navbatida nikoh yoshining o'sishini, oila qurmaslik, nikohgacha va nikohdan tashqaridagi jinsiy aloqa, psixologik nosog'lom oilalar miqdorining ortishi nikoh-oila munosabatlari zahirida yuzaga keladigan jinoyatlar, qotillik, xiyonat kabilarning ortishiga olib keladi. Albatta bularning ham shaxs, inson ruhiyati, oilada bola tarbiyasi, qolaversa jamiyat uchun zarari oldingilardan kam emas. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ajralish erkinligi deyarli barcha davlatlar nikoh-oila qonunchiligida qayd etilgan. Bu o'rinda muhimi ajralishni ta'qiqlash va unga rasmiy ravishda halaqit qilish emas, balki ajralishlarning oldini olish, unga olib keladigan sabablar va omillarni bartaraf etishdir. Shunday qilib ajralish fojiami yoki fojiadan qutulishmi? Ayrimlar agar oilada farzandlar bo'lmasa bu fojiadan qutulishdir, er-xotinlarning o'zaro munosabatlari maqsadga muvofiq ravishda shakllanmayotgan bo'lsa, ularda o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, bir-birlariga nisbatan emotsional yaqinlik, mehr-oqibat bo'lmasa, oila o'z funksiyalarini bajarmayotgan bo'lsa, bunday juftlar ajralib ketgani ma'qul deb hisoblaydilar.

Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning ahvoli kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbek (qishloqlarda) oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv

darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi.

Ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar

Ko'pincha ajrashayotganlardan ajralish sababini so'ralsa, ular qandaydir hamma uchun standart bo'lib qolgan sabablarni ko'rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o'zga shaxsning aralashuvi», «qo'pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noo'rin aralashuvi» va h. k. Agar tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, vaziyatga qarab, bunday ko'rsatkichlar ba'zilarida sabab, ba'zilar uchun esa bahona vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Yoshlar (er-xotin) o'rtasidagi munosabat qanchalik noxush bo'lsa, bu bahonalar shunchalik kuchli va salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu holatlar ajralishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin.

O'zbek oilalarida: «turмуsh o'rtog'ining qo'polliги», «turмуsh o'rtog'iga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish», «turмуsh o'rtog'ining ota-onasi va boshqa qarindoshlarining aralashuvi», «turмуsh o'rtog'laridan birining oilani umumiy masalalariga befarq qarashi» kabilar ko'proq sabab bo'lsa, Yevropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, er-xotin xiyonati, xarakterlarning mos kelmasligi kabilar qayd etiladi.

Ajralishlarning sabablarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'zbek oilalarida ajralishlarning motivlari sifatida ko'rsatilgan ta'sirlardan asosiylari, yuqorida qayd etilganidek, «turмуsh o'rtog'ining qo'polliги», «ota-onalar va boshqa qarindoshlarning aralashuvi», «bir-biriga nisbatan befarqlik», «er-xotindan birining oilaviy masalalarga nisbatan befarqligi» kabilar ko'rsatilgan.

Shunday qilib, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilalar ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o'ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko'rishga da'vat etmoqda. Chunki yuqorida qayd etilganidek, ajralishlar natijasida millionlab odamlar — eng avvalo, farzandlar, ayollar, qolaversa, erkaklar va hatto ajralishganlarning yaqinlari ham «ma'naviy jarohat» oladilar.

Bularning barchasi o'zbek oilasida ajralish masalasiga jiddiyroq, e'tibor berish lozimligini va uning oldini olish, salbiy asoratlarni kamaytirish chora-tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan qanday xulosa chiqarmog'imiz va shaxsiy hayotimizda nimalarga amal qilmog'imiz, nimalarga e'tibor bermog'miz lozim?

1. Turmush o'rtog'i tanlashda shoshilmang va adashmang. «Nikoh oldi omillari» va o'zga mavzulardan tegishli xulosa chiqarib ish ko'ring.

2. Hayot taqozosi bilan va tajribali kishilar maslahatlariga ko'ra ajralishingiz muqarrar bo'lsa, vaqtni cho'zib o'tirmang va farzand ko'rishdan saqlaning.

3. Ajralish — sizga, turmush o'rtog'ingizga, ota-onalaringizga, (agar bo'lsa) farzandlaringizga imkoni boricha salbiy ta'sir qilmasligi choralarini ko'ring.

Sizning ajralishingiz qarindoshlar orasiga sovuqchilik tushirmasligi, ular orasidagi munosabatlarning buzilishiga olib kelmasligi zarur.

4. Ajralishgan turmush o'rtog'ingiz bilan ijobiy munosabatning saqlab qolinishini ta'minlang. Bu avvalo sizning farzandlaringiz, ota-onangiz, qolaversa, shaxsan o'zingizning manfaatingiz ekanligini unutmang. Er-xotin ajralishi bolalarining otasiz yoki onasiz o'sishiga, ota va onadan ajralishiga olib kelmasligi kerak.

5. Ajralib ketgan eringiz yoki xotiningiz haqida farzandlaringizga salbiy ma'lumotlar berib, u haqda salbiy tasavvur shakllantirishdan saqlaning, chunki bunday tasavvurning shakllanishi bolangizning kelgusi hayotiga, shaxsiy oila munosabatlariga, qaynona-kelin munosabatlariga va farzand — ota-ona munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi.

6. Ajralish eng so'nggi chora! U faqat sizning emas, balki yaqinlaringiz taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini unutmang. Shu sababli bu yuzasidan asossiz yengil qarorlar chiqarishdan saqlaning. Bu borada katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan yaxshi kishilar bilan maslahatlashing.

Imkoniyatingizdan kelib chiqib shu soha mutaxassisi bo'lgan psixolog bilan maslahatlashing.

Kim bilan maslahatlashishdan qat'iy nazar qarorni har tomonlama o'ylagan holda o'zingiz chiqaring va qaror ma'suliyatini o'z bo'yningizga oling.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Oilaviy nizolar yaxshimi yoki yomonmi ?
2. Oilaviy nizolar qanday turlarga farqlanadi?
3. Er-xotin nizolarining xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Biriktiruvchi va ajratuvchi nizolar qanday nizolar?
5. Er-xotin munosabatlarida nizolar qanday rivojlanadi ?
6. Chegaralangan va chegaralamagan nizolar qanday nizolar?
7. Nizolar eskolatsiyasi nima?
8. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar qanday xarakterda bo'ladi?
9. Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar qanday yuzaga keladi va ularning sababi nima?
10. Qaynona-kuyov nizolari qanday xususiyatlarga ega?

11-MAVZU: Oilaviy konsultatsiya O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi

Reja:

- 1.1. Oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari
- 1.2. Oilaning ahloqiy asoslari
- 1.3. Oiladagi so'lom muhit psixologiyasi.

Oilaviy munosabatlarining huquqiy asoslari

Xalol mehnat, samimiyat va muhabbatga asoslangan oilaning jamiyatga munosib avlod hamda yetuk inson b'lib yetishish insonning asosiy burchidir.

Nikohdan o'tib oila ko'rishdan asosiy maqsad inson avlodining davomiyligidir. Jamiyat esa oilalar yilindisidan iboratdir.

Nikohga kirishda yanglishmaslik mustaxkam oila topishiga olib keladi. Ahil, totuv yashash, xalol mehnat va muhabbatga asoslangan oila jamiyatga munosib avlod ahloqli pok, jamiyat ishiga sadoqatli insonni tarbiyalab yetkazishda katta rol o'ynaydi. Yangi avlod esa jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy qurilishning avj olishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlar - sof «shaxsiy munosabatlar» emas oila va oilaviy munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga, ularning ma'naviy boyligiga bevosita daxldordir. SHuning uchun oila va oilaviy munosabatlar o'yoat muhim ijtimoiy normalar-huquqiy normalar bilan tartibga solingan.

O'zbekiston jumxuriyatimizning nikox va oila kodeksida munosabatlarning quyidagi asosiy printsiplari belgilangan: yakka nikoxli printsipti. Bu printsiptga ko'ra, har bir fuqoro faqat bitta nikoxda bo'lishi mumkin. Nikoxning ixtiyorligi va o'zaro rozilik printsiplari; Bu printsiptga muvofiq xar bir erkak va ayol o'ziga yoqqan shaxs bilan o'z ixtiyoricha nikoxga kirishi mumkin. Xech kimning, biror shaxsning majbur qilishi va tazyiqi bilan nikoxdan o'tishga yo'l qo'yilmaydi.

Ajralishning erkinligi. Oila u yoki bu sabab bilan buziladigan bo'lib qolsa, er va xotin bir-birlaridan ajralish xuquqiga egadirlar. Ammo ajralish ishi davlat tomonidan nazorat qilinadi

Oilada va oilaviy munosabatlarda er va xotinning teng xuquqligi. Bu printsiptning mazmuni shuki, shaxsiy va mulkiy xuquqda er va xotin tengdir. Oilaviy munosabatlarni xal qilishda ham er va xotin baravar xuquqqa egadir.

Eng ko'p ajralishlar ota-onalar yosh oilaning ishlariga noo'rin aralashuvi oqibati ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Gap shundaki, ota-onalar ul'aygan o'liga, turmushga chiqqan qiziga endi voyaga yetgan, o'z fikrini anglay ololmaydigan, o'z mulohazasiga ega bo'lgan barkamol kishilar deb emas, balki «haliyam bola» qabilida qaraydilar, oilaviy hiyonat ularning o'ziga qo'yib bermasdan behuda homiylik qiladilar, turmushlariga va oilaviy ishlariga aralashaveradilar, natijada bachkana, arziyas gap so'z ko'payib, o'z yo'lidan borayotgan tuppa-tuzuk oila izdan chiqadi. «Xarakterlarning to'ri kelmasligi» umumiy tushunchadir. Aslida buning sababi er-xotinning bir-biridan ustunlikka, oilada har kim o'zicha «hokimlikka» intilishi, er tomonidan xotinning h'rlanishi yoki urning oiladagi ziqnaligi, o'zaro nizolarga bardoshsizligi va hokazolardan iborat bo'ladi.

Oila inson xayotiga to'kislik ba'ishlaydi, oila baxt keltiradi, lekin har bir oila, ayniqsa mustaqil jamiyatdagi oila, eng avvalo davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qutlu' ishdur. (A.S.Makarenko)

Oila inson jamiyatining tabiiy rivojlanishi asosidir. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan jamiyatning yacheykasi. Nikoxdan keyin ikki yoshning munosabatlariga asoslangan turmush, bu yoshlarning farzandlari tu'ilib, asta-sekin shaxs sifatida har tomonlama kamolotga erishishadi, farzandlar individdan shaxsga aylana boshlaydi. Endi oiladagi ikki kishi o'rtasidagi munosabatlar uch yoki undan ko'proq kishilar o'rtasidagi munosabatlarga aylanadi. Ehtiyojning ko'payishi munosabatlarni murakkablashtiradi.

Oila o'z-o'zidan hech bir qiyinchiliksiz baxtga, oila extiyojlarining yaxshilanishi, mustahkamligi va shunga o'xshashlar amalga oshadi,-deyishi

noto'ri bo'ladi. Buning uchun er va xotindan yuqori darajadagi odob-ahloq, etik-etetik tayyorgarlik, qobiliyat, sadoqatlilik, sabr-toqatlilik kabi ahloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etishni talab etadi. Bular o'rtasidagi ahloq, ahloqiy munosabatlar esa 'z navbatida farzandiga ta'sir qiladi. Chunki, farzand dunyoga kelgan birinchi kundanoq ota-ona, aka-opalari mehr-muhabbatidan oziqlanadi. Demak, bolaning ma'naviy-madaniy shakllanishida oilaning roli beqiyosdir.

Ma'naviyat – deb ta'kidlaydi, I.Karimov,- insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi», deganida juda haqqoniy gapni aytgan edi. Darhaqiqat, oilaning shakllanishiga iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqarish usulining rivojlanishi va o'zgarishi bilan ko'rsatadi. Ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va o'zgarishi esa, oilaviy munosabatlarning ham rivojlanishiga olib keladi.

Sobiq sovet xokimiyati oilada xotin-qizlarning kamsitishi, ularni ho'rlash va zo'ravonlik hukmronligi ostida saqlash xollarini tugatdi, eski burjua qonunlarini bekor qildi, nikoh va oila masalasida erkaklarga alohida imtiyoz beruvchi qonunlar batamom tugatildi. Xotin-qizlarni hurmatlaydigan va e'zozlaydigan, ularga oilada va ijtimoiy xayotda erlar bilan bir safda turib ishlash huquqini beradigan, sotsialistik jamiyatda mustashkamlash uchun kurashda faol qatnashishlarini ta'minlaydigan dekretlar e'lon qilindi. Konferentsiyada xotin-qizlar manfaatiga bevosita dahldor muammolarini yanada zo'r \ayrat bilan xal etishga jiddiy e'tibor berildi. Rahbarlik organlarida xotin-qizlarning vakillari keng miqyosda qatnashishi kerakligi uqtirildi. Ularning jamiyatdagi va siyosiy xayotdagi roli oshirilishi, onaning obro'si va huquqlari himoya qilinishi, uning o'z vazifalarini bajarish uchun sharoit yaratib berilishi, yosh oilalarga \amho'rlikni kuchaytirish zarurligi alohida qayd etildi. Er-xotinning bir-biriga ko'makchi bo'lishi an'ana tusini oldi. Oilaning hamma a'zolari ro'z\orni yuritishga o'z xissasini qo'shadigan bo'lib qoldi. Xotin-qizlarning mehnat jarayonida ishtirok etishi ularning tobora kamol topishiga yordam beradi, ong, bilim doiralarini kengaytiradi, xayotning xamma soxalarida erkaklar bilan tenglashuvini ta'minlaydi, obro'-e'tiborini oshiradi.

«Oila qurish - yoshlar zimmasiga katta ma'suliyat to'ri tushunib olish oilani (ma'suliyat yuklashini to'ri) mustaxkamlaydigan omillardan biridir. Erkak bilan ayolning bir-birini sevishi, xurmatlashi va bolalarni shu ruxda tarbiyalashga asoslangan qovushishi axloqiy qovushishidir. Oilaning ildizi farzanddir. Bolalar tarbiyasi va kamolotida oiladagi muxit, bolalarni qurshagan oilaviy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Oiladagi so'lom muxit, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro xurmat bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya \oyat murakkab jarayon bo'lib, o'zining ichki qonuniyatlariga ega. Ota-onaning mexri, muruvvati, \amxurligi bolalar uchun suv va xavoday zarurdir.

Oilaviy xayot extimolki, xech qachon sidir\asidan, quvonchdan iborat bo'lolmaydi. Faqat shodu-hurramlikkagina emas, \amu-anduhga ham, tashvishu baxtsizlikka ham sherik bo'la bil. (V.A.Suxomlinskiy).

Ul\ayayotgan shaxsda ijobiy sifatlar shakllanishida oiladagi so'lom muhit katta ahamiyat kasb etadi. Oilada so'lom muhitning saqlanishi ko'p omillarga bo'liq. Masalan, oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon qariyalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari

to'ri tarbiyalangani, ota-onaning bolalari tarbiyasiga barobar jonkuyarlighi, oilada o'rnatilgan to'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy xayot xodisalariga to'ri munosabatda bo'lish kabilar shular jumlasidandir.

Bularning qay birida mutanosiblik buzilsa, demak, shu oiladagi so'lom muhitga putur yetadi. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir. Oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mexribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak.

Bolalarga onani hurmat qilishga, unga mexribon bo'lishni o'rgatish ota-onaning muhim vazifasidir.

Odatda o'il otasiga, qiz bola onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga xarakat qiladi. Ota ham ona ham bolani tarbiyalashga o'z xissalarini qo'shadilar. Ona amho'r, mexribon, ko'ngilchan o'y bekasi bo'lsa, ota - kuch-qudrat, jasurlik, qattiqqo'llik va adolat ramzi. Ota ko'proq bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qay'ursa, ona ham bolalarning aqliy, ahloqiy, jismoniy, ruhan va ma'nan kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu jarayonning muvaffaqiyatli bajarilishi, ko'p o'rinda ota-onaning obr'siga bo'liq. Manfaatlari umumiy bo'lgan ahil oilada yaxshi odat, an'analar vujudga keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

Oila munosabatlaridagi huquqiy asoslar nimalardan iborat?

1. Oilaning ahloqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. So'lom muhit psixologiyasi shakllanishi uchun oila qanday tashkil qilinishi kerak deb hisoblaysiz?
3. Oila va nikox deganda nima deya olasiz?

Tayanch tushunchalar.

1. Etika - urf-odat, ahloqiylik, ma'naviylik haqidagi ta'limot.
2. Estetika - go'zallik, san'atning barcha turlari, tabiat va turmush go'zalligi va did ko'rinishlaridir.
3. Emotsiya - (hayajonlantiraman, iztiroblayman,) - his-hayajon, tuy'uning bir turi bo'lib, u yoqimli va yoqimsiz kechinmalardan iborat.
4. Empatiya - boshqa kishilarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Oilaviy xayot etikasi va psixologiyasi. O.To'raeva. Tosh-t. o'qit. - 1990.y.
- 2.Yusupov E., Ismoilov. Inson odobi bilan. T., o'zb-n., 1983.y.
- 3.Mirtursunov.Z.F. o'zbek xalq pedagogikasi. T., «Fan», 1973.y.
- 4.Oila pedagogikasi. A.Munavvarov. Xalq pedagogikasi va ma'naviy qadriyatlar tarbiya manbai.
- 5.Talabalar uchun psixologiyasidan topshiriqlar. L.P.Xoxlova. T., o'qit. - 1992.y.
- 6.Mirzakalon Ismoilov. Odamiylik qissasi. T., «o'zbek-n», 1975.y.
- 7.Psixologiya v sem'е. I.Plotnieks. Moskva. «Pedagogika» 1991.y.
- 8.Oila tayanchi.Ilmiiy maqolalar to'plami., Toshkent - 1998.y. T.D.P.U.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakl va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
 - Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
 - Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
 - Talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
 - Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari;
- Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Ijtimoiy va oila psixologiyasi fanining predmet va vazifalari.
2. Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya predmet va vazifalari.
3. Ijtimoiy psixologiya fanining tarixi. Uning rasman tan olinishi.
4. Xalqlar psixologiyasi nazariyasi va uning asosiy goyasi.
5. Omma psixologiyasi nazariyasi. Ijtimoiy xulq atvor instinktlari nazariyasi.
6. Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va tarixi.
7. Insoniyat tarixi mobaynida ijtimoiy qarashlarning rivojlanganligi.
8. Sharq faylasuflari asarlarida ijtimoiy psixologik qarashlar.
9. Ijtimoiy muxitning shaxsga tasir masalasi.
10. Sotsiogenetik yo'nalish.
11. Biogenetik yo'nalish. Biosotsiogenetik yo'nalish.
12. Shaxs tomonidan ijtimoiy tasirlarning anglanishi.
13. Oila psixologiyasi fanining predmeti
14. Oila va nikox- ijtimoiy psixologiyaning predmet.
15. Oila va nikox sohasidagi ishlarning ijtimoiy xarakteri.
16. Olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash masalasi.
17. Insonlar jamoasi tarixida oila va nikox evolyutsiyasi.
18. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi shaxs rivojlanishiga oilaning tasiri xaqida.
19. Oila va nikox tushunchalarini boshqarish.
20. Tarixiy taraqqiyotda oila nikox munosabatlarini boshqarishning shakllari.
21. Guruxiy nikox.
22. Komandariya.
23. Poligomiya.
24. Monologiya.
25. Endogomiya.
26. Nikox oila munosabatlarining shakllari

Oraliq nazorat savollari.

6- semestr

1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmet va vazifalari.
2. Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya predmet va vazifalari.

3. Ijtimoiy psixologiya fanining tarixi. Uning rasman tan olinishi.
4. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbasi. "Xalqlar psixologiyasi nazariyasi va uning asosiy muloqot va shaxslararo munosabat.g'oyasi.
5. Omma psixologiyasi nazariyasi.
6. Ijtimoiy xulq atvor instinktlari nazariyasi
7. Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi va tarixi.
8. Insoniyat tarixi mobaynida ijtimoiy qarashlarning rivojlanganligi. Shark faylasuflari asarlarida ijtimoiy psixologik qarashlar. (Farobiy asarlari).
9. Fanning Rusiya va sobiq ittifoqda rivojlanishi.
10. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlar. Bu soxdagi muammolar
11. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari
12. Ijobiy tomonlari va kamchiliklari.
13. Ijtimoiy psixologiyada eksperiment metodi. Uning turlari.
14. Ijobiy tomonlari va kamchiliklari.
15. Ijtimoiy psixologiyada hujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
16. Ijtimoiy hodisalarni kontent-analiz usulidada tekshirish. So'rov, anketa va test usullari.
17. Mulokot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning mavzusidir.
18. Shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
19. Mulokot shakllari va bosqichlari.
20. Muloqot turlari.
21. Mulokot shakllari va vositalari.
22. Muloqot bosqichlari.
23. Mulokotning psixologik tizimi.
24. Mulokotning kommunikativ tomoni.
25. Kommunikatsiya muloqotning ma'lumotlar almashinuvchi jarayoni sifatida.
26. Nutk- muloqot vositasi.
27. Noverbal va verbal nutq shakllari.
28. Mulokotning interaktiv va perseptiv tomonlari.
29. Mulokotning interaktiv tomoni.
30. Mulokotning perseptiv tomoni.
31. Mulokotda psixologik ta'sir masalasi.
32. Muloqotda nizolar.
33. Nizo psixologiyasining mohiyati.
34. Mulokot jaraynida nizolarning vujudga kelish sabablari. Ularni bataraf etish usullari (raqobat, yon berish, passivlik, kompromiss, hmkorlik).
35. Ijtimoiy psixologiyada kichik guruxlar muammosi.
36. Kichik guruxlar psixologiyasi.
37. Kichik guruxlarning klassifikatsiyasi. Kichik guruxning inson xayotidagi urni.
38. Ijtimoiy psixologiyada guruxlar muammosi.
39. Guruh haqida tushuncha. Guruh turlari.
40. Katta ijtimoiy guruxlar psixologiyasi. Etnik guruxlar psixologiyasi..
41. Omma psixologiyasi. Kichik guruxlardagi dinamik jarayonlar. Kichik guruxlardagi dinamik jarayonlar.
42. Guruxlarda liderlik muammosi. Kichik guruxlardagi qonuniyatlar.
43. Dastlabki etnopsixologik qarashlar ularning rivojlanishi.
44. Etnopsixologik

tadqiqotlarda koʻllaniladigan metodlar

45. Etnopsixologik tadqiqotlar oʻtkazish va ularning oʻziga xos jixtlari.
46. Oʻzbekistondagi etnopsixologik xolatlar.
47. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi. Shaxs va jamiyat muammosi.
48. Shaxs, individ, individuallik tushunchalari.
49. Shaxsning tuzilishi. Shaxsdagi men obrazi va oʻz-oʻzini anglash.
Shaxsda ximoya mexanizmi va uning mohiyati.
50. Shaxs tiplari. Shaxs shakllanishiga tasir koʻrsatuvchi omillar.
Ijtimoiy muxitning shaxsga tasir masalasi. Sotsiogenetik yoʻnalish.
Biogenetik yoʻnalish. Biosotsiogenetik yoʻnalish.
51. Shaxs tomonidan ijtimoiy tasirlarning anglanishi. Ijtimoiy tasir turlari. Ijtimoiy normalar va ijtimoiy sanksiyalar. Ijtimoiy rol tushunchasi. Rollar toʻqnashuvi.
52. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylagshuv tushunchasi.
53. Ijtimoiylashtiruvchi maskanlar. Shaxs ijtimoiylashuvining soxlari va bosqichlari. Ijtimoiy ustanovkalar. Ijtimoiy ustanovka tushunchasi.
54. Ustanovkalarning 4 boskichli tizimi. Ustanovkalarning faoliyat va muloqot jarayonida namoyon boʻlishi.
55. Boshqaruv psixologiyasi. Boshqaruv psixologiyasi asoslari. Guruxlarda boshqaruv usullari. Lider va raxbar orasidagi farqlar. Raxbarlik sifatlari.
56. Liderlik nazariyalari. Liderlikning 3 nazariyasi. Liderlikning vaziyatga bogʻliqlik nazariyasi. Liderlik sifatlari nazariyasi. Liderlikning sintetik nazariyasi.
57. Sanoat ijtimoiy psixologiyasi.
58. Sanoat ijtimoiy psixologiyasi-ijtimoiy psixologiyaning predmeti. 59. Sanoat korxonalarida kuzatiladigan psixologik holatlar. Ularning psixologik talqini.
60. Oila va nikoh sohasidagi ishlarning ijtimoiy xarakteri.

Yakuniy nazorat variantlari.

6 semestr.

1- variant.

1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmet va vazifalari.
2. Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiya predmet va vazifalari.
3. Ijtimoiy psixologiya fanining tarixi. Uning rasman tan olinishi. 4. Ijtimoiy psixologiyaning uch nazariy manbasi. "Xalqlar psixologiyasi nazariyasi va uning asosiy muloqat

2- variant.

1. Ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishi.
2. Mulokot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi.
3. Ijtimoiy psixologiyada gurux tushunchasi.
4. Etnopsixologiya

3- variant.

1. Mulokotning psixologik tizimi.
2. Mulokotning kommunikativ tomoni.
3. Kommunikatsiya muloqotning maʼlumotlar almashinuvchi jarayoni sifatida.
4. Nutk- muloqot vositasi.

4- variant.

- 1.Shaxs tiplari.Shaxs shakllanishiga tasir ko'rsatuvchi omillar. Ijtimoiy muxitning shaxsga tasir masalasi. Sotsiogenetik yo'nalish. Biogenetik yo'nalish. Biosotsiogenetik yo'nalish.
- 2..Shaxs tomonidan ijtimoiy tasirlarning anglanishi. Ijtimoiy tasir turlari. Ijtimoiy normalar va ijtimoiy sanksiyalar. Ijtimoiy rol tushunchasi. Rollar to'qnashuvi.
- 3.Shaxsning ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv tushunchasi. 4.Ijtimoiylashtiruvchi maskanlar. Shaxs ijtimoiylashuvining soxlari va bosqichlari.Ijtimoiy ustnovkalar. Ijtimoiy ustnovka tushunchasi.

5- variant.

- 1.Ustnovkalarining 4 boskichli tizimi. Ustnovkalarining faoliyat va muloqot jarayonida namoyon bo'lishi
2. Shaxs ijtimoiylashuvining soxalari va bosqichlari.
3. Shaxs tiplari.Shaxs shakllanishiga tasir ko'rsatuvchi omillar.

6- variant.

- 1.Oila va nikoh sohasidagi ishlarning ijtimoiy xarakteri. Bu borada kiziqishlarning vujudga kelishi. Olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash masalasi.
- 2.Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish muammosi.
- 3.Psichologik xizmatning dolzarbligi. Maktab muxitida Amaliy psichologning ish faoliyati.
- 4.Assosiy yo'nalishlar- diagnostika, konsultatsiya, psichoprofilaktik ishlar.

7- variant.

- 1.Liderlik nazariyalari.
- 2.Liderlikning 3 nazariyasi.
- 3.Liderlikning vaziyatga bog'liklik nazariyasi.
- 4.Liderlik sifatlari nazariyasi. Liderlikning sintetik nazariyasi.

8- variant.

- 1.Sanoat ijtimoiy psichologiyasi
- 2..Mulokotning interaktiv va perseptiv tomonlari.
- 3.Mulokotning interaktiv va perseptiv tomoni.
- 4.Mulokotda psichologik ta'sir masalasi.

Ижтимоий ва оила психологияси фанидан тест саволлар

№	Savol	A	B	C	D
1	Ижтимоий психология фани қачон фан сифатида эътироф этилган ва унга кимлар асос солган	1979 йил Э Росси	1875 йил В. Макдугалл	1926 йил Э. Росси	* 1908 йил В. Макдугалл.
2	“Ижтимоий психологияга” кириш китоби кимга тегишли.	* В. Макдугалл	И.Павлов.	Э.Росси.	В. Вунт.
1	“Ижтимоий психология” китоби кимга тегишли.	И. Павлов.	В. Макдугалл	* Э. Россе.	В.Вунт.
1	Ижтимоий психологияда қўлланиладиган кузатиш методининг асосан нечта шакли мавжуд.	1та	2та	* 3та	4та
1	Ижтимоий психологияда қўлланиладиган кузатиш методини асосан қандай шакллари мавжуд.	* Қўшилиб кузатиш, ташқи кузатиш, муҳим вазиятларни қайд этиш	Қўшилиб кузатиш, ташқи кузатиш, ички кузатиш.	Муҳим вазиятларни қайд этиш, қўшилиб кузатиш, ташқи кузатиш.	Кузатиш, ташқи кузатиш, ички кузатиш.
1	Ижтимоий психологияда қўлланиладиган асосий методни кўрсатинг.	*Кузатиш, контент таҳлил, сўров, анкета, ижтимоий психологик тестлар, ижтимоий психологик экспериментлар , проектив метод.	Кузатиш, лаборатория, муҳим вазиятларни қайд этиш.	Кузатиш, социометрик, сўров, анкета, фаолият таҳлилини ўрганиш.	Сўров, анкета, ижтимоий психологик тестлар, ижтимоий психологик экспериментлар .
1	Амалиётда фаолият кўрсатувчи психолог жойларда 3 асосий функцияни бажаради.	Эксперт, психолог, маслаҳатчи.	*Эксперт, маслаҳатчи, ўргатувчи	Психолог, маслаҳатчи, социолог	Психолог, маслаҳатчи, ўргатувчи.
1	Сўров методи нималарга асосланади?	*Сухбат, интервью, анкета.	Маълумот тўплаш, сухбат	Интервью, тадқиқот, сухбат.	Сухбат, интервью, тадқиқот
1	Ижтимоий психология фани қачондан бошлаб эътироф этила бошлаган ва унга кимлар асос солган?	*1908й В. Макдугалл, Э Россе	1908 й Д.А. Ли.	1909 й В. Макдугалл	1910й Э.Россе, Д.А. Ли
12	Ижтимоий психологиянинг мавзу баҳси ва у ўрганадиган соҳалар борасида турлича	2хил социологик,	1хил	3хил социологик,	*3хил социологик,

	карашлар ва тортишувлар неча хил ёндашувлар билан эътироф этилади.	психологик	социологик	психологик, идеалистик	психологик, ҳам социологик ҳам психологик
2	Ижтимоий психология фани нимани ўргатади?	Одамларни жамиятда биргаликдаги фаолиятлари натижасида уларда ҳосил бўладиган тасаввурларни.	Уларда ҳосил бўладиган эътиқодларни	Ҳиссий кечинмалар ва ҳуққ атворларни тушунтариб беришни.	* А, Б, С жавоблар
2	Ижтимоий психологияда мулоқотнинг қандай тузилишлари мавжуд?	Мулоқотнинг интерактив, перцептив томони.	Мулоқотда ахборот алмашилиш	* Мулоқотнинг коммуникатив, интерактив, перцептив томони	Мулоқотнинг коммуникатив, ахборот алмашилиш томони
2	Мулоқотнинг коммуникатив томони –	*Бу шахслараро ахборотлар, билимлар, ғоялар, фикрлар алмашинуви.	Кишиларнинг биргалакдаги фаолиятда бир-бирларига амалий жихатдан таъсир этишлари.	Мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок этишлари ва тушинишлари билан боғлиқ бўлган мураккаб психологик жараён.	Шахсларнинг бир-бирларини тушиниш жараёни
2	Мулоқотнинг интерактив томони –	Бу шахслараро ахборотлар, билимлар, ғоялар, фикрлар алмашинуви.	* Кишиларнинг биргалакдаги фаолиятда бир-бирларига амалий жихатдан таъсир этишлари.	Мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок этишлари ва тушинишлари билан боғлиқ бўлган мураккаб психологик жараён.	Шахсларнинг бир-бирларини тушиниш жараёни.
2	Мулоқотнинг перцептив томони –	Бу шахслараро ахборотлар, билимлар, ғоялар, фикрлар алмашинуви.	Кишиларнинг биргалакдаги фаолиятда бир-бирларига амалий жихатдан таъсир этишлари.	* Мулоқотга киришувчиларнинг бир-бирларини идрок этишлари ва тушинишлари билан боғлиқ бўлган мураккаб психологик	Шахсларнинг бир-бирларини тушиниш жараёни

				жараён.	
2	Этнопсихология нимани ўрганади?	Айрим миллатлар психологиясида н ташқари турли халқлар психологиясини , кичик миллий гуруҳларни ҳам ўрганади	Халқ психологиясини ўрганувчи фан.	Этник гуруҳлар психологиясини ўрганувчи фан.	Омма психологиясини ўрганувчи фан.
2	Роршархнинг “сиёҳ доғлари” тести, тематик апперцепцион тест, бошлаган жумлаларни тугатиш тести, фотосуратларни баҳолаш тести, Ловенфельднинг мозаикалар тести қайси методга киради.	Тест методига	* Проектив методга	Интервью методига	Таъриба методига
3	Референт гуруҳ тушунчасини биринчи бўлиб фанга ким киритган? Нечанчи йилда?	1979 йил В.Мёде.	* 1942 йил Г.Хаймен.	1908 йил Э. Россе.	1908 йил В. Макдугалл
3	Брейнсторминг технологиясини биринчи бўлиб ким таклиф этган?	* 30-йилларда А.Олборн.	40- йилларда Г.Хаймен.	10- йилларда Э. Россе.	30- йилларда В. Мёде
3	“Тренинг” сўзини маъносини кўрсатинг?	* Ўргатиш, машқ.	Билимдонлик.	Бошқариш.	Тайёрлаш, машқ,
3	Фаол ижтимоий психологик тайёрлов методларни шартли равишда қандай гуруҳларга бўлинади?	Мунозара, баҳс	Ўйин, мунозара	* Мунозара, ўйин, перцептив тренинг	Ўйин, перцептив тренинг
3	Баҳс ва мунозара ҳақида биринчи илмий психологик хулосалар қилган олим номини кўрсатинг. Тренинг гуруҳида фикрларни тезлатувчилар нима деб аталади.	А.Олборн Генераторлар.	Г.Хаймен *Катализаторлар.	Д.Н.Граплет. В. Мёде Танкидчилар.	* Жан Пиаже, К. Левин Тортишувчилар .
3	“Сензитив” сўзининг маъноси.	Машқ.	Билимдонлик.	Тайёрлаш.	* Сизгирлик.
3	Перцептив ва сензитив тренингда нечи киши қатнашади ва қанча вақт давом этади.	* 6-15 киши 2 суткадан 4 ҳафтагача	15-20 киши 1 кун	15-20 киши 2ҳафтадан 4ҳафтагача	10-20 киши 2 ҳафта

1	Сензитив тренингни АҚШ олими Г.Смит қандай турларга фарқлаган.	*Кузатувчанлик ка асосланган сензитивлик, назарий сензитивлик, номотетик, идиографик сензитивлик.	Назарий сензитивлик, амалий сензитивлик, номотетик, идиографик сензитивлик.	Ўзига хос сензитивлик, номотетик, идиографик сензитивлик.	Назарий сензитивлик, номотетик, идиографик сензитивлик.
1	Сензитив тренингни неча боскичи мавжуд.	Кириш, хулоса боскичи.	Кириш, мустаҳкамлаш, хулоса боскичи.	* Кириш, ўзгариш, мустаҳкамлаш.	Мустаҳкамлаш, хулоса боскичи.
1	Брейнстормингни маъносини кўрсатинг.	Мозговая атака.	Тилга нима келса айтиш.	* Мияга хужум, фикрлар тўкнашуви.	Эркин ассоциация.
2	Бошқарувнинг қандай услублари мавжуд.	Раҳбарлик, лидерлик.	* Авторитар, демократик, либерал.	Раҳбарлик, демократик, либерал.	Лидер, демократик, либерал.
2	Қандай лидерлар мавжуд.	*Интеллектуал, эмоционал, иродавий лидер.	Яхши, ёмон лидер	Адекват, ноадекват, ўртача.	Иродавий, яхши, ёмон лидер.
2	Авторитар раҳбарга хос хусусиятларни кўрсатинг.	* Ходимларга дўк –пуписа, кескин таъқиқлаш каби оҳанглардан фойдаланади	Ходимларга мустақиллик, эрк бериш тарафдори, ўртоқларча муносабатда.	Лоқайд услубда ишлайдиган раҳбарнинг кайфиятини, ишга муносабатини, ишдан мамнун ёки мамнун эмаслигини билиш қийин, жамоада ҳамкорлик йўқ.	Лидерлик сифатларини ўзлаштирган.
2	Демократик раҳбарга хос хусусиятларни кўрсатинг.	Ходимларга дўк –пуписа, кескин таъқиқлаш каби оҳанглардан фойдаланади.	* Ходимларга мустақиллик, эрк бериш тарафдори, ўртоқларча муносабатда.	Лоқайд услубда ишлайдиган раҳбарнинг кайфиятини, ишга муносабатини, ишдан мамнун ёки мамнун эмаслигини билиш қийин, жамоада ҳамкорлик йўқ.	Лидерлик сифатларини ўзлаштирган.
1	Либерал раҳбарга хос хусусиятларни кўрсатинг	Ходимларга дўк –пуписа, кескин таъқиқлаш каби оҳанглардан фойдаланади.	Ходимларга мустақиллик, эрк бериш тарафдори, ўртоқларча	* Лоқайд услубда ишлайдиган раҳбарнинг кайфиятини, ишга	Лидерлик сифатларини ўзлаштирган.

			муносабатда.	муносабатини, ишдан мамнун ёки мамнун эмаслигини билиш қийин, жамоада хамкорлик йўқ.	
1	Энг яхши раҳбар ўзида қўйидаги хусусиятларни ўзлаштиради.	Ходимларга дўқ –пуписа, кескин таъқиқлаш каби оҳанглардан фойдаланади.	Ходимларга мустақиллик, эрк бериш тарафдори, ўртоқларча муносабатда	Лоқайд услубда ишлайдиган раҳбарнинг кайфиятини, ишга муносабатини, ишдан мамнун ёки мамнун эмаслигини билиш қийин, жамоада хамкорлик йўқ.	*Барча лидерлик сифатларини мужассамлаштирган бўлади.
1	Қайси мамлакатда асримиз бошларида кичик гуруҳ муаммоси кўплаб экспериментал тадқиқотларни бошлаган.	Англияда.	Италияда.	Россияда.	* Америкада.
3	“Диспут” сўзининг луғавий маъноси нима?	Гапиряпман, ўйлаяпман.	Ҳаёл қияпман, фикр юритяпман.	* Фикрлаяпман, тортишяпман.	Мулоқот қияпман, сўзлашяпман
3	Интеллектуал лидерга хос хусусиятларни кўрсатинг.	Гуруҳ ичида энг хазилкаш, кўнгил сўровчи	*Гуруҳ аъзолари ичида энг билағони, ақл ўргатувчи, топқир	Гуруҳни иш фаолиятга чорлайдиган дадил, қаътиятли, иродали.	Гуруҳни ижтимоий ҳимоя қилувчи
2	Эмоционал лидерга хос хусусиятларни кўрсатинг.	*Гуруҳ ичида энг хазилкаш, кўнгил сўровчи.	Гуруҳ аъзолари ичида энг билағони, ақл ўргатувчи, топқир	Гуруҳни иш фаолиятга чорлайдиган дадил, қаътиятли, иродали.	Гуруҳни ижтимоий ҳимоя қилувчи
2	Иродавий лидерга хос хусусиятларни кўрсатинг.	Гуруҳ ичида энг хазилкаш, кўнгил сўровчи.	Гуруҳ аъзолари ичида энг билағони, ақл ўргатувчи, топқир.	* Гуруҳни иш фаолиятга чорлайдиган дадил, қаътиятли, иродали.	Гуруҳни ижтимоий ҳимоя қилувчи
2	Анкета методига киритилган саволлар мазмунига кўра	* Очик ва ёпиқ.	Валидлик ва оддий.	Интелект ва махсус.	Ўз фикрини баён этиш

	қандай турларги бўлинади.				
	43. Сензитив тренингни неча босқичи мавжуд.	Кириш,хулоса босқичи.	Кириш, мустаҳкамлаш, хулоса босқичи	* Кириш, ўзгариш, мустаҳкамлаш.	Мустаҳкамлаш, хулоса босқичи.
2	Брейнстормингни маъносини кўрсатинг.	Мозговая атака.	Тилга нима келса айтиш.	* Мияга хужум, фикрлар тўқнашуви.	Эркин ассоциация.
3	Перцептив ва сензитив тренингда нечи киши қатнишади ва қанча вақт давом этади.	* 6-15 киши 2 суткадан 4 ҳафтагача	15-20 киши 1 кун	15-20 киши 2ҳафтадан 4 ҳафтагача	10-20 киши 2 ҳафта
3	46. Ижтимоий психологик аҳамиятга эга бўлган катталар ўйини асосан қандай вазифани бажаради.	Маълум ижтимоий билимларни эгаллаш.	Зарур установакаларни шакллантириш.	*А ва Б жавоблар.	Табиийлик, ҳиссийлик, эмоционал жиҳатларнинг борлиги
3	Брейнсторминг технологиясини биринчи бўлиб ким таклиф этган?	* 30-йилларда А.Олборн.	40- йилларда Г.Хаймен.	10- йилларда Э. Россе.	30- йилларда В. Мёде
3	“Тренинг” сўзини маъносини кўрсатинг?	* Ўргатиш, машқ.	Билимдонлик.	Бошқариш.	Тайёрлаш, машқ,
2	Фаол ижтимоий психологик тайёрлов методлари шартли равишда қандай гуруҳларга бўлинади?	Мунозара, баҳс	Ўйин, мунозара	* Мунозара, ўйин, перцептив тренинг	Ўйин, перцептив тренинг
2	Роршархнинг “сиёҳ доғлари” тести, тематик апперцепцион тест, бошлаган жумлаларни тугатиш тести, фотосуратларни баҳолаш тести, Ловенфельднинг мозаикалар тести қайси методга киради.	Тест методига	* Проектив методга	Интервью методига	Тажриба методига
2	Оила психологиясининг вазифаси қуйидагилардан қайси бирида кўрсатилган?	Оила бюджети, оила ишлаб чиқариши, оилавий истеъмоли, меҳнат тақсимоли	Оила бюджети, оила ишлаб чиқариши, оилавий истеъмоли, меҳнат тақсимоли	Никоҳнинг физиологик жиҳатларини ва уларнинг оқибатларини	*Никоҳ-оила муносабатларид а номоён бўладиган ҳиссий, тасаввур, урф-одатларни руҳий ходисаларнинг ижтимоий табиий

					манбаларини
2	Никоҳ нима?	Йигит ва қиз ўртасидаги муносабат	Эркак ва аёл ўртасидаги муайян иттифокни ва бу иттифокнинг жамият, давлат томонидан тан олиниши	Йигит ва қиз ўртасидаги муносабат	*Эркак ва аёл ўртасидаги муайян иттифокни ва бу иттифокнинг жамият, давлат томонидан тан олиниши
2	Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси” қачон тасдиқланган?	1995 йил 30 май	1995 йил 30 май	1998 йил 30 апрель	*1998 йил 30 апрель
2	“Никоҳ” сўзи қайси миллат тилидан келиб чиққан?	Грекча	Юнонча	Юнонча	*Арабча
2	“Никоҳ” сўзи қандай маънони англатади?	Шартнома	Муносабат	Муносабат	*Қушилиш
2	Никоҳдан ўтувчи шахсларнинг ўзаро розилиги Ўзбекистон Республикаси “Оила кодекси”нинг нечанчи моддасида кўрсатиб ўтилган?	*17-модда	*18-модда	14-модда	16-модда
2	Республикаимизда “Оила йили” деб эълон қилинган йил?	1992 йил	1992 йил	1994 йил	*1998 йил
2	«Аёллар йили» деб нечанчи йил эълон қилинган?	1989 йил	1898 йил	1898 йил	*1999 йил
2	“Эструс” – деб нимага айтилади?	Шартнома тузиш	Ўзаро келишув	*Қўшилишг а мойиллик	Мулоқотга киришиш
3	“Табу” – деб нимага айтилади?	Қовушиш	Сухбатлашиш	*Қаттиқ таъқиқ	Ўзаро муносабатг а киришиш
3	Экзогам никоҳ - нима?	Шартнома асосида тузилган никоҳ.	* Уруғлараро , қабилалараро никоҳ	Манфаат кўзланган никоҳ	Ноқонуний никоҳ
3	Жуфт никоҳлар қачон ташкил топган	23-22 йил илгари	* 25-24 йил илгари	20-23 йил илгари	25-26 йил илгари

3	Ҳозирги замон оилаи қанлай оиладан иборат?	Экзогем	Жуфт никоҳ	Гуруҳли никоҳ *	* Моногам никоҳ
2	Оила неча турга бўлинади?	33 турга	34 турга	13 турга	31 турга
2	Ҳозирги замон оиласининг нечта асосий функциялари мавжуд?	9 та	6 та	11 та	* 8 та
2	Психологик муҳит нима?	Шахслараро зиддиятлар *	Иқтисодий етишмовчилик	* Коллективд ан кишиларни нг психологик ҳолати, кайфияти, муносабатл арининг йигиндиси	Манфаатдо рликни кўзлаб иш тутиш
1	Мувофиқликни нечта тури мавжуд?	3 та	6 та	8 та	9 та
1	.Аёл билан эркакнинг оилавий муносабатларида тенг ҳуқуқлиги “Оила кодекси”нинг нечанчи бўлимида кўрсатиб ўтилган?	3 бўлим 2 модда	* 1 бўлим 2 модда	4 бўлим 2 модда	5 бўлим 3 модда
3	Ибн Сино дўстликни неча * йўналишга ажратган?	3 та	2 та	1 та	6 та
3	Қадимги юнонлар севги-муҳаббатни неча турга бўлишган?	8 та	9 та	4 та	* 3 та
2	Севги-муҳаббат туйғуларини Д.А. Ли неча турга бўлган?	8 та	9 та	* 6 та*	7 та
3	Ёшларни оилавий ҳаётга * тайёрлашнинг нечта йўналиши мавжуд?	2 та	6 та	4 та	7 та
3	Никоҳдан ташқари жинсий муносабатларнинг нечта асосий омиллари мавжуд?	12 та	16 та	* 21 та	14 та

1	Эр-хотин ўртасидаги келишмовчиликнинг нечта сабаблари мавжуд?	8 та	6 та	4 та	* 11 та
1	Республикасида оила бўйича шуғулланган тадқиқотчилар	Леонтьев	К. Фабри	* Г. Шоумаров, А. Соғинов	А. Соғинов
3	Оила кодексининг 26-бобидаги «Никоҳдан ажралишни қайд этиш» қачон тасдиқланган?	1998 йил 30-май	1989 йил 30-июнь	1998 йил 30-прел	1998 йил 20-апрел
2	“Ўсимрлик автономияси” неча турдан иборат?	6 турдан	8 турдан	3 турдан	4 турдан
2	Жинсий балоғатга етиш неча * босқичдан иборат?	4 босқичдан	6 босқичдан	3 босқичдан	2 босқичдан
2	“Никоҳ мотивлари” неча турдан иборат?	6 турдан	4 турдан	2 турдан	3 турдан
3	Машҳур ривоятда Хориснинг қизи Асмо келин бўлиб қуёв уйига кетаётганида онаси томонидан берилган ўғитлар сони?	12 та ўғит	13 та ўғит	*10 та ўғит	11 та ўғит
3	Ота-она ва фарзандлар ўртасидаги низолар неча босқичдан иборат?	8 босқичдан	7 босқичдан	6 босқичдан	5 босқичдан
3	Қайнона-келин ўртасидаги низоларни келтириб чиқарувчи асосий сабаблар нечта?	10 та	8 та	7 та*	9 та
3	Хиёнатни юзага келтирувчи омиллар нечта?	8 та	9 та	7 та	* 6 та
3	“XXI аср вабоси” деганда * қандай касаллик назарда тутилган?	СПИД	Захм	Гонорея	Барча жавоблар тўғри
3	Ҳаётда ажралишларнинг асосий сабаблари нечта?	4 та	2 та	2 та*	5 та
2	Оила мустаҳкамлигига раҳна солувчи зиддиятлар, келишмовчиликларнинг асосий сабаблари нечта?	16 та	18 та	13 та	* 11 та
2	Ҳозирги кунда кўп ажралишларга сабаб бўлувчи омиллар?	Эр-хотин ўртасидаги келишмовчилик	Қайнона-келин ўртасидаги низолар	Қайнона-келин ўртасидаги низолар	Барча* жавоблар тўғри

2	Тери таносил касалликларини келиб чиқиш сабаблари?	Никоҳдан ташқари муносабат	Гигиенага риоя қилмаслик	Ҳиёнат	Бошқа сабаблар
3	Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда...	асосан қизларга ўғит-насихатлар бериш	асосан қизларга ўғит-насихатлар бериш	йигитларга ота томонидан алоҳида оилавий ҳаётга тайёргарлик ишларини олиб борилиши	Фақат қизларгагина оила, турмуш, ҳаёт ҳақида насихатлар қилиш.
3	Абу Али Ибн Сино ўз асарларининг бирида “Муҳаббат”ни қандай таърифлайди?	Ажойиб туйғу	Хирфга берилиш	Касаллик	Ҳис-туйғуларга берилиш
3	Ҳозирги замон оиласининг нечта асосий функциялари мавжуд?	9 та	6 та	11 та	8 та *
2	Психологик муҳит нима?	Шахслараро зиддиятлар	* Коллективда кишиларнинг психологик ҳолати, кайфияти, муносабатларининг йиғиндиси	Коллективда кишиларнинг психологик ҳолати, кайфияти, муносабатларининг йиғиндиси	Манфаатдорликни кўзлаб иш тутиш
2	Мувофиқликнинг нечта тури * мавжуд?	3 та	6 та	8 та	9 та
3	Аёл билан эркекнинг оилавий муносабатларида тенг ҳуқуқлиги “Оила кодекси”нинг нечанчи бўлимида кўрсатиб ўтилган?	3 бўлим 2 модда	* 1 бўлим 2 модда	4 бўлим 2 модда	бўлим 3 модда
3	Ибн Сино дўстликни неча * йўналишга ажратган?	3 та	2 та	1 та	6 та
3	Қадимги юнонлар севги-муҳаббатни неча турга бўлишган?	8 та	9 та	4 та	3 та
3	Севги-муҳаббат туйғуларини Д.А. Ли неча турга бўлган?	8 та	9 та	6 та	7 та
3	Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг нечта йўналиши	2 та	6 та	4 та	7 та

	мавжуд?				
3	Никоҳдан ташқари жинсий муносабатларнинг нечта асосий омиллари мавжуд?	12 та	* 16 та	21 та	14 та
3	Эр-хотин ўртасидаги келишмовчиликнинг нечта сабаблари мавжуд?	8 та	6 та	4 та	*1 та